

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

***QASHQADARYO VILOYATI
IQTISODIY GEOGRAFIYASI***

Ma'ruzalar matni

Tuzuvchi: o'qit. D.Mirodova

Qarshi - 2007

Taqrizchi:

dots. L.N. Erdonov

dots. AT. Hayitov

1-MA'RUZA. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy geografiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Режа:

- 1.Qashqadaryo viloyati iqtisodiy geografiyasining predmeti, vazifalari va fanlar tizimida tutgan o'рни.
- 2.Viloyatning iqtisodiy-geografik o'рни
- 3.Viloyatning siyosiy-ma'muriy bo'linishi.

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi respublikada ta'lim, avvalo o'rta umumiy ta'lim maktabini tubdan qayta qurishni, yoshlarga ta'lim va tarbiya berishni milliy lashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Shu sababli O'zbekiston xalqlarining, birinchi galda respublikaga nom bergan o'zbek xalqining, minglab yillar davomida sayqal topgan, keyingi yuz yilda deyarli unitilayozgan g'oyat muhim an'analarini yoshlar ongiga singdirish vazifasi ta'lim va tarbiyaning tub mo

hiyatini tashkil etadi. Xalqning tarixi, tili, adabiyoti, madaniyati, urf-odatlar, muomilasi shu xalqni o'rab turgan tabiiy muhitga bog'liq ravishda shakllanishi aniq. Respublika xududi iqlimining keskin kontinental bo'lishi xalqimizni sug'orma dehqonchilik va yaylov chorvachiligi ustasi sifatida ma'lum va mashhur bo'lishiga olib kelgan.

Ajdodlarimizning yerga, suvga, o'simliklarga va shunga o'xshash tabiat manbalariga bo'lgan munosabatidagi ijobiy xususiyatlarning deyarli unutilishi tufayli bugungi kunda tabiatga loqaydlilik, bepisandlik kayfiyatini shakllanishiga olib keldi, tabiatda noxush jarayonlar va hodisalar sodir bo'la boshladi. Inson hayoti va mehnat faoliyatining moddiy va ma'naviy asosi bo'lgan tabiatning imkoniyatlarini hisobga ola bilmasligimiz tufayli moddiy va ma'naviy qashshoqlasha boshladik, boshqalarning doniga, go'shtiga, shakariga, yog'ochiga va boshqa shunga o'xshash qator mahsulotlarga ko'z tikish kayfiyati pado bo'la boshladi. Holbuki, bular o'zimizda qadimdan yetishtirib kelinganini, tabiatimiz saxiylik bilan o'zimizni ta'minlab kelganligini sal bo'lmasa unita yozdik. Shu sababli bugungi kunda yer-suv, iqlim va umuman tabiiy muhit moddiy va ma'naviy boyliklar manbai bo'lishi uchun doimo g'amxo'rlikka, mehrga, parvarishga muhtoj ekanligini, har bir odam tushinib yetmog'i lozim. Tabiat oldidagi bunday ma'suliyat tabiatni chuqur o'rganish, uning qonunlarini bilish orqali amalga oshiriladi. Har bir inson, ayniqsa voyaga

yetayotgan avlo, o'zi yashaydigan xududning tuproqlari, iqlimi, havosi, suvlari, o'simlik va hayvonot olamini yaxshi bilishi, ularning xususiyatlari va imkoniyatlarini his etmog'i zarur. Qolaversa o'z o'lkamizda nimalar yetishtiriladi-yu, qaysilari boshqa joylardan keltirilishidagi iqtisodiy aloqalar va munosabatlarni anglash yurtsevarlik, millatparvarlik, baynalminallik g'oyalarini shakllantiribgina qolmay, ona tabiatga mehr ko'zi bilan qarashga ham o'rgatadi. Respublikamiz, viloyatimiz, shaharimiz, tumanimizning tabiiy va iqtisodiy geografiyasini chuqurroq bilish zarurati yuqoridagi vazifalardan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan har bir viloyatning muayyan tabiiy va iqtisodiy geografik ta'rifi jamlangan adabiyoti bo'lishi hozirgi kun talabi. Hozir maktab dasturida o'z viloyati geografiyasini o'rganishga 10-12 soatlik vaqt ajratish ko'zda tutilgan. Tabiiy, xududiy va iqtisodiy ko'rsatkichlari jihatidan o'rtacha va o'rtachadan sal kichikroq davlatlarga teng keladigan Qashqadaryo viloyati geografiyasini o'rganish uchun bu juda kamlik qiladi. Buning ustiga viloyat haqidagi tabiiy va iqtisodiy ma'lumotlar geografiya kursining har bir mavzuida o'lkashunoslik materiallari sifatida qo'l keladi. Umum ta'lim maktablarining geografiya muallimlari, o'quvchilar va talabalarning shu mazmundagi o'quv qo'llanmasiga bo'lgan ehtiyojni hisobga olib Qarshi Davlat dorulfununini geografiya va geoekologiya kafedrasi jamoasi "Qashqadaryo viloyati geografiyasi" qo'llanmasini yozdilar. Birinchi marta tuzilgan mazkur qo'llanmada viloyat tabiati va iqtisodiyotining to'liq majmualiy ta'rifi boshqa ixtisosdagi o'qituvchilar, maktab rahbarlari, maktabdan tashqari muassasalarning xodimlari, o'lkashunoslar, sayyohlar kabi madaniy-ma'rifiy sohada ishlovchilar va umuman Qashqadaryo viloyati geografiyasi bilan qiziquvchilar uchun foydali bo'ladi deb o'ylaymiz.

Viloyat 1943 yil 20 yanvarda tashkil qilingan. Uning tarkibiga hozirgi vaqtda 13 qishloq tumanlari (Mirishkor, Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi va G'uzor) kiradi. Maydoni 28,6 ming km² bo'lib, u iqtisodiy rayon xududining 58,7, O'zbekiston Respublikasining 6,4 % ga barobar.

Aholisi 2006 yil ma'lumotlariga ko'ra 2420,4 ming kishi. Viloyatda mamlakat aholisining 9,0 %ga yaqini, iqtisodiy rayonning esa 55,5 % yashaydi. Ma'muriy markazi Qarshi shahri (215,3). (Qarshi h-221,5).

Qashqadaryo viloyati respublika mehnat taqismotida eng avvalo neft va tabiiy gaz qazib olish, gaz-kimyo, yengil sanoat tarmoqlari hamda paxta, g'alla va chorva mahsulotlari yetishtirish bilan ajralib turadi. Uning

zimmasiga O'zbekistonning 6,4 % yalpi ichki mahsuloti, 8,3% sanoat va 7,2% qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi. To'g'ri, bu raqamlar unga yuqori emas, biroq viloyat o'z iqtisodiy qudratini yanada oshirish uchun katta imkoniyalarga ega. Bundan unga ajratilayotgan investitsiya hajmi ham dalolat beradi.

Qashqadaryo viloyati mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibiagi Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatining biridir.

Qashqadaryo viloyati 1920 yilning sentyabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. 1920 yilda Buxoro Respublikasi tashkil topgach, Qashqadaryo alohida viloyat sifatida uning tarkibiga kiritiladi. 1924 yilda markazi Qarshi shahri bo'lgan alohida viloyati maqomiga ega bo'ldi. Ammo 1927 yilda Qashqadaryo okrug sifatida yana Buxoro viloyati tashkil etilgachuning tarkibiga kiritildi va 1943 yilda alohida viloyat sifatida tiklandi.

Ma'muriy-xududiy bo'linishidagi mavjud tabiiy iqlim va mehnat resurslarini hisobga olmaslik oqibatidagi xatolar natijasida 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo o'z xududidan kichik Surxandaryo viloyatiga birlashtirildi. Sug'orma dehqonchilikka yaroqli katta yer fondiga ega bo'lishi, yer osti boyliklari va juda katta mehnat resurslari kabi imkoniyatlar viloyatni qayta tiklashni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston hukumati buni hisobga olib, 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatini avvalgi chegaralarida qayta tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida, shu nomli daryo havzasida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo deb yuritiluvchi yirik tabiiy geografik o'lkaning markazidan sal janubroqda 37 gr 58 bilan 39 gr 32 sh.k. va 64 gr 23 bilan 67 gr 42 shular orasidagi xududni ishg'ol etadi.

U shimoli-g'arbda Buxoro, shimolda Samarqand va qisqaroq masofada Navoiy viloyatlari, janub va janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqei, shuningdek, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan ham tavsiflanadi.

Viloyat Qashqadaryo havzasida va Pomir Oloy tog'larining g'arbiy chekkasida joylashgan. Xududining ko'pchilik qismi tekislik, shimoli-sharqida Kitob-SHahrisabz tekisligi, Qashqadaryoning g'arbida G'uzor tekisligi, shimoli-g'arbda Qarshi cho'li, janubda Nishon cho'li va janubi-g'arbda Sandikli qum cho'lidan iborat.

Tekislik shimoli-sharqqa tomon ko'tarma borib, tog'lar orasidagi Kitob-SHahrisabz botig'ini hosil qiladi. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan

cho'llarni Zarafshon (Qoratepa, Chaqilkalon tog'lari) va Hisor tizmalarining tarmoqlari (Osmontarosh, Shertog', Yakkabog', Eshakmaydon, Ko'kbuloq, Chaqchar, Qorasirt, Dehqonobod tog'lari o'rab turadi).

Viloyatning shimoli-sharqida Kitob-Qamashi tekisligi joylashgan, shimolda Zarafshon va janubi-sharqda Hisor tizmalarining adirlari o'rab turadi. Viloyatning tog'liq va tog' oldi rayonlarida turli xil foydali qazilmalar topilgan.

Qashqadaryo viloyati mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatning biridir.

Hozirgi Qashqadaryo viloyati xududida bir necha bekliklar bo'lib, ular 1920 yil sentyabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida edi. Buxoro respublikasi tuzilgach, hozirgi Qashqadaryo xududi alohida viloyat maqomida shu respublika tarkibiga kirdi. 1924 yil 12 iyulda "O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida" gi qaroriga asosan shu yilning birinchi noyabrida O'zbekiston tarkibida markazi Qarshi shahri bo'lgan Qashqadaryo viloyati tashkil topdi. 1927 yilda Qashqadaryo viloyati okrug sifatida Buxoro viloyati tarkibiga kirdi. 1943 yil 22 yanvarda alohida viloyat sifatida tiklandi. Ma'muriy xududiy bo'linishdagi mavjud tabiiy iqlim va mehnat resurslarini hisobga olmaslik oqibatidagi xatolar natijasida 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo o'z xududidan kichik Surxandaryo viloyatiga birlashtirildi. Sug'orma dehqonchilikka yaroqli katta yer fondiga ega bo'lishi, yer osti boyliklari va juda katta mehnat resurslari kabi imkoniyatlar viloyatni qayta tiklashni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston hukumati buni hisobga olib, 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatini avvalgi chegaralarida qayta tashkil etdi. Viloyat markazi-Qarshi. Viloyatda 12 ta shahar, 108 ta qishloq kengashi va 1300 ga yaqin qishloq bor. Aholisi 1820 ming kishi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida shu nomli daryo havzasida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo deb yuritiluvchi yirik tabiiy geografik o'lkaning markazidan sal janubroqda 37 gr.58' bilan 39 gr. 32' sh.k. va 64 gr.23' bilan 67 gr. 42' sh.u.lar orasidagi xududni ishg'ol etadi.

Geografik o'rni jihatidan Qashqadaryo viloyati xududi Turkmaniston Respublikasining Atrek-Sumbar vodiysi, Ozarbayjonning Lenkoran pasttekisligi, Armaniston Respublikasi hamda Turkiya, Gretsiya, Italiya va Ispaniyaning o'rta mintaqasi, Amerika Qo'shma shtatlari va Yaponiyaning o'rta qismlari bilan bir xil geografik kenglikda yotadi. Viloyat xududi butun O'zbekiston kabi to'rtinchi soat mintaqasida joylashgan bo'lib,

Tokiodan 5, Pekindan 4, Olma-otadan 1 soat keyin, Moskva va Anqaradan 2, Berlin, Parij va Madriddan 3, Londondan 4, Nyu-York, Vashington va Ottavadan 8 hamda San-Frantsisko va Sietl shaharlaridan 12 soat oldin sutka boshlanadi.

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming kv.km bo'lib, xududining kattaligi bo'yicha O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasi (164,9 ming kv.km), Navoiy (110,8) va Buxoro (39,4) viloyatlardan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasi maydonining atigi 7% ini egallagan holda Qashqadaryo viloyati maydoniga ko'ra Albaniya (28,7 minglari yoki Armaniston (29,8), Qrim (26,0) Respublikalari kv.km), Belgiya (30,5), Niderlandiya (32,4) kabi Yevropa davlat maydoni bilan tenglasha oladi.

Qashqadaryo viloyati 795 km uzunlikdagi chegaraga ega, shundan 405 km tog'lar, 390 km tekisliklar orqali o'tadi. G'arbdan sharqqa 293 km, shimoldan janubga 195 km masofaga cho'zilgan. Shimolda Qashqadaryo viloyatining Samarqand viloyati bilan chegarasi Zarafshon tizmasining Chaqilkalon, Qoratepa, Ziyovuddin-Zirabiloq tog'lari va ular orasidagi Jom va Qarnob cho'lining to'lqinsimon tekisliklari orqali o'tadi. Sharqda Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan Hisor tizmasi orqali chegaradosh. Sharqda shuningdek Surxondaryo viloyati bilan ham chegaradosh bo'lib, sarhad chizig'i respublikaning eng baland tog'i Hisor tizmasining qirradi, uning tarmoqlari Chaqchar va Boysuntog' suvayirg'ichi, so'ngra janubi-g'arbdan Sho'rob botig'i, Suvsiztog' va Qo'hitangning qirradi bo'ylab o'tadi. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston Respublikasi bilan eng uzun chegaraga ega. Ko'xitangning g'arbdagi davomi bo'lgan Deqonobod past tog'lari, janubda Nishon adirlari-Saksondara, Oloviddintog' va Qarshi qiya tekisligi, Sandikli qum cho'li, Qashqadaryo va Chorjev viloyatlari sarhadlarini bir-biri bilan tutashtiradi. Qarshi dashtining Dengizko'l, Jarqoq, Setalantepa qirlari va Qarnob cho'li kabi g'arbdagi yerlari Buxoro va so'ng navoiy viloyatlariga kirib boradi.

Qarshi cho'lini o'zlashtirishda start maydonchasi vazifasini o'tash maqsadida barpo etilgan Talimarjon shahrining nomi asli Turkmanistondagi temir yo'l bekatining nomidir. Qarshi bosh kanali va uning asosiy ob'ektlari shu qo'shni respublika xududida joylashgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari respublikaning janubiy xududi deb yuritiladi. Qarshi shahridagi neft va gaz konlarini qidiruvchi va ishga tushuruvchi idora butun respublika xududidagi shunday ishlarning bosh mutasaddisidir. Bundan 2000 yil oldin qazilgan Manas (Eski Anhor,

Moskva nomli) arig'i Samarqand viloyatidagi Darg'om anhorining janubdagi tarmog'idir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni bu xududda faqat O'zbekiston va O'rta osiyoga xos tabiat majmualarinigina emas, balki Markaziy Osiyo, Sibir, sharqiy Yevropa, Kavkazorti, Kichik Osiyo, O'rtadengiz bo'yi, Eron, Afg'oniston, Hindistonga xos o'simlik va hayvonot vakillarini tarqalishiga ham sabab bo'lgan.

2-Ma'ruza. Viloyatning tabiiy sharoiti va resurslariga iqtisodiy ta'rif.

Reja:

1. Viloyatning tabiiy sharoiti:
 - a) yer yuzasi tuzilishi.
 - v) iqlimi, suvlari
 - s) tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi
2. Viloyatning tabiiy resurslari va ulardan foydalanish.
3. Tabiatidan foydalanish va muhofaza qilish.

Viloyat hududi Qashqadaryo havzasida Pomir-Oloy tog' sistemasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari orasida joylashgan. Asosan Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan bo'lib, shimoli-sharq va janubi-sharqda Zarafshon hamda Hisor tizma tog'lari bilan o'ralgan. Tog'lar bilan tekisliklar orasi adirlar tekislikning katta qismi g'arbda Sandikli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi, ularning eng baland nuqtalari 3750-4100 metrgacha yetadi.

Viloyat relefining bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga egaligini asoslab beradi va ichki hududiy mehnat taqsimoti, iqlim sharoitlarining shakllanishiga sabab bo'ladi. Jumladan, Qashqadaryoning qo'yi qismi katta qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qo'lay bo'lgan yer maydonlariga ega. Shu bilan birga bu yer respublikamizda neft va tabiiy gaz zahiralarining ko'pligi bo'yicha 1-o'rinda turadi. Chunonchi ko'rilayotgan hududda Ko'kdumaloq, Muborak, Pomuq kabi yirik neft-gaz, Sho'rtan, Zevardi, Qo'ltiqqa o'xshash tabiiy gaz konlari mavjud. Viloyatning Dehqonobod tumanida esa turli xil tuz konlari, qurilish materiallari xom-ashyosiga boy. Ayniqsa bu yerda katta zahiraga ega bo'lgan kaliy tuzlarining borligi mamlakatimizda kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarish sanoatini tashkil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

SHuningdek, viloyatning yuqori Shahrisabz mintakasida marmar va boshqa konlar ham mavjud; bu yerda Kitob geologik qo'riqxonasi ham tashkil qilingan. Shunday qilib, Qashqadaryoda xususan yoqilg'i-energetika, tog'-kon va gaz kimyosi, qurilish materiallari sanoatini keng ko'lamda rivojlantirishga qo'lay imkoniyatlar mavjud.

Iqlimi kontinental, yog'in-sochin miqdori, ayniqsa cho'l mintaqasida juda oz. Binobarin, bu yerda dehqonchilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya shaxobchalarini qurish talab etiladi. Tog' oldi va tog' mintaqasida yillik yog'in-sonchin miqdori hatto 800-900 mmga yetadi. Bu esa daryolarning tuyinishiga qo'lay sharoit yaratadi.

Viloyat hududi Qashqadaryo havzasida joylashgan. Qashqadaryoga Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo, Oyoqchidaryo, Qizildaryo va boshqalar kelib qo'shiladi. Natijada viloyatning yuqori (SHahrisabz) mintaqasida gidrografik tizimning ancha rivojlangan shakli vujudga keladi. Biroq, Qashqadaryo qo'yi mintaqaga borgan sari uning suvi kamayib boradi va bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo hozirda Qarshi-Koson atrofida tamoman tugab qoladi.

Qashqadaryoda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida 70-yillarda Qarshi dashti o'zlashtirilishi keng miqyosda olib borildi. Hozirgi kunda viloyat hududida qaptor sug'orish inshootlari barpo etilgan. Masalan, bu yerda Hisorak, Qalqama, Chimqo'rg'on, Qamashi suv omborlari mavjud, G'uzor tumanini asosan Pachkamar suv ombori va G'uzordaryo sug'oradi.

Yirik Qarshi magistral kanali Amudaryodan boshlanadi va qisqa masafada qo'shni Turkmaniston hududidan o'tadi, so'ngra u katta Talimarjon suv omboriga qo'yiladi, undan qudratli nasos stantsiyalari yordamida 132 metr balandlikka ko'tarilib beriladi. Bundan tashqari so'l mintaqasi Mirishkor (avvalgi Ulyanov) kanali suvlari bilane ham sug'oriladi, viloyatning shimoliy qismiga, asosan Chiroqchi tumaniga Zarafshon suvlari Eskianhor kanali orqali yetib keladi.

Respublikamizning shunga o'xshash boshqa hududlarida bo'lganidek, bu yerda ham ko'plab zovurlar (kollektorlar) va to'planib qolgan sho'r, oqova suvlardan tashkil topgan tuz ko'llar bor. Ular ko'proq Qarshi dashtida uchraydi. Demak bir tomondan kanal va suv omborlari yerlarni sug'orishda xizmat qilsa, obodonlashtirsa, ikkinchi tomondan, zovur va sun'iy ko'lchlar hudud agroekologiyasining noqo'layligidan darak beradi.

Shunday qilib, viloyat agroiklimiy sharoitlari hamma joyda ham bir xil emas. Chunonchi, uning yuqori qismida intensiv dehqonchilikni rivojlantirish bog'dorchilik va uzumchilikni tashkil qilish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lsa, qo'yi cho'l mintaqasida tabiiy sharoit qadimdan g'alla va chorvachilik uchun qulaylik qilgan. Keyinchalik bu yerda ham sug'orma dehqonchilik rivojlanib borgan.

Albatta, Qarshi dashtini o'zlashtirish va shu asosda paxtachilikni rivojlantirish (bu ham bo'lsa, sobiq ittifoq davrida, Respublikada paxta yakka xokimligini yanada kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan) mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. Biroq, bu o'ziga xos tabiiy geotizimga insonning shunchalik aralashuvi kerakmidi?

Binobarin, hozirgi yoqilg'i-energetika va tog'-kon kimyo majmualarini to'g'ri rivojlantirish va hududiy tashkil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

TABIATDAN FOYDALANISH VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH.

Ilmiy-texnika tarqqiyoti, aholining tez ko'payishi, ishlab chiqarish tarmoqlari va transportning rivojlanishi insonning tabiatga va uning resurslariga bo'lgan ta'sirini yildan-yilga oshirib bormoqda, ya'ni inson va tabiat orasidagi o'zaro munosabatlar muammolari yanada murakkablashib bormoqda. Jahonning barcha katta-kichik mintaqalarida o'ziga xos ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Shu sababli bugungi kunda tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni, ya'ni bu resurslardan tejamkorona foydalanish, ularni ko'paytirish va tiklashga qaratilgan tadbirlarni rejali va maqsadli ravishda amalga oshirish lozim.

Inson o'zining hayotiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i, energiya xom ashyolarini mehnat faoliyati orqali tabiatdan oladi. Shu boisdan tabiat va uning resurslari insonning hayotiy va xo'jalik faoliyati uchun asosiy manbadir.

Tabiiy resurslar biror bir tabiat hodisasiga mansubligi, foydalanilishi va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi va tasnif qilinadi.

Tabiiy resurslar tugaydigan va tugamaydigan resurslarga bo'linadi. Tugaydigan resurslar o'z navbatida tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslardan iborat.

Tiklanmaydigan resurslarga mutlaqo tiklanmaydigan (toshko'mir, neft va b.sh.) yoki foydalanishga nisbatan nihoyat sekin tiklanadigan, (torf ko'pgina cho'kindi jinslar) resurslar kiradi. Shu sababli tiklanmaydigan resurslarni qazib olish, qayta ishlash va foydalanishda tejamkorlik talab qilinadi.

Tiklanadigan tabiiy resurslarga, tuproq, o'simlik, havyvonot dunyosi, shuningdek mineral resurslarning ayrim turlari kiradi. Bu resurslara foydalanish jarayonida tabiiy sharoitlar o'zgartirilmagan hollarda qayta

tiklanadi. Tabiiy sharoitlarning o'zgartirilishi qayta tiklanish jarayonlarini sekinlashtiradi yoki butunday to'xtatib qo'yadi. Shu sababli tiklanadigan tabiiy resurslardan foydalanishda ularning tiklanish suratlari albatta e'tiborga olinishi kerak. Aks holda tiklanadigan tabiiy resurslar tiklanmaydigan resurslar toifasiga o'tishi mumkin. Masalan, hayvonlar yoki o'simliklarning batamom yo'qotilgan ayrim turlarini endilikda tiklash imkoniyati yo'q.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi. Bu resurslardan qancha foydalanilganda ham ularning miqdori tugamaydi, lekin ishlab chiqarish jarayonlari tufayli ular ifloslanishi va sifati jihatidan foydalanish imkoniyatlarini yo'qotishi mumkin. Shu tufayli tugamaydigan tabiiy resurslarni muhofaza qilish tadbirlari ularning sifat jihatidan yomonlashuviga qarshi kurashga yo'naltirilmog'i lozim.

Keyingi yillarda viloyatda tabiiy resurslarni iqtisodiy jihatdan baholash va foydalanishga doir talaygina ishlar amalga oshirildi. Neft va gaz konlari ochildi va foydalanishga topshirildi, noma'dan foydali qazilmalarning zahiralari aniqlandi va baholandi, yer, suv, o'simlik va boshqa resurslar o'rganildi. Shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ulardan ishlab chiqarishda foydalanishni bashorat qilishning muammolariga doir iqtisodiy-ekologik masalalar o'rganildi. Lekin xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish maqsadida majmuiy o'rganilishi zarur.

Qashqadaryo viloyatida xo'jalikda o'zlashtirish ancha qo'lay bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar (relef, iqlim, suv, tuproq va o'simlik) mavjud. Viloyat hududi sug'orma va lalmikor dehqonchilik, yaylov chorvachiligi, bog'dorchilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish uchun ancha katta yer resurslariga ega bo'lganligi tufayli intensiv o'zlashtiriladigan rayonlar qatoriga kiradi. Ammo tabiiy resurslardan xo'jalikda foydalanishning samaradorligini oshirishda bir talay muammolar mavjud.

Mineral-xom ashyo resurslari. Geologik jihatdan Qashqadaryo viloyatining hududi Hisor tuzli, janubiy-G'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva neft-gazli regioniga mansubdir. Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalarni tabiiy gaz, gazli kondensat, neft, osh va kaliy tuzlari, qoplama uchun foydalaniladigan toshlar va qurilish materiallari sanoati uchun xom ashyo tashkil etadi. Shuningdek, marganetsning uncha katta bo'lmagan zahiralari bor. Bundan tashqari, geologiya-qidiruv ishlari natijasida polimetallar,

yonuvchi slanetslar va fosforitlar ma'danlashuvining namoyon bo'lishi aniqlangan.

Tabiiy gazning aniqlangan zahiralariga ko'ra Qashqadaryo viloyati hozirgi paytda O'zbekistonda birinchi o'rinni egallaydi.

Gaz va neft qazib olish viloyatda Shimoliy Muborak, Janubiy Muborak, Odamtosh, Gumbuloq, Pachkamar, Qizilbayroq kabi yirik gaz konlarining, Sho'rtepa, Qoraxitoy kabi gaz-neft konlarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq holda 60-yillarda boshlandi. Gaz zahiralaridan foydalanish maqsadida O'zbekistonda yagona bo'lgan olitingugurt va gaz ishlab chiqaradigan Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurildi. Hozirgi paytda Sho'rtan gaz-ximiya kompleksi qurilmoqda. Viloyat hududida qazib olinadigan neft Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga yuboriladi.

Qashqadaryo viloyatida gaz va neft qazib olish yildan-yilga oshib bormoqda. 1977 yilda viloyat hududida 8 mlrd.m.kub gaz va 360 ming tonna neft qazib olingan bo'lsa, 1992 yilda 36.9 mlrd.m.kub gaz va 946 ming t. Neft qazib olindi.

Qashqadaryo viloyatining tog'li mintaqasida Dovtosh va Qizilbayroq marganets konlari mavjud bo'lib, Qora tepa tog'larining janubiy yonbag'ridagi Dovtosh konining zahirasi 0.8 mln.t.ni tashkil etadi. Dovtosh konida marganetsning miqdori 16.8%. Konda marganets ma'dani ochiq usul bilan qazib olishini mumkin. Qizilbayroq marganets koni Dovtosh konining sharqdagi davomi bo'lib, bu konning ma'danlari metallurgiya sanoatida hamda qishloq xo'jaligida mikroo'g'itlar sifatida foydalanilishi mumkin.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Qamashi va G'uzor tumanlari hududlarida osh tuzi va kaliy tuzining katta zahirallari mavjudligi aniqlangan.

Hisosr tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida osh tuzining Boybichchakon va Tepaqo'ton konlari aniqlangan. Bu konlarda qatlamlarining qalinligi 200-600 m bo'lgan osh tuzining juda katta zahirallari mavjud.

Boybichchakon Qamashi tumanida Langar qishlog'idan 12 km janubi-sharqda joylashgan bo'lib, osh tuzi qatlamlari 600-1000 m.gacha chuqurlikda joylashgan. Eng mahsuldor qatlamning qalinligi 94,56%. S-2 toifasidagi osh tuzining zahirasi 4.4 mlrd tonnaga teng.

Osh tuzi shuningdek Tepaqo'ton kaliy tuzli konida ham mavjudligi aniqlangan. Bu yerda osh tuzining zahirasi 6.1 mln.tonnani tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati ulushiga kaliy tuzlarining O'zbekistonda bashoratlashirilgan zahiralarning 70%ga yaqini va balansdagi zahiralarning 100% to'g'ri keladi. Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida Oqbosh-Tepaqo'ton, Kaypantov va Pachkamar tuzli maydonlari aniqlangan. Ular orasida eng yirigi Dehqonobod shaharchasidan 30 km shimoli-sharqda joylashgan Tepaqo'ton konidir. Bu kondagi kaliy tuzlarining bashoratlashirilgan zahirasi 500 mln.tonnani tashkil etadi.

Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari doirasida Dehqonobod tumanida ToshDU geologlari tomonidan bashoratlashirilgan zahirasi 213 mln.tonnani tashkil etadigan fosforit konlarining mavjudligi aniqlangan.

Dehqonobod hududida Dehqonobod, Xo'jaarna, Qizilcha, Dardara va boshqa joylarda yonuvchi slanetslarning mavjudligi aniqlangan.

Geologik qidiruv ishlari natijasida Zarafshon tizmasining janubiy tarmoqlarida Chiroqchi shahridan 30 km shimoli-sharqda pegmatitning Lolabuloq koni aniqlangan. Unda pegmatitning bashoratlashirilgan zahirasi 7 mln. tonnani tashkil etadi.

Dehqonobod konida bentonitli gillarning 180 mln.tonna miqdoridagi bashoratlashirilgan zahirasi aniqlangan. Qatlamlarning qalinligi 150 m.gacha bo'lgan bu gillar keramzit ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin. Bentonitan gillarning 102 mln. tonna miqdoridagi zahirasi Qarshi shahri yaqinidagi Qo'ng'irtog'da ham aniqlangan. Bu yerdagi gilli xom ashyo Qarshi keramzit zavodida mahsulot tayyorlash uchun foydalanilmoqda.

Qashqadaryo viloyati hududi qurilish matreiallari uchun xom ashyoga (marmar, dolomitli ohaktosh, ohaktosh, gips, shag'al, qum va b.sh.) boy.

Kitob tumanida marmaning Birkunlik, Bodomzor va Sevaz kabi yirik konlari joylashgan. Bu konlardagi marmarning umumiy zahirasi 4 mln.m. kubdan ortiqroqdir. Birkunlik, Bodomzor va Sevaz konlarining marmar zahiralari Kitob toshni ishlash kombinatida marmar bloklari va uvoqlarini ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Bu kombinatning mahsulotlari nafaqat O'zbekistonda balki Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belarus respublikalarida ham foydalaniladi.

Dolomitli ohaktosh Dehqonobod va Pachkamar konlarda ayniqsa batafsil o'rganilgan. Dehqonobod konida devorbop dolomitlarning zahirasi 6.4 mln.m. kubga yaqinni tashkil etadi. Bu konlarning dolomitli ohaktoshlari devorbop toshlar va o'tga chidamli xom ashyo uchun

foydalanilmoqda. Shuningdek Dehqonobod dolomiti Toshkent va Samarqand chinni zavodlariga ham jo'natiladi.

Ohaktoshning Zarafshon tizmasining janubiy tarmoqlaridagi Qaynar va Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridagi Langar konlari aniqlangan. Geologik qidiruv hisoblariga ko'ra Qaynar konida ohaktoshning zahirasi 8.9 mln tonnaga. Langar konida esa 140 mln. tonnaga yaqin. Lekin hozirgi paytda har ikkala konning ham ohak toshlari foydalanganicha yo'q. Kitob shahridan 12 km shimolda tsement xom ashyosi uchun yaroqli bo'lgan. Qoratepa ohaktoshli koni aniqlangan.

Qashqadaryo viloyatida ko'plab gipsli joylar aniqlangan bo'lib, ulardan eng yiriklari Pachkamar, Tepaqo'ton va Langar konlaridir.

Qashqadaryo viloyati hududi qurilish sanoati uchun muhim xom ashyo hisoblanadigan shag'al va qumning ham katta zahiralariga ega. Umumiy zahirasi 29.2 mln.m.kub bo'lgan Tanxoz konning qum-shag'al xom ashyosi Shahrisabz shag'al saralash zavodida foydalanilmoqda.

Hozirgi paytda foydali qazilmalar qazib olinayotgan joylarda karerlar, ag'darilgan qatlamlar, tepaliklar hosil bo'lgan. Kuchli shamollar esgan paytda bunday joydlardan mayda zarrachalar aholi yashaydigan joylarga uchunriladi, yog'inlar paytida yuviladigan zarrachalar esa suv havzalarini, daryolarning irmoqlarini va qishloq xo'jalik yerlarini ifloslanishiga olib keladi. Cho'l landshaftlarida geologik qidiruv ishlarining transport vositalari nafis ekosistemalarning qashshoqlanishiga yoki nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Geologiya-qidiruv ishlari olib borilayotgan joylarda mineral resurslardan foydalanilayotgan konlarda atrof-muhitni muhofaza qilishga deyarli e'tibor berilmayotir. Shu sababli tog'-kon sanoati korxonalari yerdan samarali foydalanish maqsadida rektivatsiya ishlarini yo'lga qo'ymoqlari lozim.

Iqlim resurslari. Qashqadaryo viloyati hududining katta qismi qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish uchun yetarli bo'lgan issiqlik miqdoriga va uzoq davom etadigan vegetatsiya davriga ega. O'zining janubiy geografik o'rni tufayli Qashqadaryo O'zbekistonda quyosh yoritadigan soatlar miqdori (2600-3000 soat) eng ko'p bo'lgan joydir. Shu tufayli bu hududda Quyoshdan keladigan issiqlik miqdori ham ancha katta. Hisoblarga ko'ra viloyatning tekislik qismida yalpi radiatsiyaning yillik miqdori 6700-7100 MD j/m-kv ga. Fotoaktiv radiatsiyaning yillik jami esa 3300 MDj/m-kvga yetadi.

Issiqlik energiyasining manbai bo'lgan quyosh radiatsiyasining kattaligi o'simliklarning hayotiy faoliyatining asosini tashkil etuvchi

Issiqlik resurslarining ham katta bo'lishiga sabab bo'ladi. Sug'orma dehqonchilik sharoitlarida qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi rivojlanishi va hosil to'plashi asosan issiqlik resurslariga bog'liq. Shuning uchun vegetatsiya davridagi issiqlik resurslarini baholash muhim ahamiyatga ega.

Issiqlik resurslari va o'simliklarning issiqlik bilan ta'minlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar muayyan haroratning (+5 gradus S +10 gradus S) vegetatsiya davridagi o'rtacha sutkalik haroratlarning yig'indisidir. Yovvoyi o'simliklar ko'pincha o'rtacha sutkalik harorat +5 gradusdan oshgandan so'ng vegetatsiya qila boshlaydi. Madaniy ekinlarning vegetatsiya davri esa o'rtacha sutkalik harorat +10 gradus bo'lganda boshlanadi. Shu sababli har qanday hududning issiqlik resurslarini baholash uchun yil davomida faol haroratlarning (+10 gradus S dan yuqori) miqdorini bilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, kartoshka uchun vegetatsiya davridagi faol haroratlarning yalpi miqdori 1500-1800 gradus, bahorgi bug'doy uchun 1700-1900 gradus, paxta uchun 3200-3600 gradus, tsitrus ekinlari uchun esa 4000-5000 gradus bo'lishi kerak.

Qashqadaryo viloyati hududining tekislik va tog' oldi qismlarida +5 gradusdan yuqori bo'lgan o'rtacha sutkalik haroratlarning yig'indisi 5500-5750 gradusni, +10 gradusdan yuqori bo'lgan o'rtacha sutkalik haroratlarning yig'indisi esa 5050-5250 gradusni tashkil etadi. Sovuq bo'lmaydigan kunlar 213-233 kun. Bunday issiqlik sharoitlarida g'ozaning ingichka o'rtacha tolali navlarining yetishishi, shuningdek, anjir, anor, shaftoli kabi issiqsevar mevalar pishib yetishadi. Shuningdek, makkajo'xori va sabzavotlarning ayrim turlaridan bir yilda ikki marta hosil olish mumkin.

Vegetatsiya davrining uzoq davom etishi tufayli Qashqadaryo viloyati mayiz, o'rik hamda shaftoli kabi qimmatbaho quruq meva mahsulotlarini tayyorlashda viloyatlar orasida muhim iqtisodiy mavqega ega. Issiqlik resurslari shuningdek yaylovlarda yilning katta qismida mol boqish imkoniyatini beradi.

Quyoshdan keladigan issiqlik juda katta energiya manbaidir. Quyosh energiyasidan issiqxonalarni va uy-joylarni isitishda, qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritishda, sho'r suvlarni chuchuklashtirishda va boshqa sohalarda keng foydalanish imkoniyatlari mavjud. Lekin bu sohada viloyatda dastlabki ishlargina amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ayniqsa uning tog'li rayonlarida iqlim sharoitlarida rekreatsiya, ya'ni dam olish va salomatlikni yaxshilash

maqsadida foydalanish uchun juda katta afzalliklarga ega. Toza tog' havosi, ajoyib tabiat manzaralari, yozda havo haroratining mu'tadil bo'lishi, daryolarning rohatbaxsh suvlari tufayli viloyatning tog'li rayonlari Kavkaz yoki Qirim iqlimining xususiyatlaridan qolishmaydi. Lekin tog'li rayonlarning rekreatsiya imkoniyatlaridan xozircha juda kam foydalanilayotir. Kelgusida bu yerlarda ko'plab dam olish uylari, pansionatlar, sayyoxlar uchun maxsus kempinglar va boshqa xordiq chiqariladigan ob'ektlarning qurilishi yechimini kutayotgan masalalardir.

Xozirgi paytda iqlim resurslaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda atmosfera havosini muxofaza qilish muammolari ham vujudga kelmoqda. 1992 yilda viloyatda 456,4ming tonnaga yaqin xar-xil zararli moddalar havoga chiqarib tashlangan. 100 dan ortiqroq katta-kichik korxonalardan tashkil topgan viloyat sanoati atmosfera havosini xar-xil zaxarli moddalar bilan ifloslanishida asosiy manbaalardan biridir. Ayniqsa gaz qazib oluvchi va gazning qayta ishlash sanoatining korxonalari atmosferani oltingurgut, uglerod oksidi va boshqa gazlar bilan ifloslashda eng katta ululshga ega. Hisoblarga ko'ra viloyatdagi gaz sanoatining korxonalari atmosferaga xar yili 240-250 ming tonna miqdorida zaxarli moddalarni chiqarmoqda. Atmosfera havosi shuningdek qurilishi materiallari sanoatining korxonalari, paxta tozalash zavodlari, maishiy xizmat va boshqa korxonalar tomonidan ifloslantirilmoqda. Bu korxonalar atmosferaga xar yili kamida 19-20 ming tonna miqdoridagi qattiq zarrachalarni, uglerod va azot oksidi kabi zaxarli gazlarni chiqaradi.

Atmosfera havosini ifloslovchi manbalardan yana biri transportdir. Transpolrtning rivojlanishi, ayniqsa avtomabillar sonining ko'payishi atmosfera havosining ifloslanish darajasini oshirmoqda. 1990 yilda viloyatdagi barcha transport vositalari 212,9 ming tonna zaxarli moddalarni havoga chiqargan. Qarshi meteorologik byurosining ma'lumotlariga ko'ra viloyatda atmosferaga chiqarib tashlanayotgan zararli chiqindilarning 42-44% avtomabil transportiga to'g'ri keladi.

Atmosfera havosini muxofaza qilishga doir viloyatda qilinayotgan ishlar xozirgi zamon talablari darajasidan juda past. Ishlab chiqarish rivojlangan sari atmosfera havosini gazlar, chang, qurum va boshqa zaxarli moddalar bilan ifloslanish darajasi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Sanoat, transport, qurilish, maishiy xizmat va xujalikning boshqa korxonalarida xar yili 330-350 ming tonna miqdorida zaxarli qattiq va gazsimon moddalari hosil bo'lsada, shundan atiga 20%ga yaqini maxsus

chang tutqich asboblari orqali tutiladi, qolgan qismi atmosferaga tashlanadi.

Atmosfera havosining ifloslanishi ishlab chiqarishga juda katta iqtisodiy zarar yetkazishi bilan bir qatorda kishilar salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli atmosfera havosining ifloslantiruvchi barcha korxonalar kam chiqindili yoki chiqindisiz texnologiyaga o'tishi lozim. Bu iqtisodiy jihatdan qiyin vazifa, lekin xar bir mamlakatda fuqrolarning salomatligi farovonlikning va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbai ekanligini nazarda tutilsa bajarilishi lozim bo'lgan vazifadir.

Suv resurslari. Suv tabiat tomonidan inson uchun in'om etilgan bebaho boylikdir. Qashqadaryo viloyati qishloq xujaligi maxsulotlarini yetishtirish qulay issiqlik sharoitlariga ega bo'lsada, bu xudud uchun yilning katta qismida (Ayniqsa yoz oylarida) namning o'ta tanqisligi xosdir.

Qashqadaryo viloyatining tekislik qismida yillik yog'inlarning miqdori 145-230mm ni, adirlarda 300-370mm ni, tog'larda 400-650 mmni tashkil etadi.

Ayni paytda yillik yog'inlarning 90-95%i noyabr-may oylarida tushadi. Shu sababli qishloq xujaligi ekinlaridan faqat sug'orib xosil olish mumkin. Shuningdek viloyatda yetishtiriladigan qishloq xujalik ekinlarining so'g'orish me'yori ham ancha katta. Masalan, g'alla ekinlari uchun sug'orish me'ri xar bir gektar maydonga 7900m kub, kup yillik o'tlar uchun 10100-10700m kub, sabzavotlar uchun 11100-11200m kub, G'o'za uchun 8300-8500m kub, bog'lar uchun esa 7700-7900ms kubni tashkil etadi. Shu sababli barcha quruq iqlimli mintaqalardagi kabi bu yerda ham suv resurslaridan oqilona va tejamkorona foydalanish viloyat xujalik tarmoqlarini yanada rivojlantirishining muhim shart-sharoitidir.

Qashqadaryo havzasining suv resurslari asosan daryolar, soylar, buloqlar, ko'llar hamda yer osti suvlaridan tashkil topgan. Viloyatning asosiy mahalliy suv manbalari Qashqadaryo va uning irmoqlari Oqsuv, Tanhoz, Jinnidaryo, Yakkabog'daryo, Turnabuloq, Langardaryo, Katta Ura, Kichik Ura va G'uzor daryolarining suvlaridan iborat. Viloyat xududida vujudga kelgan oqimli kup yillik o'rtacha miqdori 1,28 km kubni tashkil etadi yoki har bir kishiga yiliga 750m kubga yaqin suv to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyati suv resurslarining asosiy manbai bo'lgan yer usti suvlari (daryolar) xududiy jihatdan juda notekis taqsimlangan. Viloyatdagi daryolar asosan tog'li va tog' oldi rayonlarda oqadi. Shuningdek daryolarning suv rejimi ham qishloq xujalik ekinlari

so'g'oriladigan davriga mos kelmaydi. Shu sababli oqimni tartibga solib turish va vegetatstsia davrida so'g'orishda foydalanish uchun loyixadagi suv hajmi 2,5 mlrd. m kubdan, foydali suv hajmi esa 2,3 mlrd. m kubdan ortiqroq bo'lgan 14 ta suv ombori qurilgan.

Yer usti suvlaridan tashqari viloyatda xududiy taqsimlanish, suvli qatlamlarning chuqurligi menerallashuv darajasiga ko'ra turli xil bo'lgan yer osti suvlarining ham ancha katta zaxiralari aniqlangan. Xozirgi paytda yer osti suvlari so'g'orishda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda, sanoat korxonalarini, maishiy kommunal xo'jaliklarini suv bilan ta'minlashda ancha katta miq'yosda foydalanilmoqda. Yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida viloyatda 5500ga yaqin artezian quduqlar qazilgan, lekin bu quduqlarning deyarli yarmi suv olishda turli sabablarga ko'ra foydalanilmayotir. Hisoblarga ko'ra turli sohalarda foydalanish uchun viloyatda hhar yil o'rtacha 0,4 km kub miqdorida yer osti suvlari olinadi, shundan 0,2 km kubdan kuprog'i so'g'orishda foydalaniladi.

Qashqadaryo viloyatida mahalliy suv resurslari suvga bo'lgan extiyojning atiga 20% ga yaqinini qondiradi. Shu sababli suvga bo'lgan extiyojning katta qismi qushni havzalarning suv resurslari hisobiga qoniqtiriladi.

Qashqadaryo havzasidagi yangi yerlarni o'zlashtirish va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida dastlab Zarafshon daryosida suv oladigan "Moskva", keyinroq esa Amudaryodan suv oladigan Qarshi kanallari qurildi. Xozirgi paytda mahalliy va qo'shni havzalardan olinadin olinadigan suv resurslarining umumiy miqdori foydalanilayotgan yer osti suvlari bilan birga 6,7-6,9 km kubni tashkil etmoqda. Mavjud suv imkoniyatlaridan 6,4 km kubga yaqini so'g'orishda, 0,084 km kub sanoatda, 0,14km kub komunal xo'jalikda, 0,018km kub boshqa sohalarda foydalaniladi. So'g'orishda 0,3km kubga yaqin suv qayta foydalaniladi. Mutaxassislarning hisobiga ko'ra viloyatda aholining ichimlik suviga bo'lgan extiyojini qondirish, sanoat korxonalari, maishiy-komunal xo'jalikni va boshqa tarmoqlarining extiyojlarini ta'minlash uchun xar sutkada 1mln. m kubdan ortiq suv sarflanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida neft-gaz, tog'-kon, qurilish materiallari va boshqa sanoat tarmoqlarining yanada rivojlanishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, yaylovlarning suv ta'minotini yaxshilash suvga bo'lgan extiyojni yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda. Lekin butun O'rta Osiyo jumladan O'zbekistonning suv resurslari cheklangan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida 60 yillardan boshlab katta maydonlarda bo'z

yerlarning o'zlashtirilishi va so'g'orma dehqonchilikning rivojlanishi tufayli Orol dengizida suv sathi keskin pasayib bordi va hozirgi kunda ham yechimini topmagan bir qator ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Shu sababli bugungi kunda Orol havzasining barcha rayonlarida suv resurslaridan o'ta tejamkorona foydalanish va suv manbalarini ifloslanishdan muxofaza qilish yuqori darajaga ko'tarish talab qilinadi. Lekin hozirgi paytda suv resurslari viloyat xo'jalik ratmoqlarida, ayniqsa so'g'orma deg'qonchilikda tejamkorlik bilan foydalanilmayotir. Vegetatsiya davrida g'o'za va boshqa ekinlarning so'g'orishda suvni zovurlarga tashlab yuborish, kullatib so'g'orish, keraksiz joylarga oqizish tufayli ancha katta miqdordagi suv isrof qilinmoqda. Shuningdek kanallar va ariqlarning betonlashtirilmaganligi sababli so'g'orish uchun olingan suvlarning 37-38%i ekinzorlarga yetib bormaydi. Katta-kichik kanallarda va yer ariqlarda 2,3-2,4 mlrd. m kub suv, yani viloyat xududida bir yilda hosil bo'ladigan oqimga nisbatan deyarli 2 baravar kuproq suv tuproqqa sizib ketadi. Shuning uchun ham viloyatda so'g'orish tizimlari shahobchalarining foydali koeffitsienti-0,65, magistral kanallarini-0,84, xo'jaliklararo kanallarini-0,89, ichki xo'jalik suv turlarini esa-0,84dir.

Viloyatdagi suv havzalarining sanoat, kommunal xo'jalik, sog'lomlashtirish va qishloq xo'jaligi korxonalarining iflos chiqindi va oqova suvlari bilan ifloslanish darajasi ancha yuqori. Chunki iflos chiqindi suvlarni tozalovchi inshootlar yetarli emas, mavjud inshootlar ham to'la quvvat bilan ishlamayotir.

Viloyatga nom bergan Qashqadaryoning o'zi ham bugungi kunda muhofazaga muhtoj bo'lib qolgan. Daryo o'zanigacha bo'lgan yerlarning o'zlashtirilishi tufayli noyob o'simlik va hayvonlari bo'lgan o'ziga xos tabiiy komplekslar-to'qaylar yo'qotiladi. Tuproqlarning zax bosishi va sho'rlanishini kamaytirish maqsadida qazilgan zovurlar orqali Shahrisabz shahridan deyarli Qarshi shahrigacha bo'lgan masofada minerallashuv darajasi ancha yuqori bo'lgan suvlar Qashqadaryoga oqizilmoqda.

Qashqadaryo havzasi suv resurslarini ifloslanishdan saqlashga doir barcha tadbirlarni ko'rish lozim. Ayniqsa Qashqadaryoning qayri va qo'yi terrasasida tabiiy komplekslarni tiklash maqsadida muhofaza zonasini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yer resurslari. Tabiiy resurslar orasida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini xo'jalikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosi bo'lgan yer resurslari alohida o'rin tutadi. Yer na faqat barcha ishlab chiqarish kuchlarini, aholi punktlarini, sanoat

korxonalarini, muhandislik-aloqa vositalarini joylashtirishning hududiy asosigina emas, balki qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hamdir.

Qashqadaryo viloyati xo'jalikda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan katta yer fondiga ega. 1991 yil ma'lumotlariga ko'ra viloyat yer fondining 2.5 mln.gadan ortiqroq maydoni qishloq xo'jaligi tarmoqlarida foydalanish uchun ajratilgan bo'lib, shundan 1.4 mln ga maydon yaylovlar va 0.7 mln.ga maydon qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda sug'oriladigan yerlardan (480 ming ga) oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ayniqsa katta ahamiyatga ega, chunki sug'oriladigan yerlarda lalmikor yerlardagiga nisbatan 3-4, ayrim hollarda esa 5-10 baravar ko'proq hosil olinadi.

Qashqadaryo viloyatida sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlar maydonining kengayishi suv omborlarining qurilishi va qo'shni Amudaryo va Zarafshon daryosi havzalaridan kanallar orqali suv olinishi bilan bog'liq. Ayniqsa Amudaryodan har bir sekundda 240 m.kub suvni 132 m. balandlikka chiqaradigan 7 nasos stantsiyasi suv beradigan Qarshi bosh kanalining qurilishi viloyatda katta maydonlarni o'zlashtirish va sug'orish imkonini berdi.

Sug'orma dehqonchilik sharoitlarida tabiatdan oqilona foydalanishning xususiyatlaridan biri yer-suv resurslaridan uzviy bog'liq ravishda to'g'ri foydalana bilishdir, chunki suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish sug'oriladigan yerlarda ekologik-iqtisodiy nuqtai nazardan nomaqbul jarayonlarning kuchayishiga va natijada yerlarning mahsuldorligini kamayishiga olib keladi. Sug'oriladigan yerlarning tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish tabiiy-hududiy komplekslarning tubdan o'zgarishiga, tabiat komplekslari orasidagi muvozanatni buzilishiga olib keladi.

Qashqadaryo viloyatining sug'orma dehqonchilik qilinayotgan yerlarida ham suvdan sug'orishda tejamsizlik bilan foydalanilayotganligi, gidromelioratsiya va agrotexnika qoidalariga rioya qilinmayotganligi tufayli ancha maydonlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etadigan nomaqbul jarayonlar (qayta sho'rlanish, zax bosish, irrigatsiya eroziyasi, tuproqlardagi chirindi va organizmlar miqdorining kamayishi, suffoziya-karst va b.sh.) namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa sizot suvlari sathining ko'tarilishi tufayli qayta sho'rlangan yerlarning maydoni yildan-yilga kengayib bormoqda. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra 1966 yilda viloyatda sho'rlangan yerlarning maydon atigi 28,3 ming ga bo'lgan. 1990

yilda esa bunday yerlarning maydoni 172,2 ming ga ni tashkil etgan bo'lib, shundane 18,3 ming ga kuchli sho'rlangan yerlardir. Keyingi uch yil mobaynida 10 ming ga dan ortiq ekinzorlar sho'rlanish tufayli hisobdan chiqarilgan.

Sizot suvlari sathining ko'tarilishi va qayta sho'rlanishning oldini olish borasida o'tkaziladigan gidromelioratsiyaga doir talablar orasida sug'orishga sarflanadigan suvdan mezonida foydalana bilishdan tashqari sho'r suvlarni olib ketadigan zovurlarning uzunligi va suv o'tkazish imkoniyatlarini sug'oriladigan yerlarning maydoniga mos keltirish lozim. Qarshi cho'li sharoitlarida har bir gektar sug'oriladigan maydonga 40-50 pog.m. zovur to'g'ri kelishi kerak. Lekin bu ko'rsatkich mezondagiga nisbatan deyarli ikki marta kamroqdir. Shu sababli mavjud zovurlar orqali barcha sho'r suvlarni sug'oriladigan yerlardan tashqari oqizib yuborishning imkoniyati yo'q. Natijada sho'r suvlar bilan chiqazilishi lozim bo'lgan tuzlarning deyarli yarmi dalalarda qolib ketadi va sho'rlanish jarayonini kuchaytirmoqda.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishda eroziya jarayonlariga qarshi o'tkaziladigan tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatining tog'li va tog' oldi qismlaridagi ancha katta maydonlarda suv eroziyasi cho'l zonasida shamol eroziyasi tarqalgan. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan rayonlarda esa sug'orish eroziyasi tuproq hosildorligining kamayishiga olib kelmoqda. Chunki irrigatsiya eroziyasi bo'z tuproqlarda har yili har bir gektar sug'oriladigan maydonda 100-150 tonna miqdorida tuproqning yuvilishiga olib keladi, ya'ni har bir gektar maydondan 0.5-0.8 tonna chirindi, 110-120 kg fosfor, 110-115 kgazot yuviladi. Hosildorlik eroziya sust bo'ladigan yer 15-20 % ga kuchli bo'ladigan yerlarda esa 50-60 % kamayish aniqlangan. Eroziya jarayonlariga chek qo'yilmasa oxir oqibatda tuproqlar dehqonchilikda foydalanish uchun batamom yaroqsiz bo'lib qoladi.

Eroziya jarayonlarini oldini olishga qaratilgan agrotexnik va agromelioratsiya tadbirlari xilma-xildir. Ular orasida ekinzorlarni ixotazorlar bilan o'rash katta iqtisodiy samaraga ega. 50-60 yillarda shunday ixotazorlar viloyatda ancha katta maydonlarda barpo etilgan edi, lekin keyinchalik qarovsizlikdan daraxtzorlarning katta qismi qurib ketdi. Bu esa yerlarning unumdorligining pasayishiga, hosildorlikning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Qashqadaryo viloyatida yer resurslarini eroziya jarayonlaridan saqlash uchun tekisliklarda va tog' yonbag'irlarida kamida 86.0 ming

maydonda ixotazorlar va daraxtzorlar barpo etilishi lozim. Ammo hozirgi kunda bunday maydonlar atigi 10.0 ming ga ni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida, ayniqsa sug'orma dehqonchilikda foydalanilayotgan yerlarning unumdorligi yildan-yilga kamayib bormoqda. Keyingi 30-40 yil davomida katta maydonlarda paxta yakkahokimligi, serharajat mineral o'g'itlar va boshqa ximiyaviy vositalarning katta miqyosda qo'llanilishi, og'ir vaznli texnika vositalaridan foydalanish tufayli tuproqlarning strukturasi va unumdorligida mutanosiblikni saqlaydigan mikroorganizmlarga ham katta zarar yetkazilmoqda. Mikroorganizmlarning faoliyati natijasida o'simlik va hayvon qoldiqlarining chirishi tufayli hosil bo'ladigan chirindi (gumus)ning miqdori tuproqlarning haydaladigan qatlamida 2-3 marta kamaydi. Shu narsani ta'kidlash lozimki, tuproqda chirindining miqdori kam bo'lganda, organik o'g'itlar yetarlicha berilmaganda mineral o'g'itlarni katta miqdorda ishlatish iqtisodiy samara bermaydi, aksincha hosildorlikning kamayishiga, mahsulot sifatining yomonlashuviga, tuproq strukturasi buzilishiga olib keladi.

1986-1990 yillarda viloyatning ekin ekiladigan yerlarida 388,3 ming tonna azot, 232,9 ming tonna fosfor va 86,5 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlatilgan. O'tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, hozirgi agrotexnika sharoitlarida mineral o'g'itlarning atigi 35-40%ini o'simliklar o'zlashtiradi, qolgan 60-65%i tuproqlarda to'planadi yer osti suvlari orqali tarqalib atrof muhitni ifloslaydi.

Qashqadaryo viloyati sug'orma dehqonchilikda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer resurslarining katta zahiralariga ega. Faqat Qarshi cho'lidagina 900 ga maydon o'zlashtirish va sug'orish uchun yaroqlidir. Ammo butun O'rta Osiyodagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham o'zlashtirish uchun yaroqli bo'lgan yer resurslari va mavjud suv resurslari orasida juda katta nomunosiblik mavjud. Shu sababli bu yerda yer resurslaridan samarali foydalanish birinchi navbatda mavjud suv resurslaridan o'ta tejamkorlik bilan foydalanishga bog'liq.

Biologik resurslari. Qashqadaryo viloyati nabotot va hayvonot olamidan xo'jalikda foydalanish uchun ancha katta imkoniyatlarga ega.

S.X.Chevrenidi va S.M.Mustafaevning ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyati xududida o'simliklarning 1184 turi yoki O'zbekiston florasi vakillarining 40%iga yaqini tarqalgan. Viloyat hududida tarqalgan o'simlik turlarining aksariyat katta qismi oziq-ovqat manbai, texnika xom ashyosi, tibbiyotda dori tayyorlash, qurilish va boshqa sohalarda keng

foydalanishi mumkin. Ammo o'simlik resurslaridan xo'jalikda foydalanish muammolari kam o'rganilgan. Yovvoyi holda o'sadigan foydali o'simliklarning tarqalishi va foydalanish mumkin bo'lgan zahiralari to'g'risida aniq va batafsil ma'lumotlar deyarli yo'q. Shu sababli foydali o'simliklarning areallarini o'rganish, ularning zahiralari iqtisodiy jihatdan baholash, oziq-ovqat va dorivor o'simliklarni ularning tabiiy tiklanish sharoitlarini e'tiborga olgan holda tayyorlash va topshirishni rejalashtirish, madaniylashtirish, noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik turlarini muhofaza qilish va ko'paytirishga doir tadbirlar belgilanmog'i lozim.

Keyingi yillarda sanoat uchun xom ashyo hisoblanadigan o'simliklardan (shuvoq, cherkaz, isiriq, itsiyg'oq, quyon suyagi, yetmak, anzur piyozi va b.sh.) betartib foydalanish natijasida ularning turlari kamayib noyob o'simliklarga aylanib bormoqda. Foydali o'simlik turlarining areallari qisqarishiga shuningdek yerlarning o'zlashtirilishi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatining katta tabiiy boyliklari jumlasiga uning yaylovlari ham kiradi. Viloyatda 1.4 mln ga dan ortiqroq yer yaylovlar uchun foydalaniladi. Yaylov maydonlarining kattaligiga ko'ra Qashqadaryo viloyati Navoiy viloyati (9.4 mln.ga), Qoraqalpog'iston Respublikasi (4.0 mln.ga) va Buxoro viloyatidan (2.8 mln.ga) keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Qashqadaryo yaylovlarida 2.0 mln.ga. yaqin (1990 yil) yirik va mayda shoxli mollar boqiladi.

Qashqadaryo viloyatida yangi yerlarning o'zlashtirilishiga bog'liq holda yaylovlarning maydoni ham yildan-yilga kamayib bormoqda. Buning natijasida yaylovlarning yem-xashak imkoniyatlari ham pasaymoqda. Shu sababli yaylovlarning tabiiy resurslaridan unumliroq foydalanish uchun yaylovlardan foydalanishni tubdan yaxshilash, suv bilan ta'minlash va muhofaza qilish sohasidagi xo'jalik tadbirlarini maqsadli va rejali ravishda tashkil etish lozim. Yaylovlardan xo'jalikda samaraliroq foydalanishda fitomelioratsiya tadbirlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar yaylovlarda o'simlik qoplamining tiklanishi va yaxshilanishi bilan bir qatorda eroziya jarayonlarining tarqalishi bartaraf qilish imkonini ham beradi.

Qashqadaryo viloyati sharoitlarida o'rmon o'simliklari tabiiy geografik omil sifatida oqimning shakllanishida va tuproqlarni eroziya jarayonlaridan saqlashda muhim ahamiyatga ega. Viloyatda 64.5 ming ga o'rmonli maydon bo'lib, ulardan 64,3 ming ga ni tabiiy tog' o'rmonlari

(archazorlar,yong'oqzorlar) tashkil etadi. Archazorlar Hisor va Zarafshon tizmalarining yonbag'irlarida 1500-3000 m balandliklarda, yong'oqzorlar esa 800-2500 m balandliklarda tarqalgan. Tog' o'rmonlarida asosan pista, yong'oq, olma, olcha, bodom, do'lana va boshqa mevali daraxtlar ham o'sadi.

Qashqadaryo viloyatining tekislik (cho'l zonasi) qismida saksovulzorlar uchraydi. O'tmishda saksovulzorlar ancha katta maydonlarda tarqalgan bo'lgan. Hozirgi paytda saksovulzorlarning maydonlarini kengaytirish uchun ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Biologik resurslarning ajralmas qismi bo'lgan hayvonlar inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat resurslaridan biri hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati hududida qushlarning 228, sut emizuvchilarning 70 ga yaqin, sudralib yuruvchi hayvonlarning 40 va baliqlarning 24 turi hisobga olingan. Mo'yna va go'sht tayyorlash uchun hayvonlarning 29ga yaqin turi, qushlarning 25 dan ortiqroq turi va baliqlarning 8 turi foydalaniladi (ovlanadi). Viloyatda ov qilinadigan hayvonlardan oqilona foydalanish va ularning sonini ko'paytirish hamda qayta tiklash uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish maqsadida ovchilik xo'jaligi tashkil etilgan.

Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishga doir juda katta ishlar qilindi va qilinmoqda. Ma'lumki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga doir tadbirlar juda katta mablag' sarflashni taqozo etadi. Lekin bunday sarf-xarajatlar juda zarur, chunki ular tabiatdan to'g'ri foydalanishni tashkil etishda, tabiiy resurslardan majmualiy foydalanishda, atrof muhitni muhofaza qilishda, aholi hayotining tabiiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashda namoyon bo'ladigan ijobiy natijalarni beradi. Ikkinchidan, tabiatdagi buzilgan muvozanatni tiklashga sarflanadigan mablag'lar muvozanatni buzilishini oldini olishga sarflanadigan mablag'larga nisbatan ancha ko'proq bo'ladi.

Q o' r i q x o n a l a r d a tabiiy komplekslarni muhofaza qilish. O'simliklar va hayvonlarning tabiiy tadrijiy rivojlanishini,tabiiy komplekslarning tuzilmasi, dinamikasi va rivojlanishini o'rganishda, fauna va floraning noyob va yo'qolib borayotgan vakillarini saqlab qolish va ko'paytirishda, tabiatning noyob joylari va yodgorliklarini asrab qolishda qo'riqxonalar juda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

H i s o r qo'riqxonasi Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'irlarida 1750 m dan 4349 m gacha bo'lgan balandliklarda joylashgan. Maydoni 76889 ga

Qo'riqxonaga G'arbiy Hisor tog'larining yuqori mintaqalarining va Qashqadaryo suv yig'ish havzasi yuqori qismining tabiiy komplekslarini o'z ichiga oladi.

Hisor qo'riqxonasining tabiati O'rta osiyo tog'lari va tog'liklari tabiiy geografik o'lkasiga mansub bo'lgan G'arbiy Pomir-Oloy uchun xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Tog'larning yonbag'irlarida landshaftlarning balandlik mintaqalanishi yaqqol namoyon bo'ladi. Qor chizig'i 4100 m balandlikda o'tadi. Qo'riqxonaga hududida O'zbekistondagi eng katta Severtsev muzligi (uzunligi 3.5 km ga yaqin) joylashgan. Tuproq qoplami uchun jigarrang, tog' o'tloq-dasht qora-tuproqlar, baland tog' o'tloq va o'tloq-dasht tuproqlari xos. Relikt muzlik landshaftlari uchraydi.

Hisor qo'riqxonasining florasi va faunasi yetarlicha o'rganilmagan. Qo'riqxonaga hududida 10750 ga maydon o'rmon bilan qoplangan. O'rmonlar uchun daraxt va butalarning 60 ga yaqin turi xos. O'rmonlarda Zarafshon va yarim sharsimon archadan tashqari Turkiston va Semyonov zarangi, Sug'diyona shumtoli, Pontiya do'lanasi, sharq olchasi, mayda bargli jiyda shuningdek yovvoyilashgan daraxtlar va butalar (tol, terak, yong'oq, qayrag'och, jiyda va b.sh.) o'sadi. Umuman qo'riqxonaga hududida o'simliklarning kserofit tiplari ko'proq tarqalgan bo'lib, mezofitlar daryo vodiylari uchun xosdir. G'arbiy Pomir-Oloy uchun xos bo'lgan kserofit butalar va butasimon daraxtlardan Kavkaz tug'donasi. Regel noki, Buxoro bodomi, asl pista, Paulsen torilisi, Korolkov uchqati va boshqalar uchraydi. Archazorlarda shuningdek tobulg'i, qizilcha, na'matak, zirk, choy o't (dalachoy) o'sadi.

Qo'riqxonaga hududida faqat naychali o'simliklarning 800 dan ortiqroq turi hisobga olingan. Bu yerda murakkabguldoshlar, dukkakdoshlar, krestguldoshlar, soyabonguldoshlar, labguldoshlar, boshog'doshlar oilasiga mansub bo'lgan turlar ko'p, lekin paprotniklar, qirqbo'g'imlar, qiyochlar kam. Dukkakdoshlardan ayniqsa astragaluslar keng tarqalgan. Bu yerda astragaluslarning 70 turi hisobga olingan bo'lib, ulardan uch turi faqat Hisor qo'riqxonasida uchraydi.

Hisor qo'riqxonasida karrakning 30 turi, piyozning 20 dan ortiqroq turi hisobga olingan. Umuman hozirgi vaqtda hisobga olingan gulli o'simliklarning 50 turidan 40 tasi G'arbiy Hisor uchun endem turlardir.

Faunasining xususiyatlariga ko'ra Afg'on-Turkiston zoogeografik provintsiyasiga kiradigan Hisor qo'riqxonasining hayvonot dunyosi xilma-xildir. Bu yerda palearktika, O'rta dengizbo'yi, Eron-Turon, O'rta Osiyo, Hind-Malayya va Sharqiy Osiyo faunasining vakillari tarqalgan.

Qo'riqxonada sut emizuvchilarning 30 turi, qushlarning 100 dan ortiqroq turi, reptiliyalarning 9 turi va baliqlarning 2 turi hisobga olingan. Sut emizuvchilardan irbis (qor qoplani), oq-tirnoqli ayiq, latcha, sug'ur, silovsin, jayra, to'ng'iz va boshqa hayvonlar muhofazaga olingan bo'lib, ulardan ayrimlari tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasi va O'zbekistonning "Qizil kitob" iga kiritilgan.

Hisor qo'riqxonasi hududi noyob tabiiy ob'ektlarga boy. Qo'riqxonaning janubiy qismida dengiz sathidan 2937 m balandlikda O'rta Osiyoning eng yirik g'orlaridan biri Amir Temur Kuragoniy g'ori joylashgan. G'orning uzunligi 815 m. bo'lib, unda stalaktitlar, stalagmitlar va boshqa ohakli quymalar ko'p. G'or ichida uzunligi 30 m, kengligi 14 m. va chuqurligi 2.5 m bo'lgan ko'l bor.

K i t o b g e o l o g i y a qo'riqxonasi (maydoni 5378 ga) 1979 yilda tashkil etilgan bo'lib, unda bundan 300-400 mln. yil ilgari Yerdan mavjud bo'lgan hayot muhirlangan yotqiziqlar ochiq holda uchraydigan tog' landshaftlari muhofaza qilinadi. Qo'riqxonaning noyob geologik yodgorliklari boy o'simlik va hayvonot olami bilan mujassamlashgan. Bu yerda O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kirgan ko'plab nodir va yo'qolib borayotgan turlar mavjud bo'lganligi sababli barcha tabiiy komplekslar muhofaza qilinadi.

Kitob geologiya qo'riqxonasi Jinnidaryo o'rta oqimining chap sohilida, Zarafshon tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari bo'lgan Sumsar tog'i va Qoratog'ning shimoliy yonbag'irlarida joylashgan. Kitob qo'riqxonasi Turon provintsiyasining Kitob-Shahrisabz tabiiy geografik rayoniga kiradi. Qo'riqxonaning hududi Janubiy Tyanshan gertsin burmali inshootlari tizimiga kiradigan Zarafshon-Oloy zonasining bir qismidir.

Hozirgi paytda Kitob geologiya qo'riqxonasining 52% maydonini (2793 ga) o'rmonlar, 25% maydonini qoyalar, tik va toshloq yonbag'irlar, surilmalar, qolgan qismini esa yaqin o'tmishda yaylovlar va ekinzorlar bo'lgan joylar band etadi.

Bundan million yillar ilgari qo'riqxona o'rnida ulkan dengiz bo'lgan. Bu dengizda turli tuman umurtqasiz jonivorlar, dumaloq va uzunchoq yelpig'ichsimon va uchburchak shakldagi baliqlar yashagan. Keyingi geologik davlarda tog'larning ko'tarilishi natijasida dengiz chekingan, dengiz jonivorlari o'z aksini dastlab qumlarda, keyinroq esa toshlarda "muhrlagan". Ochilib qolgan tog' jinslari yotqiziqdagi qazilma organik qoldiqlar devon davrining dengizlarida qanday jonivorlar tarqalganligidan guvohlik beradi. Hozirga qadar 16 turkum toshqotgan hayvonlarning

qoldiqlari, 57 oilaga mansub bo'lgan umurtkali hayvonlar, 121 turdagi o'simliklar o'rganildi.

Kitob geologiya qo'riqxonasi sarhadlarida hozircha 60 oilaga mansub bo'lgan 328 turdagi naychali o'simliklar hisobga olingan. Qo'riqxonada tarqalgan o'simliklarning katta qismi murakkabguldoshlar, dukkakdoshlar, soyabonguldoshlar, boshogdoshlar, ayiqtovondoshlar, labguldoshlar, krestguldoshlarga mansubdir. Qo'riqxonada uchraydigan o'simliklarning 12 turi O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan. Bu yerda dorivor o'simliklarning 35 turi, manzarali o'simliklarning 20 turi tarqalgan.

Kitob geologiya qo'riqxonasining hayvonot dunyosi ham xilma-xildir. Hozirga qadar umurtqalilarning 120 turi, reptiliyalarning 15 turi hisobga olingan.

Kitob geologiya qo'riqxonasining hududi 6 ta urochishega ajratilgan bo'lib, Oqsuv yoki Obi-Safid, Xo'jaqo'rg'on, Zilzilbon, Qo'shnavo va Novdarozi urochishlarida faqat ilmiy-tadqiqot ishlarigagina ijozat beriladi. Ma'muriy xo'jalik zonasi hisoblanadigan Jauz urochishesidagi qo'riqxonaning ma'muriy binosida palenontologik namunalar va o'simlik hamda hayvonot olamining hozirgi vakillarining ekspozitsiyasi tashkil etilgan.

Qashqadaryo viloyatida uning tabiiy sharoitlarining rang-barangligi tufayli juda ko'p tabiat yodgorliklari mavjud. Lekin ularning katta qismining mufassal ilmiy tavsifnomasi tuzilmagan. Shu sababli bunday noyob tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish uchun hisobga olish lozim. Bundan tashqari tabiat yodgorliklari rekreatsiya uchun ekskursiya-sayohat ob'ektlariga aylantirilmog'i kerak. G'orlar, karst voronkalari, daralar, sharsharalar, o'tmish geologik davrlarning o'simlik va hayvonlarining toshqotgan qoldiqlari ana shunday ob'ektlar bo'lib xizmat qila oladi.

3-M A 'R U Z A

VILOYATNING AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.

R e j a:

1. Aholi soni, ko'payishi, zichligi.
2. Aholining joylanishi va migratsiyasi
3. Mehnat resurslari.
4. Aholining tarkibi.
5. Aholi manzilgohlari.

Qashqadaryo viloyati o'zining aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Andijon viloyatlaridan oldingi 5-o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda, aholi sonining o'sishi jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demograфик vaziyatida yetakchilik qiladi. Jumladan, agar O'zbekiston aholisi 1989-2000 yillarda 123,8 % ga o'sgan bo'lsa, Surxondaryoda bu ko'rsatkich 139,2 va Qashqadaryoda 136,0 % ga teng bo'ldi. Birigina 2000 yilda aholi ko'payish sur'ati 2,1 % ni tashkil qildi.

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik 1 km² ga 77,4 kishi bo'lib, bu raqam Respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi xususan yuqori mintaqada ancha zich o'rnashgan. Masalan, zichlik Yakkabog'da 164, Shahrisabz tumanida 158 va Kitobda 102 kishiga teng. Vaholanki bu ko'rsatkich Mirishkor tumanida 27, Dehqonobodda 25 kishini tashkil etadi, xolos.

Aholi soni bo'yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldida turadi (257 ming, 2001 yil:) Shahrisabz tumanida ham, Shahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi 200 mingdan ziyod. Ayni vaqtda Mirishkor tumanining demografik sig'imi ancha past;

Maydoniga ko'ra esa eng katta Dehqonobod tumani uning hududi 4,0 ming km² yoki viloyat maydonining 1/7 qismi. Shuningdek, Muborak va Chiroqchi tumanlari ham nisbatan katta, eng kichigi, Kasbi tumani (0.65 ming km²).

Umuman olganda, qori mintaq (SHahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan Respublikamizning aholisi zich vo'ha va vodiylariga o'xshab ketadi. Ammo ta'kidlash joizki, zichlik, qo'yi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya'ni 190-200 kishiga teng.

Viloyatda tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda (Surxondaryodan tashqari) sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsienti har 1000 kishi aholiga 24,5 kishini tashkil etadi (2001 y.). Eng yuqori daraja Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 30 kishiga barobar. (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda). Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsienti Shahrisabz va Mirishkor tumanlarida pastroq, Qarshi shahrida esa u 16,7 promille.

Qayd qilish lozimki, Qashqadaryoda ham tug'ilish kamayib bormoqda, biroq bu jarayon mamlakatning boshqa viloyatlariga nisbatan asta-sekinlik bilan sodir bo'lmoqda. Surxondaryoda ham xuddi shunga o'xshash demografik vaziyat. Demak, ularning bir iqtisodiy rayonga birlashtirilishi geodemografik omil bo'yicha ham asoslangan.

2004 yil ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyati aholining tabiiy o'sishiga ko'ra (18.7 promillelar viloyatlar orasida 1-o'rinni egallab kelgan Surxondaryo viloyatini 18.1 promillelar ham ortda qoldirib va hozirgi paytda tug'ilish darajasiga ko'ra birinchi o'rinni egallab turibdi)

Qashqadaryo viloyatida ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi tug'ilish darajasi qishloqlarda shaharlardagiga nisbatan yuqori. 2003 yilda Qashqadaryo viloyatida aholining tabiiy o'sishi qishloqlarda 20.9, shaharlarda esa 14.9 promilleni tashkil etadi. Aholi takror barpo bo'lishiga o'lim ko'rsatkichlari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda o'lim ko'rsatkichi mintaqalar bo'yicha turlicha. Buning o'ziga xos sabablari bor. Jumladan, mamlakatda 1989 yilda o'lim koeffitsienti 6.3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 5.0% ga tushdi, ya'ni o'lim holati bu davrda 1.3 promillega qisqardi.

O'zbekiston viloyatlari darajasida qaralganda deyarli viloyatlarda o'lim koeffitsienti kamayish tendentsiyasiga ega.

Qashqadaryo viloyatida ham o'lim koeffitsienti 1997 yilda 4.63% dan 2004 yilda 4.0% ga kamaygan. O'lim darajasiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida o'lim holati past bo'lgan hududlarga (5.0 %dan kam) kiradi.

Statistik ma'lumotlarning tahlili Qashqadaryo viloyatida keyingi 80 yil mobaynida aholining tabiiy o'sishi ancha jadal kechganligini ko'rsatadi. Aholi sonining bunday tez sur'atlar bilan o'sishiga tabiiy ko'payish bilan bir qatorda chetdan aholining ko'chib kelishi (mexanik ko'payish) ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli 1959-1970 yillarda Qashqadaryo viloyatida aholining o'rtacha yillik ko'payishi O'zbekiston aholisining o'rtacha yillik ko'payishi ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi.

1970-1990 yillarda Qashqadaryo viloyati aholisi 2.1 marta ko'paydi. Viloyat aholisining mamlakatdagiga nisbatan tez o'sishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog'liq holda 70-yillarda boshlandi. 20 yil davomida viloyatda qariyb 240 mingga yangi yerlar o'zlashtirildi, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat va yonilg'i-energetika sanoati korxonalari ishga tushirildi. Shuningdek, sug'orish inshootlari, transport yo'llari, madaniy maishiy binolar hamda turar joylar bunyod etildi. Viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi O'zbekistondagi va qo'shni respublikalarning ko'pgina tumanlaridan aholining ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Bu davr uchun, shuningdek, yangi shaharlarning vujudga kelishi va shahar aholisi salmog'ining ortishi ham xarakterlidir. Ma'lumotlarga ko'ra, 1970 yilda viloyat aholisining 16.5% ini shahar aholisi tashkil etgan. 1990 yilda esa bu ko'rsatkich 26% ga yetgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi.

Qashqadaryo viloyatida 1991 – 2005 yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda. Viloyat aholi soni 1999 yilda 1989 yilga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'paydi. 1999 yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming kishini, 2001 yilda 2257,0 ming kishini, 2002 yilda 2298,0 ming kishi, 2003 yilda 2339,7 ming kishi, 2004 yilda 2381,8 ming kishi va 2006 yilning boshida 2420,4 ming kishiga yetdi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik 1999 yillarda 58,0 ming kishi, 1996 – 2006 yillarda 46,7 ming kishini tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. 1995-2005 yillarda viloyatda aholi soni 1917,9 ming kishidan 2640,7 ming kishiga yetdi yoki tabiiy ko'payish hisobiga bu yillarda qariyb 722,8 ming kishiga o'sdi.

Tabiiy o'sish 1991 yilda har 1000 kishiga 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda 17,7 kishini, 2001 yilda 19,1 kishi, 2002 yilda 18,7 kishini, 2003 yilda 18,8 kishi, 2004 yilga kelib 18,4 kishini tashkil etdi.

Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko'payish koeffitsienti yuqori bo'lgan viloyatlar guruhiga (Jizzax, Surxandaryo, Xorazm, Samarqand, Qor-n Res-si) mansub bo'lib, ularda aholining tabiiy ko'payish koef-ti 17,2 promilledan ortiq.

Ta'kidlash joizki, aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi; qishloq joylarda tug'ilish shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning bir qancha ob'ektiv va sub'ektiv sabablari

mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotda bandligini past darajada bo'lishi, qo'l mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an'analar davrlar davomida tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug'ilish darajasining biroz past bo'lishiga olib keladi.

Aholining makondagi xududiy harakati ham ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq. Aholining xududlarda joylashuvi va ko'chib yurishiga migratsiya deyiladi. Bu jarayon migratsion oqimlarni yuzaga keltirib, ayrim xududlarda aholining ko'payishiga va aksincha ayrim xududlarda kamayishiga olib keladi.

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri unga kuchli bo'lmasdan, u salbiy. Masalan, 1997 yilda shahar joylarda migratsiya qoldig'i minus 1440, 1998 yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich yuqoridagilarga mos holda, minus 2910 va 2205 kishidan iborat bo'lgan.

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 25,4% bu Respublika ko'rsatkichidan ancha past (37,4%). Viloyatda hammasi bo'lib 12 ta shahar va 4 shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 katta shaharlari qatoriga kiradi. Shahrisabzda 87 ming, Kosonda 54 ming aholi yashaydi, Qamashi va Kitob shaharlarida 30-34 mingdan aholi bor. Qolgan shahar va shaharchalarda aholi soni bundan kam.

1 yanvar 2006 yil ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1 million kishiga yaqin. Shundan 725 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi, ya'ni ish o'rinlari bilan band, umumiy bandlik darajasi 72,5%, 2000 yil yakunlari bo'yicha bir yilda qishloq xo'jaligidan 19,1 ming kishi bo'shagan va shu davrda 25,6 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan. Biroq shunga qaramasdan, viloyatda xususan uning aholisi zich tumanlarida mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yaxshilash muhim muammodir.

4-MA'RUZA. Viloyatning aholisi va mehnat resurslari.

Reja:

1. Aholi soni, ko'payishi, zichligi
2. Aholining joylashishi va migratsiyasi
3. Mehnat resurslari
4. Aholining tarkibi
5. Aholi manzilgohlari

1992 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra Qashqadaryo viloyatining aholisi 1756,2 ming kishi bo'lib, O'zbekiston viloyatlari orasida aholi soni jihatidan 5 o'rinda turadi. Hozirgi vaqtda viloyatda aholi o'sishi ko'rsatkichi bir yilda 58.5 ming kishiga tengdir.

Kishilarning moddiy, maishiy turmushning hamda sog'liqni saqlash ishlarining yaxshilanishi tufayli o'lim keskin kamayib, aholi sonining tabiiy o'sish sur'ati ancha tezlashdi. 1926-1939 yillar mobaynida viloyatda aholining umumiy soni 118,1 ming kishiga ko'paydi yoki yillik o'sish 2,6% ga teng bo'ldi. Shu davrda O'zbekistonda aholining o'rtacha yillik o'sishi 2,8% ni tashkil etadi. Qashqadaryoda aholi yillik o'sish darajasining respublikaga nisbatan pastligi viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining kam rivojlanganligi hamda chetdan keladigan aholi harakatining kamligiga ham bog'liqdir. Natijada O'zbekiston umumiy aholisiga nisbatan Qashqadaryo viloyatining tutgan o'rnini 7,5 % dan (1926 y.) 7,3% ga (1939 y.) tushib qoldi.

1939-1959 yillarda viloyat aholisi 48.4 ming kishiga ko'paydi. 1959 yilgi aholi ro'yxatiga binoan Qashqadaryo aholisi 508 ming kishini tashkil etadi. 1941-1945 yillar mobaynida nemis-fashist Germaniyasi boshlagan urush tufayli Qashqadaryo viloyati aholisining ham tabiiy ko'payish sur'atiga ancha zarar yetkazildi. Faqat 50-yillardan boshlab tabiiy o'sish sur'ati bir muncha tezlashdi. Lekin 1939-1959 yillarda viloyat aholi sonining yillik o'sish darajasi respublikaga nisbatan past bo'ldi. Chunki shu davr mobaynida aholining bir qismi O'zbekistonning yangi yerlar o'zlashtirilayotgan viloyatlariga hamda qo'shni Tojikiston respublikasiga ko'chirildi. Aholi bir qismining qo'shni viloyatlarga ko'chirilishi shuningdek viloyatda sanoat ishlab chiqarishning kam taraqqiy etganligi va tog' oldi hududlarida xo'jalik rivojlanishining pastligi bilan ham bog'liq bo'ldi. Shu tufayli 1959 yilda aholi soni bo'yicha Qashqadaryoning respublikadagi ulushi 6,5%ni tashkil etadi.

1959-1970 yillarda viloyatda aholi sonining ko'payishi ancha yuqori bo'ldi. Qashqadaryo aholisining shakllanishiga tug'ilishning nisbatan yuqoriligi hamda boshqa viloyatlardan keladgan aholi harakatining kuchayganligi ham sabab bo'ldi. Natijada viloyat aholisi 508 ming kishidan (1959 y.) 801 ming kishiga (1970 y.) yetdi. Aholining o'rtacha yillik o'sishi 4,9% ni tashkil etdi. 1959-1970 yillarda aholi ruyxatiga binoan viloyat aholisining soni 57,6%ga ko'paydi. Aholi sonining bunday tez suratlar bilan o'sishida tabiiy ko'payish bilan bir qatorda mexanik ko'payish ham mumkin ahamiyatga ega bo'ldi.

Aholining tabiiy ko'payishi har ming kishi hisobiga tug'ilganlar sonining o'lganlar soniga nisbatan bo'lgan tafovuti bilan belgilanadi. Ma'lumki, aholi sonining o'sish darajasi uning tabiiy ko'payishiga, ya'ni tug'ilish va o'lish ko'rsatkichiga bog'liqdir. Biroq respublikaning hamma viloyatlari kabi Qashqadaryo viloyatida ham bo'ydoqlar sonining ozligi, yosh jihatdan barvaqtroq nikohlanish va mahalliy millatlar o'rtasida aholi harakatining sustligi aholining tabiiy ko'payishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar hisoblanadi. Shu sababli ham 1959-1970 yillarda Qashqadaryo viloyatida aholining o'rtacha yillik ko'payishi O'zbekiston aholisining o'rtacha yillik ko'payishi ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi.

Aholining mexanik ko'payishi Qashqadaryo viloyatida ayniqsa 60-yillardan keyingi davrda ro'y berdi. Chunki yangi yerlarning o'zlashtirilishi hamda tabiiy manbalarning ishga solinishi munosabati bilan O'zbekistonning viloyatlaridan aholining ko'chib kelishi ham umumiy aholi sonining ko'payishiga olib keldi.

1970-1990 yillarda Qashqadaryo viloyati aholisi 2,1 marta ko'paydi. Qashqadaryoda aholining respublikaga nisbatan tez o'sishi 70-yillardan boshlanib viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining tez o'sganligi bilan bog'liqdir. O'tgan yillar davomida viloyatda Qarshi cho'lini bag'ridan 240 ming ga dan ko'proq yangi yerar o'zlashtirildi, ko'plab qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat hamda yoqilg'i-energetika sanoati korxonalari ishga tushirildi. Shuningdek suv inshootlari, aloqa qilish yo'llari, madaniy va maishiy binolar hamda turar joylar bunyod etildi. Viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etish. O'zbekiston va boshqa jumhuriyatlarning ko'pgina tumanlaridan ko'plab aholining ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Natijada tashqaridan keladigan aholi hamda tabiiy o'sish hisobiga viloyatda aholi soni ham muttasil o'sib bordi.

6-jadval.

Yillar	Hamma aholisi ming kishi	Shundan		Barcha aholisiga nisbatan (protsent hisobida)	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1926	343,5	39,1	304,4	11,4	88,6
1939	459,6	40,8	418,8	9	91
1959	508	67	441	13,2	86,8
1970	801	132	669	16,5	83,5
1979	1121	283	838	25,2	74,8
1992	1756,2	459,1	1297,1	26,1	73,9

To'g'ilishning ancha yuqori darajada saqlanib turishi bilan bir qatorda aholining moddiy va madaniy turmush darajasining o'sishi, tibbiy xizmatning yaxshilanishi tufayli aholi o'rtasidagi o'lim darajasi kamaydi. Viloyatda har 1000 kishi hisobiga o'lim 6,1 kishidan (1980y.) 5 kishiga (1991 y.) tushdi. Natijada tabiiy o'sish 34,5 kishini tashkil etdi. Tabiiy o'sish bo'yicha Qashqadaryo hozirgi paytda respublikada Surxondaryo viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Mehnat resurslarining shakllanishi va ularning hozirgi hamda kelajak sonini hisoblash, aholining takror barpo qilinishi kabi omillar aholining yoshi va jinsiy tarkibiga ham bog'liqdir.

Urushdan keyin 1959 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakuniga ko'ra birinchi marta erkaklar viloyat aholisi tarkibida 48,1% erkaklar, 51,1% xotin-qizlardan iborat.

Qashqadaryoda tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda barcha aholi orasida yosh bolalar va o'smirlar salmog'i ancha yuqori. Bu esa kelajakda nikohlanish darajasining yuqori bo'lishini, mehnat resurslari sonining muttasil oshib borishini ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyati aholisining yosh-jinsiy tizimining hozirgi holati kelajakda aholining takror barpo qilinishi imkoniyatlari va mehnat resurslari safini to'ldirib borish jihatidan ancha qulay hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati shahar aholisi ulushi bo'yicha respublikada 2-o'rinda turadi. Bu esa viloyatda sanoat ishlab chiqarishi ancha sustligini ko'rsatadi. 1926-1991 yillar davomida viloyatda shahar aholisining ulushi 8,8%dan (1926 y.) 26,3%ga (1991y.) ko'paydi. Shu davr ichida respublikada shahar aholisining ulushi 20,8% dan (1926 y.) 40,3%ga (1991 y.) o'sdi.

Hozirgi paytda Qashqadaryoda 12 shahar mavjud bo'lib, unda 459,1 ming kishi yashaydi.

Qarshi viloyatda eng yirik shahar bo'lib, 60-yillardan keyin ayniqsa, tez rivojlandi. Bu yerda ko'plab sanoat korxonalari, turar joylar barpo etildi. Natijada shahar aholisi 33 ming kishidan (1959y.) 168 ming kishiga (1991 y.) ko'paydi.

Aholi sonining ko'payishi bilan uning geografik tarqalishi hamda zichligi ham o'zgardi. 1926 yilda viloyatda aholining o'rtacha zichligi har bir kv.km ga 12 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1991 yilda 59,8 kishiga yetdi. Lekin aholi zichligi hamma tumanlarda bir xil emas. Azaldan sug'orilib dehqonchilik qilinadigan Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob tumanlarida aholi nisbatan zich joylashgan. Tog'li va cho'l yerlarda aholi siyrak joylashgan. 70-yillardan boshlab viloyatning Nishon, Bahoriston, U.Yusupov, Koson tumanlarida yangi yerlarni o'zlashtirilishi munosabati bilan chetdan ko'chib kelganlar hisobiga aholi zichligi ancha oshdi. Hozirgi paytda viloyatda Muborak, Bahoriston, U.Yusupov, Dehqonobod tumanlarida hamda Qamashi, Chiroqchi, G'uzor tumanlarining yaylov qismlarida aholi siyrak joylashgan. Chunki yaylov hududlarida faqat chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan aholigina yashaydi.

O'zbekistonning boshqa viloyatlar kabi Qashqadaryo ham ko'p millatli viloyat hisoblanadi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Viloyatda shuningdek ruslar, tojiklar, ukrainlar, ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, turklar, koreyslar, beloruslar, qozoqlar, qirg'izlar, lo'lilar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra viloyatda 70 dan ortiq millat, milliy guruhlar va elat vakillari yashaydi. Temir yo'llarning o'tkazilishi, yangi yerlar va tabiiy boyliklarning o'zlashtirilishi munosabati bilan viloyatning boshqa mintaqalar bilan migratsiya aloqalari kuchaydi va viloyat ko'p millatli o'lkaga aylandi.

Viloyat aholisining 82,6%ni o'zbeklar tashkil etadi. O'zbeklar qadim zamonlardan buyon paxta, g'alla yetishtirish, bog'dorchilik va uzumchilik hamda chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, ozarbayjonlar, armanlar, greklar va boshqa millat vakillari asosan shaharlar va shaharchalarda yashaydilar.

Mehnat resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mehnat resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanish ruvchi kuchi, ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim tarkibiy qismidir. Shu sababli

mehnat resurslarining soni, o'sish darajasi, malakasi butun respublika miqyosida va ayniqsa viloyatlar doirasida ishlab chiqarishning ixtisoslashishi va xududiy tashkil etilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda mehnatga layoqatli bo'lgan 16 yoshdan 59 yoshgacha erkaklar, 16 yoshdan 54 yoshgacha xotin-qizlar hamda ijtimoiy foydali mehnatda band bo'lgan nafaqaxo'rlar va 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan imtiyozli sharoitlarda mehnat qilayotgan o'smirlar mehnat resurslariga kiradi.

Viloyatda aholi sonining o'sib borishi bilan uning mehnatga layoqatli qismi ham ko'payib bormoqda. 1970-1990 yillarda mehnatga layoqatli bo'lgan yoshdagi aholining soni 2,4 marta o'sdi. 1991 yilda bu yoshdagi kishilar 825,2 ming kishini tashkil etdi. Viloyatda yillik mehnat resurslarining o'sishi hozirgi paytda 25,4 ming kishini taqozo etmoqda.

Respublikamizda mehnat resurslarining absolyut o'sishiga qaramasdan ularning barcha aholi ichidagi salmog'i katta yoshdagi kishilarning mehnat yoshidan kishilarning mehnat yoshidan chiqib ketganligi tufayli kamayib bormoqda, lekin viloyatda umumiy aholi tarkibida mehnat resurslarining ulushi hamon katta. 1991 yil ma'lumotiga ko'ra uning ulushi 47,1% ni tashkil etadi. Bundan keyin ham mehnat resurslarining absolyut ko'payishi kutiladi. Bu esa viloyatda xalq xo'jaligini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholining salmog'i mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichidir. Viloyatda bu ko'rsatkich nisbatan past bo'lib, 68%ni tashkil etadi. Aholining qolgan 32%i ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar, uy va shaxsiy tomorqa xo'jaligida band bo'lgan kishilardir.

Serfarzand oilalar ko'p bo'lgan. Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining salmog'i industrial viloyat ko'rsatkichlaridan ancha past. Shu sababli aholining mehnatdagi faolligini oshirish maqsadida kelajakda kichik shaharlarda mahalliy sanoat korxonalarni, yirik shaharlardagi katta korxonalarining filiallarini hamda keng xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonlarni qurish lozim.

8-jadval

**Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faol aholining xalq xo'jalik
tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi va o'sish darajasi
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**

Xalq xo'jalik tarmoqlari	1989	1991
Jami xalq xo'jalik tarmoqlarida band bo'lganlar	100	100
Jumladan;		
Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida	74,6	72,2
Shundan;		
Sanoat, qurilish, transport, aloqada	35,1	33,6
Qishloq xo'jaligida	37,5	38,9
Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida	25,4	27,8

Xalq xo'jaligida band bo'lgan aholi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qayta taqsimlanmoqda. 1989-1991 yillarda viloyatda maorif, madaniya, fan, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida band bo'lgan aholi soni o'sdi. Natijada uning salmog'i 25,4% dan (1989 y.) 27,8% ga (1991 y.) ko'paydi.

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari orasida sanoat, qurilish, transport va aloqada ishlovchilar soni ham ortib bormoqda. Bu esa viloyatda ana shu tarmoqlarning keyingi yillarda rivojlanganligini ko'rsatadi. 1989-1991 yillarda yoqilg'i-energetika, qurilish, qishloq xo'jalik mahsulotlariga birinchi ishlov beruvchi sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi tufayli ularda band bo'lganlarning soni 6,4 ming kishiga ko'paydi. Kelajakda ham viloyatda industrial mehnatning salmog'i oshib boradi, chunki viloyatda boy yoqilg'i-energetika va mineral-xom ashyo resurslarining mavjudligi hamda dehqonchilik sanoati majmualarining tashkil etilishi industrial mehnatni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Viloyatda ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishida o'ziga xos xususiyatlardan yana biri qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi salmog'ining yuqorligidir. 1991 yilda qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi iqtisodiy faol aholining 28,2%ini tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida iqtisodiy faol aholi katta qismining qishloq xo'jaligida bandligi hozirga qadar qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining uncha yuqori emasligi va qo'l mehnatidan ko'p foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Kelajakda xalq xo'jaligining boshqa

tarmoqlaridagi kabi qishloq xo'jaligida ham fan-texnika taraqqiyotning roli oshib boradi. Natijada qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining bir qismini xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga jalb qilish imkoniyati tug'iladi. Shu tufayli qishloq yoshlaridan industrial mehnatga malakali ishchilar. Muhandis-texnik xodimlar tayyorlab beradigan hunar-texnika va o'rta maxsus bilim yurtlari hamda oliy bilimgozlarni ko'paytirish lozim bo'ladi.

Xizmat doirasini yanada kengaytirish viloyatning o'sib borayotgan mehnatga layoqatli aholisini ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Aholi-mahsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchidir. Taraqqiyot aholi soniga, mehnatga yaroqli kishilar miqdoriga va ularning hudud bo'ylab qanday joylashganligiga bog'liqdir.

2003 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra Qashqadaryo viloyatining aholisi 2339,7 ming kishi bo'lib, O'zbekiston viloyatlari orasida aholi soni jihatidan 5 o'rinda turadi. Hozirgi vaqtda viloyatda aholi o'sishi ko'rsatkichi bir yilda 58,5 ming kishiga tengdir.

Kishilarning moddiy, maishiy turmushining hamda sog'liqni saqlash tizimining yaxshilanishi tufayli o'lim keskin kamayib, aholi sonining tabiiy o'sish sur'ati ancha tezlashdi. 1926-1939 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyatida aholining umumiy soni 118,1 ming kishiga ko'paydi yoki yillik o'sish 2,6%ga teng bo'ldi. Viloyatda aholi yillik o'sish darajasining respublikadagiga nisbatan past bo'lishi ishlab chiqarish kuchlarining kam rivojlanganligi hamda chetdan keladigan aholi harakatining kamligiga bog'liq bo'lgan. Natijada, O'zbekiston umumiy aholisiga nisbatan Qashqadaryo viloyatining tutgan o'rni 7,5% dan (1926y) 7,3%ga (1938y) tushib qoldi. 1939-1959 yillarda Qashqadaryo viloyatining aholisi 48,4 ming kishiga ko'paydi. 1959 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda 508 ming kishi istikomat qilgan.

1960-1980 yillarda Qarshi cho'lini o'zlashtirish maqsadida ulkan gidrotexnik inshootlarning (Qarshi va Kasbi kanallari, suv omborlari, sug'orish tarmoqlari va b.) barpo etilishi, katta zahiralarga ega bo'lgan neft hamda gaz konlarining ochilishi va foydalanishga topshirilishi, yirik sanoat korxonalarining ishga tushirilishi va boshqa tadbirlar aholi sonining o'sishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlari e'tiborga olingan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi. Qashqadaryo viloyatida 1991-1999 yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga bo'lmoqda. Viloyatda

aholi soni 1999 yilda 1989 yildagiga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'paydi. 1999 yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming, 2001 yilda 2257,0 ming, 2002 yilda 2298,0 ming, 2003 yilda 2339,7 ming va 2004 yilda 2381,8 ming kishiga yetdi. Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1959-1979 yillarda 26,7 ming, 1970-1979 yillarda 35,2 ming, 1979-1989 yillarda 47,8 ming, 1990-1999 yillarda 58,1 ming kishi va 1996-2006 yillarda 46,7 ming kishini tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. Tabiiy o'sish 1991 yilda 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda 17,7 kishini, 2001 yilda 19,1 va 2004 yilga kelib u 18,4 kishiga teng bo'ldi. Tabiiy o'sish bo'yicha Qashqadaryo viloyati Surxondaryo viloyatidan keyingi 2-o'rinda turadi.

Tug'ilish darajasi 1996 yilda 33,1 promille, 2003 yilga kelib 23,5 promillega kamaygan. Shuningdek, bu jarayon qolgan viloyatlarda ham kuzatilmoqda. (Surxondaryo viloyatida 24,4 promille).

Qashqadaryo viloyati hozirgi kunda ham tug'ilish koeffitsientining yuqoriligi bilan mamlakatimizda oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda. Bunga asosiy sabab, aholisining asosiy qismini qishloqlarda yashashi, shaharlashuv jarayonining sust borishi, aholining jinslar orasidagi farqning kamligi, migratsion jarayonning o'ta sustligi va boshqa demografik holatlar sabab bo'lmoqda.

Aholining takror barpo bo'lishiga o'lim ko'rsatkichlari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Viloyatda o'lim koeffitsienti 1996 yilda 5,2 promille, 2003 yilda esa 4,1 promille, bu ko'rsatkich shaharlarda 5,0%, qishloqlarda 5,3%, 2003 yilda 4,4% va 4% ni tashkil etdi.

Statistik ma'lumotlarning tahlili boshqa mintaqalarga nisbatan eng kam o'lim Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Qashqadaryo viloyatida ham tug'ilish va tug'ish yoshi koeffitsientining kamayishi kuzatiladi. Shuningdek tug'ilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda tug'ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko'payishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. 1996 yilda viloyatda t.k. 27,9%, 2003 yilga kelib bu ko'rsatkich 19,4% ni tashkil etgan. Ushbu yillarda tabiiy ko'rsatkich darajasi 8,5 promillega kamaygan.

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning xududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik 1 km²ga 77,4 kishi bo'lib, bu raqam respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi

xususan yuqori mintaqada ancha zich o'rnashgan. Masalan, zichlik Yakkabog'da 164, Shahrisabz tumanida 158 va Kitobda 102 kishiga teng, vaholanki bu ko'rsatkich Bahoriston tumanida atigi 17, Muborakda 19, Dehqonobodda 25, U.Yusupov tumanida 38 kishini tashkil etadi xolos. (2003 yil Bahoriston va U.Yusupov-Mirishkor t.).

Aholi soni bo'yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldida turadi (257 ming, 2001 yil); Shahrisabz tumanida ham, Shahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi 200 mingdan ziyod. Ayni vaqtda Mirishkor tumanining demografik sig'imi ancha past.

Maydoniga ko'ra esa eng katta Dehqonobod tumani-uning hududi 4,0 ming km² yoki viloyat maydonining 1/7 qismi. Shuningdek, Muborak va Chiroqchi tumanlari ham nisbatan katta, eng kichigi-Kasbi tumani (0,65 ming km²).

Umuman olganda, yuqori mintaq (SHahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan Respublikamizning aholisi zich voha va vodiylariga o'xshab ketadi. Ammo, ta'kidlash joizki, zichlik, qo'yi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya'ni 190-200 kishiga teng.

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri uncha kuchli bo'lmasada, u salbiy. Masalan, 1997 yilda shahar joylarda migratsiya qoldig'i minus 1440, 1998 yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qishloq joylarda minus 2910 va 2205 kishidan iborat bo'lgan.

1 yanvar 2001 yil ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1 mln kishiga yaqin. Shundan 725 ming kishi iqtisodiy faol ishlaydi, ya'ni ish o'rinlari bilan band, umumiy bandi darajasi 72,5%, 2000 yil yakunlari bo'yicha bir yilda qishloq xo'jaligidan 19,1 ming kishi bo'shagan va shu davrda 25,6 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan. Biroq, shunga qaramasdan viloyatda xususan uning aholisi zich tumanlarida mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yaxshilash muhim muammodir.

Aholi zichligi 2003 yil 80,3 kishi, 2004 yil 81,8 k. shahar aholisi 579,7 ming k. 1 yanvar 2004 yil qishloq aholisi 1756,7 ming k.

Ayollar – 1166,4 m.k.

Erkaklar – 1170,0 m.k.

1 yanvar 2004 yil.

O'rtacha yillik o'sish 2003 yil bo'yicha 101,8%, shundan shaharlarda 101,2%, qishloqlarda 102,0%.

5-MA'RUZA. Qashqadaryo viloyati xo'jaligiga umumiy ta'rif.

Reja:

- 1.Viloyat iqtisodiyotining shakllanish xususiyatlari.
- 2.Viloyat xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari va ularni xududiy tashkil etish.
- 3.Ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etish shakllari.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial agrar xususiyatini oshishiga tegishli imkoniyatlar mavjud.

Boshqa xududlarda bo'lganidek, bu yerda ham bozor islohotlariga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyat sanoatini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga xos xususiyatga ega. Sababi sanoatning asosan yoqilg'i-energetikaga ixtisoslashganligi sababli nodavlat sektori bu sohada 30 foizga yaqin, xolos.

Viloyatda kichik va o'rta korxonalar, mikrofirmalar soni ko'payib bormoqda. Qo'shma korxonalarning umumiy soni 34, amaldagisi-25, sanoatdagisi esa 14. 2000 yilda barcha yo'nalishdagi qo'shma korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulot 1,5 marta o'sgan. Qo'shma korxonalarning ko'pchiligi Qarshi, Muborak va Shahrisabzda joylashgan. Shu yilda chakana savdo 109,8, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 136,9 va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish 113,7 foizga o'sgan.

Ayniqsa keyingi yillarda kapital mablag' sarflash, investitsiya hajmi ko'payib bormoqda. Bu esa kelajakda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yasaydi. Shu o'rinda, eng avvalo, xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda bunyod etilayotgan, sarflanadigan mablag' miqdori juda katta bo'lgan Sho'rtan majmuasini ko'rsatish lozimdir. Ushbu majmuaning ishga tushirilishi bilan viloyat va mintaqa iqtisodiyotida muhim burilish bo'ladi.

Hozirgi paytda O'zbekistonning milliy iqtisodiyot tizimida Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hamda yoqilg'i resurslarini qazib olish bo'yicha muhim o'rin tutadi. Bu sohalarni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Qashqadaryo viloyati iqlimining ko'pgina xususiyatlari (issiqlik miqdorining kattaligi, vegetatsiya davrining uzoq davom etishi va b.sh.) bu yerda faqat ingichka tolali paxta, balki yuqori sifatli meva va uzum, subtropik va yong'oq mevali o'simliklar, lalmi, bug'doy va urug'lik uchun beda o'stirishga

imkon beradi. Viloyat xududi yoqilg'i mineral-xom ashyo resurslarga boy bo'lib ular bu yerda gaz, kon-ma'dan, kon-kimyo va binokorlik materiallari ishlab chiqarish kabi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun negiz bo'la oladi. Shuningdek viloyat aholisini tez sur'atlar bilan ko'payib borayotganligi va azaldan sug'oriladigan zonada uning zichligi ayniqsa katta ekanligi sababli ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Qashqadaryo viloyatining ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi qishloq xo'jaligining qadimdan tashkil topgan tarmoqlari (paxtachilik, pillakashlik, qorako'lchilik, bog'dorchilik va uzumchilik) hamda gaz va kimyo sanoati paxta tozalash, o'simlik moyi, meva-konserva hamda yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan begilanadi. Viloyatda bu ixtisoslashgan tarmoqlarning rivojlanishi sanoatni xom ashyo manbalariga va tayyor mahsulotni iste'mol qiluvchi rayonlarga yaqinlashtirishga ko'maklashadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni respublika ko'lamida oqilona joylashtirish talablariga javob beradi.

1920 yilda qadar Qashqadaryo Buxoro amirligining iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq qismlaridan biri edi. Aholi g'allachilik, paxtachilik, tokchilik, bog'dorchilik hamda chorvachilik bilan shug'ullangan. Hozirgi Qashqadaryo xududida oltita, ya'ni Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Yakkabog', Kitob, Shahrisabz bekliklari mavjud bo'lib, ular Buxoro, Toshkent, Samarqand bozorlariga paxta, pilla, qorako'l teri, jun, quriq meva, chorva mollari chiqarishgan. Lekin o'sha davrda Qashqadaryoda qishloq xo'jaligi rivojlanishi imkoniyatlar darajasidan past edi. 1913 yil ma'lumotlari bo'yicha 317,6 ming ga maydonda dehqonchilik qilingan, shundan 2 ming gektar maydonda paxta ekilib, har gektardan o'rtacha 7,3 ts.dan hosil olingan, donli ekinlarning hosildorligi esa 5 ts.dan oshmagan.

Sanoatda ham asosan kichik yarim kustar korxonalar asosiy ahamiyatga ega bo'lgan. 1916 yilda Shahrisabzda yagona paxta tozalash zavodi ishga tushirildi. Unda atigi 180 ishchi mehnat qilar edi.

1924 yilda Qashqadaryo viloyati tuzildi va mavjud eski ishlab chiqarish munosabatlari tugatilib, yangi ishlab chiqarish usullariga o'tildi.

Qashqadaryo viloyatida urushgacha bo'lgan davrda sanoat tarmoqlarining rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi. Jumladan, Shahrisabz shahrida konserva va vino zavodi, Qarshi shahrida "Uchqun" gilamdo'zlik fabrikasi hamda mehnat resurslaridan va ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda mavjud sanoat korxonalarining smena koeffitsientini oshirish hamda qishloq xo'jalik xom

ashyolarini qayta ishlovchi, qurilish materiallari korxonalari qurildi. Ayniqsa, 70-yillardan boshlab sanoat korxonalarini kengaytirish va yangidan barpo etish ishlari jadal bordi. Bu davrda G'uzor, Koson, Nishon, Kasbi, Qamashi, Chiroqchi tumanlarining markazlarida yirik paxta tozalash zavodlari bunyod etildi.

Tabiiy gaz va neftni qazib chiqarish ko'paytirildi. Muborak shahrida mahalliy oltingugurt gazi zaminida yirik gazni qayta ishlovchi korxona, ko'plab qurilish materiallari ishlab chiqaradigan hamda meva, konserva, go'sht, sut, non ishlab chiqaradigan yirik korxonalar qad ko'tardi.

Keyingi 20 yil ichida Qashqadaryo viloyatida yangi yerlarni o'zlashtirish va mineral-xom ashyolarning ishga tushirilishi munosabati bilan viloyatda shahar va shaharchalarda aholi soni ancha o'sdi. Bu esa qurilish sanoatini rivojlantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini-qayta ishlovchi korxonalarni ko'paytirish, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni yanada rivojlantirish imkonini berdi. Buning natijasida 1970-1990 yillar mobaynida sanoat yalpi mahsulotining o'sish darajasi Qashqadaryo viloyatida respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan ancha yuqori, ya'ni 1970-1990 yillarda sanoat yalpi mahsuloti O'zbekiston bo'yicha 3,6 marta yuqori bo'lishiga olib keldi. Qashqadaryo viloyatida esa 5,2 marta o'sdi.

Qashqadaryo viloyatida hozirgi vaqtda 100 ga yaqin katta va kichik sanoat korxonalari ishlamoqda. Bu korxonalar 1989 yilda 1 mlrd 440 mln so'mlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqardi. Viloyatda Qarshi neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi, Muborak gaz konlari boshqarmasi va gazni qayta ishlash zavodi, 12 paxta tozalash, o'simlik moyi oladigan, meva-konserva, vino ishlab chiqaradigan hamda oziq-ovqat, xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan ko'plab korxonalar mavjud.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati respublika miqyosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ko'ra ancha orqada turadi. Viloyat respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning taxminan 5% ni beradi. Shu sababli viloyatni industrial viloyatlar qatoriga ko'tarish hamda mavjud yoqilg'i, mineral xom ashyolar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni yanada rivojlantirish va mehnat resurslaridan to'la va oqilona foydalanish maqsadida 1986-1990 yillarda viloyat xo'jaligini rivojlantirish uchun 3,4 mlrd so'm kapital mablag' ajratildi. Bundan keyin ham qo'shma kichik korxonalarni qurish va mavjud korxonalarni kengaytirish hisobiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'paytirila boriladi.

Qishloq xo'jaligi viloyat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan hisoblanadi, chunki unda aholining asosiy qismi shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligi aholi uchun iste'mol mollari ishlab chiqarish bilan bir qatorda yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyo ham yetkazib beradi.

Viloyatimiz iqlimi, yer-suv va mehnat resurslari qishloq xo'jaligining paxtachilik, pillachilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavot-polizchilik, qorako'lchilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Qashqadaryo viloyati katta yer resursiga ega, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar 2534,5 ming ga, shundan ekin ekiladigan maydonlar 616 ming ga ni tashkil etadi, shundan 449 ming gektari sug'oriladigan maydonlardir.

Irrigatsiya va melioratsiya qurilishini takomillashtirish hamda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bilan bog'langan holda viloyat xo'jaliklarida qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi tobora takomillashib g'alla-chorvachilik, yaylov qorako'lchiligi, paxtachilik-pillachilik-qorako'lchilik qishloq xo'jalik rayonlari shakllanadi.

Viloyatda qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishi uchun irrigatsiya va melioratsiya ishlariga katta mablag'lar ajratildi. Natijada Chimqo'rg'on (1963 yil), Pachkamar (1968 yil), Talimarjon (1973 yil) va boshqa suv omborlari, Kasbi hamda Qarshi magistral kanallari ishga tushirildi.

Keyingi 20 yil ichida Qarshi cho'lida 240 mingdan ko'proq maydon o'zlashtirildi. Bu tadbirlar viloyatida dehqonchilik va chorvachilikni yana rivojlantirish evaziga yalpi mahsulotni ko'paytirish imkonini berdi. 1990 yilda 1056,9 mln.so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shuning 70% dan ko'proq qismi dehqonchilik tarmoqlarida yaratildi. Dehqonchilikning asosiy tarmog'i paxtachilikdir. Paxtachilik Qarshi cho'lga Amudaryo suvi chiqarilgandan keyin ayniqsa tez rivojlandi. Paxtaning yalpi hosili 1970 yilda 302 ming tonnani hosildorligi 26,4 ts.ni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda paxta hosildorligi 23,7 ts.ga yalpi hosili 522,3 ming tonnaga yetdi.

Viloyat qishloq xo'jaligida g'allachilik ham muhim o'rin tutadi, sug'orilmaydigan adirlarda bug'doy, arpa sug'oriladigan yerlarda esa makkajo'xori yetishtirildi. 1990 yilda viloyat g'allakorlari 141,3 ming tonna don yetishtirdilar. Mutaxassislar fikricha viloyatda donning yalpi hosilini oshirishning katta imkoniyatlari mavjud. Undan tashqari viloyatning sharqiy tog' oldi zonalarida bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik, cho'l zonasida poliz mahsulotlari ko'plab yetishtirilmoqda. Viloyatda 1990

yilda 123,8 ming tonna sabzavot, 14230 tonna meva, 23434 tonna uzum mahsuloti yetishtirildi.

Viloyat qishloq xo'jaligining ikkinchi muhim tarmog'i chorvachilikdir. Adir-tog' zonasida qo'ychilik, sug'oriladigan zonada asosan qoramolchilik, cho'chqachilik rivojlanmoqda. Bu sohaning taraqqiyoti chorva mollari tuyoq sonining o'sishi mahsuldorligining oshishi oziqa bazasini mustahkamlanishi bilan ham bog'liqdir.

Keyingi yillarda yirik va mayda tuyoqli chorva mollari cho'chqalar va parrandalarni ko'paytirishga ayniqsa katta e'tibor berilmoqda. 1991 yil ma'lumotlari bo'yicha Qashqadaryo viloyatida 45,9 ming bosh yirik shoxli mollari, 1471,5 ming bosh qo'y va echkilar, 55,5 ming bosh cho'chqa, 2,3 mln bosh parrandalar mavjud. Bu yerda 1990 yilda 46,9 ming tonna (so'yilgan vaznda) go'sht, 271,3 ming tonna sut, 147,7 mln dona tuxum 4478 tonna jun 2464 tonna pilla va boshqa chorva mahsulotlari yetishtirildi.

Aholini yetarli darajada va sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining "Jamoat va davlat xo'jalik ishchilari fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida" gi qarorining bajarilishi ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Transport viloyat iqtisodiyotining asosiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Viloyatda temir yo'l, avtomobil, havo, quvur transporti tarmoqlari mavjud bo'lib, tumanlararo yuklar temir yo'l orqali tashiladi.

Qashqadaryo viloyatida avtomobil transporti 1920 yillardan so'ng vujudga kelgan bo'lsa, u Ulug' Vatan urushidan keyingi yillarda tez taraqqiy eta boshladi. U viloyat tumanlari ichidagi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Avtomobil transporti orqali tumanlar va xo'jaliklardan yuklar temir yo'l bekatlariga va aksincha temir yo'l bekatlaridan yuklar xo'jaliklarga yetkazib beriladi.

Viloyat markazi Qarshi shahrida zamonaviy aeroport ishga tushirilgach, yangi reaktiv samolyotlar qabul qilina boshlandi. Qarshi havo yo'llari orqali O'zbekistonning va hamdo'stlikka kiruvchi davlatlarning ko'pgina shaharlari bilan bog'langan bo'lib, tez buziladigan yuklar va yo'lovchilarni tashishda katta rol o'ynaydi.

Qashqadaryo viloyatida transportning yangi turi quvur transporti ham rivojlanmoqda. Mahalliy gaz quvurlaridan tashqari Sho'rtan-SHirin-Toshkent magistral quvuri o'tkazilgan.

O'zbekiston xo'jaligi tizimida Qashqadaryo paxta, pilla, don, qorako'lteri, jun, neft, gaz, oltingugurt va boshqa ko'plab mahsulotlar yetkazib beradigan viloyatdir.

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari katta, chunki o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlarning mavjudligi, ekin ekilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kompleks mexanizatsiyani amalga oshirish evazigahosildorlikni va chorva mollarining mahsuldorligini oshirish yo'li bilan viloyatning qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi mavqeini yanada oshirish mumkin.

Qashqadaryo viloyati respublikada eng ko'p neft, gaz qazib olinadigan mintqa hisoblanadi. 2003 yil ma'lumotlari bo'yicha respublikamizda qazib olingan tabiiy gazning 88%i, kondensatning 100%i, neftning 92%i, oltingugurt 100% i Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi.

Viloyatda tashkil etilgan yirik ishlab chiqarish birlashmalari (sanoat, dehqonchilik sanoati hamda sanoat birlashmalari) xo'jaligini xududiy tashkil etish va boshqarishning asosiy shakllari bo'lib qoldi. Birlashmalarning afzalligi shundaki, ular fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdi, ishlab chiqarishning yangi texnika bilan qayta jihozlashning barcha iqtisodiy, omillardan hamda moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni tezlashtiradi.

Hozirgi kunda Muborak, Sho'rtan gaz va Qarshi neft ishlab chiqarish boshqarmalari, Qarshi qurilish industriyasi, tikuvchilik hamda non mahsulotlari ishlab chiqarish birlashmalari va dehqonchilik sanoati majmualari faoliyat ko'rsatmoqda. Birlashmalar tarkibidagi korxonalar neft, tabiiy gaz, oltingugurt, qurilish materiallari, tayyor kiyimlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi.

Qashqadaryo viloyati ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish uchun katta moddiy texnika baza, mineral, yer hamda mehnat resurslariga ega. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyati O'zbekiston milliy iqtisodiyot majmuasi tarkibida muhim iqtisodiy mavqega ega. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish kelgusida bu yerda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan yirik dehqonchilik sanoati majmuasini vujudga keltirish imkonini beradi. Viloyatning ishlab chiqarish sohasidagi ixtisoslashuvini belgilovchi uch tarmoq majmuasi, paxta-g'allachilik, mevasabzavotchilik va gaz sanoati rivojlantiriladi.

Kelajakda viloyatdagi tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar hisobga olingan holda sanoat ancha rivojlantiriladi, sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish, milliy iqtisodiyotni

malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi vazifalar hal etiladi. Qishloq xo'jaligida esa dehqonchilik bilan chorvachilikni yanada rivojlantirish, aholini chorva, bog'dorchilik va uzumchilik, poliz hamda sabzavot mahsulotlari bilan to'la-to'kis ta'minlashga alohida ahamiyat beriladi.

6 - MA'RUZA. Viloyat sanoati va uning hududiy tuzilmasi.

Reja:

- 1.Viloyat sanoatiga umumiy tavsif.
- 2.Yoqilg'i sanoati
- 3.Mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari sanoati.
- 4.Yengil va oziq-ovqat sanoati.
- 5.Sanoat markazlari va tugunlari.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublika sanoati mahsulotining 8,3% beradi. Bu yerda xususan yoqilg'i-energetika va yengil sanoat yaxshiroq rivojlangan. Masalan, viloyat mamlakatning 1/3 qismidan ortiqroq yoqilg'i sanoati hamda 12% paxta tozalash sanoati mahsulotini ta'minlaydi.

Viloyat sanoatining ichki tuzilishida ham aynan ana shu tarmoqlar yetakchilik qiladi; yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) 56,4%, yengil sanoat 18,1, oziq-ovqat 9,2, un-krupa, omuxta yem sanoati-7,1%. Ayni vaqtda sanoatning boshqa tarmoqlari, masalan, mashinasozlik sust rivojlangan. Yaqin kelajakda kimyo va elektr energetika sanoati mavqeining ancha ko'tarilishi kutilmoqda. Hozirgi davrda viloyatning elektr energetikasi Muborak markazlashgan issiqlik elektr stantsiyasiga hamda qurilayotgan, mamlakatda eng yirik Tallimarjon IESiga asoslanadi. (2004 yilda ishga tushirilishi mo'ljallangan).

2000 yilda sanoat mahsuloti 3,4%ga ko'paydi. Ana shu yilda viloyatda 93 ta asosiy sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ularning barchasida band bo'lgan ishchi xodimlar 27,4 ming kishini tashkil qilgan. Bir yilda taxminan 0,5 mln.kvt/s elektr energiyasi, 3,8-4,3 mln.t.neft, 3,5 mln t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 300 ming tonnaga yaqin oltingugurt, 5,2 mln m² ip-gazlama, 110 ming tonna paxta tolasi, 20 ming tonnadan ziyodroq o'simlik yog'i, 75 mln shartli banka konserva va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95%, tabiiy gazning 92 va oltingugurtning deyarli 100 % to'g'ri keladi.

Sanoatning xududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga Muborak (IEM, gaz-kimyo

majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), Sho'rtan (gaz-kimyo), Tallimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft sanoati), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi va Qamashida to'qimachilik korxonalari, Shahrisabzda konserva, ipakchilik, aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Jami sanoat mahsulotining 27%i viloyat markazi Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori 52%. Demak, ushbu tuman viloyat sanoat mahsulotining yarmidan ko'prog'ini beradi. Shahrisabz, Koson tumanlari o'rtacha mavqega ega, biroq Dehqonobod va Mirishkor tumanlarida sanoat nihoyatda sust rivojlangan. Ushbu muammo jumladan, G'o'zor, Kitob, Chiroqchi, Nishon va Qamashi tumanlariga ham taalluqlidir.

Sanoat-milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'idir. Shu sababli ham har doim sanoatni rivojlantirish, uni xududiy jihatdan oqilona joylashtirishga katta e'tibor beriladi. Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun moddiy texnika vositalarini ishlab chiqaradi hamda tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning holatini belgilaydi. Hozirgi vaqtda viloyatda 100 dan ortiq yirik korxonalar bor. Shular orasida tabiiy gaz qazib olish va uni qayta ishlash, paxta tozalash, moy-ekstraksiya, qurilish materiallari, tikuvchilik va ko'plab oziq-ovqat korxonalarini ko'rsatish mumkin. Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning o'sishi bilan uning tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Viloyat sanoati tarmoqlari ichida yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda yoqilg'i sanoati turadi. Hozirgi vaqtda bu tarmoq ulushiga ishlab chiqarilayotgan barcha yalpi sanoat mahsulotining 40,9%i, asosiy ishlab chiqarish jamg'armalarining 64,5%i to'g'ri keladi. Undan keyin yengil sanoat tarmoqlari hamda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Keyingi 20 yil davomida viloyatda yoqilg'i, qurilish, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlarining o'sishi natijasida sanoat tizimida og'ir sanoatning salmog'i o'sib bordi.

Hozirgi vaqtda viloyat sanoat tarmoqlari orasida gaz va neft qazib chiqarish, tabiiy gazni qayta ishlash natijasida oltingugurt ishlab chiqarish, paxta tozalash, o'simlik moyi va konserva ishlab chiqarish yetakchi tarmoqlardir. Sanoatning bu tarmoqlarining salmog'i butun viloyatda ishlab chiqariladigan yalpi sanoat mahsulotlarining 75% ini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu tarmoqlar respublika ahamiyatiga ega bo'lib, rayonlararo tovarlar almashinuvida ishtirok etadi.

Viloyatda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 70-yillardan boshlab ancha katta zahiraga ega bo'lgan gaz va neft konlarining foydalanishga topshirilishi hamda Qarshi cho'lida qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan tez o'sdi. 1970-1990 yillarda respublikada sanoat yalpi mahsuloti ishlab chiqarish 3,6 marta o'sgan holda, Qashqadaryoda 5,2 marta o'sdi.

1986-1990 yillarda sanoat tarmoqlari ichida tabiiy gaz va neft qazib chiqarish, gazni qpyta ishlash, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlandi. Shu davr ichida Muborak gazni qayta ishlash zavodining quvvati oshirildi. Sho'rtan gaz kompleksi ishga tushirildi. Kitobda ipak yigiruv fabrikasi, bahoristonda Qarshi to'quv fabrikasining filiallari foydalanishga topshirildi. Shu davrda Qarshi go'sht kombinati, Koson o'simlik moyi ishlab chiqarish korxonasi va bir qancha paxta tozalash korxonalarining quvvati oshirildi, Qarshi cho'lidagi tumanlarda yangi paxta tozalash korxonalari bunyod etildi. 1986-1990 yillarda 4 mlrd.804 mln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Yoqilg'i sanoati viloyat sanoatining muhim tarmog'i bo'lib, neft va gaz qazib olish hamda gazni qayta ishlash sohalarini o'z ichiga oladi. Viloyatda gaz sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi O'zbekiston yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Natijada chetdan yoqilg'i keltirish hamda buning uchun ketadigan transport va boshqa harajatlar keskin kamaydi.

Qashqadaryo viloyatida gaz va neft qazib olish 60-yillarda boshlandi, 1965 yilda viloyatda 164,2 mln.m kub gaz, 29 ming tonna neft qazib olingan bo'lsa, 1970 yili 3232 mln.m kub gaz, 334 ming tonna neft, 1990 yilda esa 38,9 mlrd m kub gaz, 775,8 ming tonna neft va 1520,1 ming tonna kondensat olindi. (10-jadval).

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati O'zbekistonda qazib olinadigan gazning 83%ini, kondensatning 100%ini, neftning 46,9%ini beradi. Qashqadaryoda qazib olinadigan gazning asosiy qismi quvurlar orqali viloyatdan tashqarida joylashgan iste'molchilarga yetkazib berilmoqda. Umuman Qashqadaryo viloyati gaz sanoatining istiqboli ancha porloq, chunki hozirgi paytda viloyat xududida o'ndan ortiq gaz konlari topilgan. Bu yerda topilgan gaz konlari kondensatli bo'lib, tozalashni talab etadi. Shu maqsadda 1972 yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurildi. Hozirgi kunda bu korxonada 22,1 mlrd.m kub gazni qayta ishlash natijasida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan 521,9 ming tonna oltingugurt olinmoqda. Sho'rtan gazining quvurlari orqali Taxiatosh

GRESiga yetkazib berilishi natijasida har yili chetdan 100 ming tonna mazutni olib kelishga chek qo'yildi, Qoraxitoy-Qarshi gaz quvurining ishga tushirilishi Qarshi, Koson va Beshkent aholi punktlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash imkonini berdi.

1985-1990 yillarda viloyatda gaz qazib olish taxminan 1,5 marta neft, 1,7 martadan ko'proq va yonilg'i sanoatining yalpi mahsuloti 1,5 martaga o'sdi. Qashqadaryo viloyatida tabiiy gazning sanoat zahirolari O'zbekistonda aniqlangan gaz zahiralarining asosiy qismini tashkil etadi. Gaz konlarining ko'pchiligida qimmatli kimyoviy xom ashyo va yengil neft mahsulotlari olish manbai bo'lgan gaz kondensati bor.

10-jadval.

Qashqadaryo viloyati yoqilg'i sanoatining ayrim ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlap	1985	1990
Yalpi mahsulot mln.so'm	434,8	650,3
Gaz qazib olish mlrd.m kub	26,5	38,9
Neft qazib olish ming tonna	447,5	775,8
Yoqilg'i sanoatida band bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni	2724	2467

Qashqadaryo viloyati hozirgacha o'z energetika quvvatlariga ega emas, elektr energiyani esa O'rta Osiyo yagona tizimidan oladi. Yaqin kelajakda tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tallimarjon GRESini ishga tushirish mo'ljallanmoqda.

Qashqadaryo viloyatining yoqilg'i energiya resurslari bu yerda yirik sanoat korxonalarining majmualarini bunyod etish va gaz hamda gaz kondensatini boshqa iqtisodiy rayonlarga chiqarish imkoniyatini beradi. Tarkibida oltingugurt bo'lgan gazni tozalash maqsadida Sho'rtanda yirik gaz-kimyo majmuasi qurilmoqda va Muborak gazni qayta ishlash zavodi kengaytirilmoqda.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati og'ir sanoatning muhim tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatida mashinasozlik sanoati korxonalaridan Qarshi remont-tajriba mexanika, Qarshi qishloq xo'jaligi mashinalarini ta'mirlash zavodlari, hamda qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlaydigan kichik korxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish vazirligiga

qarashli avtomashinalarni ta'mirlash markazlari mavjud. Bu korxonalar qishloq xo'jalik mashinalarini hamda avtomobillarni ta'mirlash va texnika ta'miri uchun turli xil detal va jihozlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Viloyatda mashinasozlik korxonalarining vujudga kelishi va uning kelajakda rivojlanishi xo'jaliklarda traktor va avtomobil saroylarining kengayishi hamda ularning moddiy texnika bazasining o'sishi bilan bog'liqdir. Hozirgi davrda bu tarmoq viloyat sanoati yalpi mahsulotining 2,3%ini beradi.

Qurilish materiallari sanoati tarkibiga kiradigan asosiy korxonalar keyingi 20 yil ichida bunyod etildi. Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi munosabati bilant 60-yillardan boshlab, irrigatsiya inshootlarining qurilishi, sanoat korxonalari, uy-joy, madaniy-maishiy, ob'ektlarning barpo etilishi ko'plab qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalarni qurishni taqozo etadi. Shu bilan birga viloyatda bu korxonalarni barpo etish uchun kerakli xom ashyo resurslarining bo'lishi bu masalani hal etishga ob'ektiv zamin yaratadi. Qurilish materiallaridan marmar, g'isht ishlab chiqarish uchun xom ashyolar-shag'al, qum, mergel, gips zahiralari mavjud. Bu resurslar asosida viloyatda yirik qurilish industriyasi vujudga keladi.

Hozirgi davrda Qarshi uy qurilish materiallari va konstruktsiyalari kombinatlari, temir-beton zavodlari, devorbop materiallar ishlab chiqarish, keramika va polimer quvurlari ishlab chiqaradigan qum va shag'al saralash korxonalari. Kitob tumanidagi "Qashqadaryo" marmar ishlab chiqarish birlashmasi, Qarshi ixtisoslashtirilgan qurilish birlashmasiga qarashli qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalarni ko'rsatish mumkin. Bu korxonalarning mahsuloti asosan vilot miqyosida itste'mol qilinadi. 1990 yilda qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar 106 mln.dona g'isht, 453,7 ming m kub yig'ma temir beton buyumlari, 7,7 ming m kub deraza bloklari, 23,7 ming m kub yog'och-taxta materiallari ishlab chiqardi. Qurilish materiallari sanoat korxonalari 1990 yilda jami 93 mln.so'mlik mahsulotlar tayyorlagan. (sanoat yalpi mahsulotining 77,4%i).

Yengil sanoat-viloyatning sanoat tarmoqlari ichida yalpi mahsulot ishlab chiqarish jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Xom ashyo, yoqilg'i-energetika hamda mehnat resurslarining yetarli darajada mavjudligi viloyatda yengil sanoatni rivojlantirish va joylashtirishga asosiy ta'sir ko'rsatadigan omillardir. Bu tarmoq korxonalari 1990 yilda 362,4 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lib, uning 73%i paxta tozalash korxonalariga to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyatidagi yengil sanoat korxonalari qishloq xo'jalik mahsulotlariga dastlabki qayta ishlov beradigan paxta tozalash, pillakashlik tarmoqlari hamda aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iborat. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan tarmoqlar ichida ko'p tarmoqli paxta ishlab chiqarish majmuasining tarkibiy qismi bo'lgan paxta tozalash korxonalari muhim o'rin tutadi.

1965 yilga qadar viloyatda Qarshi, Yakkabog' va Shahrisabz paxta tozalash zavodlari mavjud bo'lib, ular har yili 65 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqargan. Keyingi yillarda Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi, paxta ekiladigan maydonlarning kengaytirilishi va yalpi hosilning ko'payishi munosabati bilan Koson, G'o'zor, Qamashi, Jeynov, Chiroqchi, Mug'lon, Nishon va Beshkent paxta tozalash korxonalari qurildi. Hozirgi paytda viloyatda 12 ta paxta tozalash zavodlari ishlab turibdi. Bu korxonalarni paxta ekiladigan maydonlarga bevosita yaqin joylashtirilishi yetishtirilgan xom ashyoni isrof qilmasdan to'la qayta ishlash imkoniyatini bermoqda. Bu korxonalarning asosiy mahsuloti paxta tolasi bo'lib, viloyatda 1970 yilda tola ishlab chiqarish 76,4 ming tonnani. 1990 yilda esa 173,1 ming tonnani tashkil etdi.

Qarshi va Shahrisabz tikuvchilik fabrikalari, mahalliy sanoat majmuasidagi kichik korxonalar, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish markazlari, aholi uchun keng iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalardir. Ular erkak va bolalar ko'ylagi, ipak kiyimliklar, erkak, ayol va bolalar kostyumlari tikishga ixtisoslashgan. Shahrisabz shahridagi "Hujum" badiiy buyumlar fabrikasida zardo'zi do'ppilar, gilamlar, badiiy kashtachilik buyumlari ishlab chiqariladi. Kitob va Yakkabog' shaharlaridagi fabrikalar to'shak-ko'rpacha va galanteriya buyumlari, mebel va yog'ochdan turli buyumlar ishlab chiqarmoqda. Kitob yigiruv fabrikasida ip yigiriladi, gazlamalar to'qiladi. Bu korxonalarda 1990 yilda 95,2 mln so'mlik keng xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqarildi.

Hozirgi paytda yengil sanoati korxonalari keng xalq iste'moli buyumlarini yetarli darajada ishlab chiqarish quvvatiga ega emas. 1990 yilda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat yalpi mahsulotining 35,8%ini yengil sanoat korxonalari bergan bo'lsada, 73%i paxta tozalash korxonalari hisobiga to'g'ri keladi. Viloyatda xom ashyo, yoqilg'i, mehnat resurslari va boshqa omillar yetarli bo'lsada, bu yerda to'qimachilik, yirik tikuvchilik, poyafzal, mebel, galanteriya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar yo'q.

Kelajakda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va aholining o'sishi aholi uchun keng xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalarni qurish va ishga tushirishni taqozo etadi. Shu maqsadda kelajakda Kitob shahridagi yigiruv fabrikasini kengaytirish, Shahrisabz shahrida ipak gazlamalar to'qiydigan kombinat, Yakkabog' va Shahrisabz shaharlarida tikuv fabrikasi, Qarshi shahrida yigirish va tukli gazlamalar ishlab chiqaradigan va mebel fabrikalari qurish ko'zda tutilmoqda.

Oziq-ovqat sanoati-viloyat sanoati yalpi mahsulotining 10,7%ini beradi. Viloyat oziq-ovqat sanoat tarmoqlari ichida o'simlik moyi, meva-konserva va vino ishlab chiqarish ancha rivojlangan va viloyat xududidan tashqariga ham bu tarmoqlarning ko'plab mahsulotlari chiqariladi. Viloyatda sanoatning bu tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun paxta chigiti, sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik xom ashyolari yetarlidir.

Qarshi va Koson shaharlarida yog'-moy ekstraksiya zavodlari asosan chigitdan o'simlik moyi tayyorlaydi. 1990 yilda bu korxonalarda 43,8 mln so'mlik mahsulot yoki 56,4 ming tonna o'simlik moyi ishlab chiqarildi. Bu esa viloyat oziq-ovqat sanoati yalpi mahsulotining 23%ini tashkil etadi. O'simlik moyi viloyat aholisining ehtiyojiga ishlatiladi. Shuningdek shartnoma asosida Toshkent, Farg'ona hamda Rossiya federatsiyasining ayrim shaharlariga jo'natiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda Shahrisabz shahridagi konserva va vino zavodlarining salmoqli ulushi bor. Bu korxonalar tomat-pasta, meva sharbatlari, shinni, qiyom, murabbo va boshqa xil mag'sulotlar tayyorlaydi. Bu zavodlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi yil sayin ko'paymoqda. 1990 yilda 32,6 mln so'mlik 138,8 mln dona shartli konserva bankalari tayyorlandi. Hozirgi paytda viloyatda tayyorlanayotgan meva-sabzavot konservalarining asosiy qismi mol ayriboshlash asosida Rossiya federatsiyasining Ural, G'arbiy va Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq iqtisodiy rayonlariga jo'natilmoqda. Viloyatda meva sabzavot ekinlari maydonining kengayishiga bog'liq holda Kasbi tumanida konserva, Qarshi shahrida spirtsiz ichimliklar ishlab chiqaradigan korxonalar ishga tushirildi.

Oziq-ovqat sanoatining mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari aholining kundalik ehtiyojlari uchun go'sht, turli xil kolbasalar, sosiska, mol va qo'y yog'lari, ilik yog'i va boshqa mahsulotlarni tayyorlaydi. Bu korxonalarda, shuningdek, cho'chqachilik va parrandachilikda ozuqa sifatida beriladigan go'sht, suyak va qon unlari ham ishlab chiqariladi.

Viloyatda go'sht va go'sht mahsulotlari asosan Qarshi va Shahrisabz go'sht kombinatlarida ishlab chiqariladi. Bu korxonalarda 1990 yilda 33,3 mln so'mlik mahsulot, jumladan, Qarshi go'sht kombinatida 10,9 ming tonna go'sht, 1391 tonna kolbasa, Shahrisabz go'sht kombinatida esa 3073 tonna go'sht va 523 tonna kolbasa ishlab chiqarildi.

Qashqadaryo viloyatida (Qarshi va Shahrisabz shaharlarida) 2 ta sut-yog' zavodi ishlab turibdi. Bu korxonalar sariyog', yog'i olingan sut, smetana, qaymoq, suzma, muzqaymoq, brinza va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. 1990 yilda Qarshi sut-yog' zavodida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 9661 ming so'mni. Shahrisabz zavodida ishlab chiqarilgan mahsulot esa 5270 ming so'mni tashkil etdi. Bu korxonalarda 31968 tonna sut qatiq mahsulotlari hamda 2145 tonna mol yog'i ishlab chiqarildi.

Qashqadaryo viloyatida 2 ta un va omuxta yem ishlab chiqaradigan korxona (Shayxali qo'rg'onchasi va Yakkabog' shahrida) mavjud. 1990 yilda bu korxonalar 44,5 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqardi. Viloyatda aholisi va chorva mollari uchun Shayxali un kombinati 118,3 ming tonna un hamda 119,6 ming tonna omuxta yem tayyorladi. 1990 yilda ishga tushirilgan Yakkabog' un kombinatida shu yilda 27,6 ming tonna un tortildi.

Viloyatda non-bulka, qandolat mahsulotlari ishlab chiqaradigan Qarshi non kombinati, Nishon va Shahrisabz non-bulka ishlab chiqarish korxonalari hamda viloyat matlubot jamiyatiga qarashli korxonalar 1990 yilda 54160 tonna.

8-MA'RUZA. Viloyat transporti va iqtisodiy aloqalari.

Reja:

- 1.Transport tarmoqlarining tarixiy tarkib topishi, uning iqtisodiy ahamiyati.
- 2.Transport kompleksining tarkibi.
- 3.Savdo va iqtisodiy aloqalari.

Viloyatda transport tizimining turli xillari mavjud. Ammo yuk tashishda avtomobil transporti oldingi o'rinda turadi. Masalan, 2000 yilda jo'natilgan umumiy 43.0 mln.tonna yukdan 36.2 mln.tonnasi avtomobil transportiga to'g'ri keladi.

Qashqadaryo neft va gaz konlaridan mamlakatimizning turli rayonlariga hamda qo'shni davlatlarga quvur transporti tarqalgan;

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, ko'pgina yirik issiqlik elektr stantsiyalariga ham aynan shu yerdan yoqilg'i yetkazib beriladi. Shuningdek,hozirgi vaqtda qurilayotgan G'uzor-Boysun-Qusqo'rg'on temir yo'lining ahamiyat ham katta.

Qashqadaryo viloyati xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri transport bo'lib, u yuk va yo'lovchilarni tashishning yagona vositasidir. Transport viloyatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylashishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining 10% dan ortiqrog'i transportda band.

Qashqadaryo hududidagi temir yo'llar, avtomobil, havo, quvur-elektron transporti respublika transporti yagona tizimining ajralmas qismidir. Qashqadaryo v-tida tabiiy gaz, neft kondensat iva boshqa tabiiy boyliklardan foydalanishda qo'riq yerlarni o'zlashtirishda, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda transportning ahamiyati katta. Chunonchi viloyat hududida Qarshi cho'lininig o'zlashtirilishi transportning hamma turlarini rivojlaanishini taqozo etadi. Viloyatning tayyor mahsulotlari va xom ashyosini boshqa mintaqalarga yetkazishda va u mintaqalardan bunday mahsulotlarni keltirishda transport muhim xo'jalik ahamiyatiga ega.

Temir yo'l transporti zamonaviy texnika Bilan jihozlangan bo'lib, yuk oborotini oshirishda yetakchi rolni o'ynamoqda. Temir yo'l transportida mehnat unumdorligini uzluksiz o'sishi kata iqtisodiy samara bermoqda.

Viloyatni mamlakatning boshqa viloyatlari va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda va viloyat ichida yuklarni hamda yo'lovchilarni tashishda temir yo'l yetakchi o'rin tutadi.

Qashqadaryo viloyatida temir yo'llar va shohbekatlarining qurilishi 1915 yildan boshlandi. Shu yilda Kogon-Qarshi-Amudaryo-Termiz temir yo'li, Qarshi va Koson shohbekatlarini qurib bitkazildi. 1924 yilda uzunligi 122 km bo'lgan Qarshi-Kitob temir yo'li ishga tushirildi. 1925 yilda Kogon-Qarshi-Amudaryo-Termiz temir yo'li Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanba shahrigacha yetkazildi.

Keyingi yillarda viloyat hududida shahar va qishloq o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni taraqqiy ettirish va mustahkamlash, yangi sanoat tarmoqlarini barpo qilish, bo'z yerlarni o'zlashtirish, tabiiy boyliklardan foydalanishga kata e'tibor berildi. Shu boisdan Qashqadaryo viloyatidagi transport tarmoqlari tez rivojlana bordi. Ilgari Kogon stantsiyasi orqali Samarqand-Kogon-Qarshi temir yo'lida yarim aylana yo'ldan yuklar tashilar edi. Natijada bu yo'lda Qarshi stantsiyasida ancha qiyinchiliklar tug'ilib, transport harajatlari, yuk hamda vagonlar oboroti haddan tashqari ortib ketar edi. Shu boisdan temir yo'l uzunligini qisqartirish, qo'lay yo'l tanlash lozim bo'lib qoldi. 1966 yilda Samarqand-Qarshi temir yo'li qurilishi boshlanib, 1970 yilda 144 km uzunlikdagi bu temir yo'l foydalanishga topshirildi. U Qarshidan Toshkentgacha bo'lgan masofani 240 kmga qisqartirdi. Viloyatda Qarshi shohbekatidan tashqari Kitob, G'uzor bekatlarini qurildi. Qarshida Qarshi shohbekati, vagon va lokomotiv deposi, xizmat ko'rsatuvchi 6 ta distantiya, kasalxona, savdo tarmog'i, temir yo'lchilar madaniyat saroyi kabilarni o'z ichiga oladigan transport tuguni vujudga keltirildi. Qarshi temir yo'li ishlab chiqarish birlashmasiga Kitob, Tanxoz, Yakkabog', Qarshi, Nishon, Koson, Tallimarjon stantsiyalari kiradi. Muborak stantsiyasi Buxoro temir yo'l birlashmasiga qaraydi.

Qashqadaryo viloyati tumanlarining markazlari temir yo'l bo'yida yoki unga yaqin joylashgandir. Qarshi, Kitob, Koson, Nishon, G'uzor, Qamashi va Muborak viloyatdagi asosiy temir yo'l stantsiyalaridir. Dehqonobod shaharchasi temir yo'ldan 45 km. Mug'lon qishloqg'i 20 km. Chiroqchi shahri 12 km, Beshkent shahri esa 7 km uzoqlikda joylashgan.

Viloyatning 71 xo'jaligi hududlari bo'ylab temir yo'llar o'tadi. Tuman markazlarining bunday joylashuvi yuklarni jo'natish va keltirishda, ya'ni viloyatdagi ichki hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni yengillashtiradi.

1989 yilda temir yo'llar orqali viloyat ichkarisida 10.4 ming tonnaga yaqin yuk tashilgan, yuk oboroti 264.2 ming t/km g teng bo'lgan. 1990 yilda

Qarshi temir yo'l shohbekati ta'mirlandi. Bu shohbekatning ikki qavatli ko'rkam binosida yo'lovchilar uchun hamma qulayliklar yaratildi. Shu yilda Qarshi shohbekati orqali 288.7 ming yo'lovchi tashildi.

**Qashqadaryo viloyatida avtomobil transportida yuk va yo'lovchilar
tashishning ko'rsatkichlari.**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	1985 y.	1989 y.
Yuk oboroti	Ming t/km	1801,6	1956,0
Tashilgan yuk miq.	Ming t.	1070144	69434,4
Yo'lovchilar obor.	Ming odam	156274,5	144723,9
Tashil.yo'lovchi.	Ming (yo'l.) km	1580,2	2320,2

Kelajakda Qarshi shahrida ekologik jihatdan toza transport turi-trolleybus qatnovini ishga tushirish mo'ljallanmoqda.

Elektron transporti Qashqadaryo viloyati xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarini rivojlantirishning muhim omilidir. 1965 yilgacha Qashqadaryo viloyatida bir qancha kichik dizelli elektr stantsiyalari mavjud bo'lib, ular 85 ming kilovat quvvatli, elektr shaxobchalari atigi 420 km edi. 1965 yildan boshlab Buxoro-Qarshi elektr uzatgich liniyasi ishga tushirildi. 1965 yildan esa viloyatimizda elektrlashtirish ancha tez sur'atlar bilan olib borildi. 220 kilovoltli "Buxoro-Qarshi" havo elektr uzatgich liniyasi, Qarshi shahrida 20 ming kVt/A ga teng Qarshi elektr stantsiyasi qurib bitkazildi. Natijada tumanlarni elektrlashtirish sur'ati tezlashtirildi. Qarshi-SHahrisabz, Qarshi-Koson elektr uzatgichlari qurila boshlandi. Qamashi, G'uzor va Chiroqchi tumanlarida 20 dan ortik elektr energiya tarqatgich punktlari foydalanishga topshirildi. Elektr uzatgichlar 4000 km ga uzaytirildi. Hozirgi kunda deyarli barcha qishloqlar elektrlashtirilgan. Buxoro-Navoiy-Qarshi elektr liniyasiga tuman markazlari ulanadi. 1978 yilda Norak GESning elektr energiyasi G'uzor-Qarshi uzatgichi orqali O'rta Osiyo yagona elektr tizimiga ulandi. Buning natijasida Qashqadaryo viloyatida elektr energiya bilan ta'minlanish yana yaxshilandi. 1985 yilda Muborak issiqlik elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Viloyatda tabiiy gazda ishlaydigan umumiy quvvati 3.5 mln kvv-li Tallimarjon GRESining 80 ming kvv li birinchi blokini foydalanishga topshirishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. 1989 yilda Qashqadaryo viloyatida 3.5 mlrd kvv/s ga yaqin elektr energiya iste'mol qilindi, shundan sanoatda 3 mln kvv/s dan ortiq, dehqonchilik-sanoat tizimlarida 312 mln kvv/s, transportda 3 mln kvv/s dan

ortik, kommunal xo'jalikda 7 mln kvts elektr energiya sarflangan. Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimy o kompleksi, Qarshi sanoat korxonalari tarmoqlarida elektr energiya ko'p ishlatiladi. Qashqadaryo viloyatida 10 ming km dan ortik havo va kabel elektr uzatgich liniyalari, quvvati 2.5 mln kvA bo'lgan yuzlab 35-200 kvA-li stantsiyalar va 2500 dan ziyod transformatorlar quvvatli transformatorlar bilan almashtirilmoqda. Chunonchi, Koson tumani "Po'lati" stantsiyasidagi quvvati 4 ming kvA bo'lgan transformator 4 ming kvA transformatorga almashtirildi. Kasbi tumanida 20 davlat xo'jaligida 2.5 kvA transformator 4 ming kvA transformatorga almashtirildi. 110-120 kv li havo elektr uzatgich liniyalariga yangi shisha-plastin izolyatorlar o'rnatildi. Bu esa liniyalarning to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi.

Viloyatda quvvur transportini rivojlantirish katta afzallikka ega. U viloyat korxonalari, xo'jaliklar, aholi punktlarining gazlashtirilishini, ishlab chiqarishning rivojlanishini, mehnat unumdorligining oshishini, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining kamayishini atrof-muhitni nisbatan toza bo'lishini ta'minlaydi.

Viloyat hududi yer bag'rilarining tabiiy gaz manbalariga boy bo'lganligi sababli ulardan viloyat ichqarisida va tashqaridagi iste'molchilarga gaz yetkazib berishda gaz quvurlari eng qulay va arzon transport vositasidir. Katta zahirali gaz konlarining ochilishi va foydalanishga topshirilishi munosabati bilan oltmishinchi yillardan boshlab gazquvurlari qurila boshlandi. O'tgan yillarda Qoraxitoy-Qarshi, Afg'oniston-Muborak, Sho'rtan-Muborak, Sho'rtan-Buxoro-Gazli-Toshkent-Oлмаota-Rossiya gaz quvurlari ishga tushirildi. Hozirgi paytda viloyatda gaz quvurlarining uzunligi 2703.7 km ga teng. Bu yerda har yili 525 mln m.kub ga yaqin tabiiy gaz va 20590 tonna suyultirilgan gaz iste'mol qilinmoqda.

O'rtacha 1 yillik tashqi savdo hajmi 350-420 mln AQSH dollarini tashkil qiladi. Shundan eksport 120-160 mln, import 230-260 mln.dollarga teng. Import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi viloyatda qurilish ko'lamining ko'pligi hamda qulay investitsiya makonining mavjudligidan dalolat beradi.

Eksportda birinchi o'rinda paxta tolasi turadi. Importning asosiy qismi esa mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallarga to'g'ri keladi. Tashqi savdo oborotida uzoq xorij mamlakatlari bilan aloqalar ustunroq.

9-MA'RUZA. Viloyatning nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari.

Reja:

1. Aholiga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati.
2. Sohaning tarkibi:
 - a) kommunal xo'jaligi
 - v) savdo, umumiy ovqatlanish.
 - s) sotsial-madaniy xizmat ko'rsatish.
3. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashishi.

Nomoddiy ishlab chiqarish ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim sohasi bo'lib, moddiy ishlab chiqarish va aholi moddiy turmush darajasining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kishilarda xilma-xil moddiy va ma'naviy ne'matlarga, maishiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi turli xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan talabni ham oshirib boraveradi. Qashqadaryo viloyatida fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, aholining moddiy va madaniy turmush darajasining o'sib borishi natijasida xizmat doirasi geografiyasi kengayib bormoqda va unda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning soni yildan yilga oshib bormoqda. 1990 yilda Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining 26,1%i nomoddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan.

Xizmat doirasi (nomoddiy ishlab chiqarish) uy-joy va kommunal xo'jalik, aholiga transport xizmati, savdo va umumiy ovqatlanish, ijtimoiy ta'minot xizmati, bolalar muassasalari va umumiy ta'lim maktablari, sog'liqni saqlash, madaniy va maishiy xizmat, aholining xavfsizligini va qonunchiligini saqlash kabi tarmoqlaridan tashkil topgan tizim bo'lib, bu jamiyatning ijtimoiy infrastrukturasini tashkil qiladi. Xizmat doirasining hajmi va uning hududiy tashkil etilishi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarga bog'liqdir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi ancha murakkab tarmoq bo'lib, uning rivojlanishi aholi turmush sharoitini yaxshilashga hamda ijtimoiy mehnat unumdorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu tarmoq aholiga obodonlashtirilgan uy-joy berish va uni saqlash, unga xizmat ko'rsatish (elektr energiya, isitish, suv, kanalizatsiya bilan ta'minlash), tashqi muxandislik tarmoqlarini, ko'chalar va yo'laklarni tozalab turish, yashil

zonalarini tashkil etish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Uy-joy va kommunal xo'jaligida 1991 yilda 10,3 ming kishi band bo'lgan.

Hozirgi kunda viloyatdagi barcha uy-joy fondi jamg'armasining hajmi 17463 ming kv.m.ga teng. 1986-1990 yillarda viloyatda 3458 ming kv.m. hajmdagi uy-joylar qurildi.

Qashqadaryo viloyatida uy-joy qurilishi Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi munosabati bilan tez sur'atlarda olib borildi. Uy-joylar davlat va kooperativ korxonalar, tashkilotlar, uy-joy kooperativlari jamoa xo'jaliklari tomonidan hamda aholining o'z hisobiga qurilmoqda. Keyingi yillarda aholiga tomorqa berilishi munosabati bilan qishloq joylarida shaxsiy uylarni qurish jadallashdi.

Uy-joy qurilishi ko'payishi bilan aholiga kommunal xizmat ko'rsatish ham yaxshilanmoqda. 1980-1990 yillarda gazlashtirilgan xonadonlar soni 238.4 mingga ko'paydi. Aholi punktlarini suv bilan ta'minlash ancha yaxshilanmoqda. Hozirgi vaqtda viloyatning Qarshi, Koson, Muborak, Beshkent, Nishon, G'uzor shaharlariga Shahrisabz-Kitob botig'idan quvurlar orqali ichimlik suvi keltirilgan. Uylarni markazlashtirilgan holda isitish va boshqa kommunal xizmat ko'rsatish hajmi va sifati oshib bormoqda.

Kelajakda uy-joy qurilishi, suv, elektro-energiya va gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, markazlashtirilgan isitishni tashkil etish, kanalizatsiyani rivojlantirish ishlari davom ettiriladi.

Aholiga savdo xizmati. Moddiy ne'matlar aholiga savdo shaxobchalari orqali yetkazib beriladi. Shu sababli aholi turmush sharoitlarining yaxshilashda savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Qashqadaryo viloyatida savdo umumiy ovqatlanish tarmoqlarining xizmat ko'rsatish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. 1992 yilning boshida 296 chakana savdo va 259 umumiy ovqatlanish korxonalari aholiga 1858.4 mln.so'mlik savdo xizmati ko'rsatdi. 1980-1991 yillar mobaynida davlat va kooperativ hamda umumiy ovqatlanish savdo hajmi 3 martadan ko'proqqa o'sdi. Ammo aholi jon boshiga ko'rsatilayotgan davlat va kooperativ hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi bo'yicha Qashqadaryo viloyati O'zbekistonda oxirgi o'rinda turadi. 1990 yilda O'zbekistonda aholi jon boshiga 907 so'mlik savdo xizmati ko'rsatilgan bo'lsa, viloyatda bu ko'rsatkich 715 so'mga, qishloq joylarida esa 426 so'mga teng bo'ldi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining moddiy texnika bazasi mustahkamlanmoqda. Qarshi, Koson, Shahrisabz, G'uzor, Qamashi,

Yakkabog' tumanlarida yirik savdo va umumiy ovqatlanish markazlari, universal va universam magazinlar qurildi. Aholiga savdo xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlanmoqda. Bu albatta aholiga savdo xizmati sifatini yaxshilash va turlarini ko'paytirish imkonini bermoqda.

Aholiga savdo xizmati ko'rsatish doirasini yanada kengaytirish, savdo xizmatini takomillashtirish, ularni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash sohasida ham katta ishlar qilinmoqda. 1991 yil viloyat bo'yicha barcha magazinlar savdo qilish maydoni hajmini 42604 km.m.ga kengaytirdi, 1120 kv.m savdo maydoniga ega bo'lgan 5 do'kon qurib bitkazildi; maydoni 480 kv.m bo'lgan omborxona va 150 xo'randaga moslashtirilgan ovqatlanish korxonalarida 14.8 ming kishiga xizmat ko'rsatish imkoniyati vujudga keltirildi.

Kelajakda viloyatning shaxa rva qishloqlarida zamonaviy savdo markazlari, universam va universal do'konlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, omborxona va muzxonalar qurilishiga e'tibor beriladi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish xizmat doirasining tez rivojlanayotgan sohasidir. Hozirgi vaqtda viloyat aholisiga 1717 korxona maishiy xizmat ko'rsatmoqda. Bu korxonalarning 772 tasi shaharlarda, 945 tasi qishloqlarda joylashgan. Bu korxonalarga aholiga 22.1 mln.so'mlik maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari ishlab chiqarish tarmoqlariga buyurtmalar bo'yicha kiyim-kechak va poyafzal tikish hamda ta'mirlash, televizor, radio, muzlatgich, kir yuvish mashinalari va transport vositalarini ta'mirlash, mebel, metall buyumlar, trikotaj buyumlarni ishlab chiqarish, kiyimlarni ximiyaviy yo'l bilan tozalash, xonadonlarni ta'mirlash punktlari kiradi. Sartaroshxona, hammom, rasmxona va Kir yuvadigan punktlar aholiga xizmat ko'rsatishning noishlab chiqarish sohalaridir.

Maishiy xizmat doirasining rivojlanishi avvalo aholi pul daromadining ko'payishi, ijtimoiy ishlab chiqarishga xotin-qizlarning jalb qilinishi hamda tabiiy-iqlim sharoitlari bilan ham bog'liqdir. Jumladan uy ishlari bilan band bo'lgan xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilinishi maishiy xizmatga bo'lgan talabni orttiradi. Shu sababli keyingi vaqtda nomoddiy ishlab chiqarishning o'sishida maishiy xizmatning ham salmog'i ortib bordi. Keyingi yillarda viloyatda aholining moddiy turmush darajasining o'sishiga bog'liq holda kvartiralar, shaxsiy mashinalarp, uy-ruzg'or asboblarni ta'mirlash, buyurtmalar asosida mebel, metall buyumlar tayyorlash, kiyim va poyafzallar tikish, ta'mirlash kabi xizmat turlari ko'paydi.

Qashqadaryo viloyatida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hali ancha past darajada. Masalan, 1990 yilda barcha aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi jon boshiga o'rtacha 15.01 so'mga teng bo'lsa; qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish 12.22 so'mga teng bo'ldi. O'zbekistonda bu ko'rsatkichlar 20.78 va 15.72 so'mga to'g'ri keldi. Qashqadaryo shahar aholisi jon boshiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha viloyatlar orasida 12chi, qishloqlar bo'yicha 9chi o'rinda turadi. Qishloq aholisiga maishiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash shuning uchun ham muhimki, aholining asosiy qismi qishloq joylarida yashaydi. Lekin qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatishning rivojlanmaganligiga, avvalo qishloqlarning tarqoq holda joylashganligi hamda xizmat turlarining haddan tashqari xilma-xilligi ham halaqit beradi. Shuning uchun barcha jamoa va davlat xo'jaliklarining bosh qo'rg'onlarida kompleks qabul punktlari yaratish zarur. Bunday punktlar tuman markazidagi maishiy kombinatlarga yoki ixtisoslashtirilgan korxonalarga buyurtmalarni jo'natib turadi. Shu bilan birga ba'zi bir ishlarni mutaxassislar tomonidan ko'chma brigadalarda ham bajarilishi mumkin.

1980-1990 yillarda viloyatda aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning moddiy texnika bazasi mustahkamlandi. Shahar va tuman markazlarida zamonaviy maishiy xizmat ko'rsatish uylari, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish kichik korxonalari, shaxsiy mashinalarni, murakkab uy-ruzg'or asboblarni ta'minlaydigan ustaxonalar, kiyimlarni ximiyaviy tozalash markazlari, Kir yuvish xonalari, hammomlar qurildi. Natijada aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi bu yillarda 2.5 martadan ko'proqqa o'sdi.

Aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish. Xalq ta'limi, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalarida amalga oshiriladi. Bu xizmat sohasi-mehnatkashlar hayotida muhim bo'lib, u kishilarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishda ahamiyati kattadir.

Ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlari ichida xalq ta'limi tizimi katta ahamiyatga egadir. Ma'lumki, ilgari Qashqadaryo viloyati va O'zbekistonda eski maktab va madrasalar mavjud bo'lgan. Savodsizlikni tezroq tugatish maqsadida 1922 yilda Qarshi shahrida 2 ta maktab tashkil etildi. 1924-25 o'quv yilida hozirgi Qashqadaryo hududida 12 ta maktab va 10 savodsizlikni tugatish punktlari tashkil etilib, ularda 667 bola ta'lim va tarbiya olgan.

Butun O'zbekiston kabi Qashqadaryoda ham aholining savodxonlik darajasini ko'tarish sohasida ancha ishlar qilindi. 1932 yili majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilingach Qashqadaryoda ham umumiy majburiy

ta'lim amalga oshirila boshlandi, yetti yillik maktablar va ularda ta'lim oluvchi o'quvchilarning soni ortdi. 1940-41 o'quv yilida 470 maktabda 102.6 ming o'quvchi tahsil ko'rdilar.

Urushdan keyingi davrda butun O'zbekiston kabi Qashqadaryoda ham xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish, xalq maorifi tizimini yanada yuksaltirish imkoniyatlari vujudga keldi. 1960-61 o'quv yilidayoq 574 umumiy ta'lim maktablarida 96 ming o'quvchi bilim oldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktablarning moddiy bazasi yaxshilandi, o'quv jarayonida texnika ta'limi joriy qilindi, ko'pgina maktablarda dars berishning kabinetlashgan tizimiga o'tildi. O'quvchilarga kasb-hunar o'rgatiladigan o'quv ustaxonalari tashkil etildi.

Umumiy ta'lim maktablari sonining o'sishi Bilan maktabdan tashqari muassasalar soni ham ko'payibbordi. 1954 yili viloyatda yosh texniklar, tabiatshunoslar va sayyohlar stantsiyalari ochildi. Mavjud 31 maktabdan tashqari muassasalarda 4700 o'quvchi ta'lim-tarbiya oldi.

1990-91 o'quv yilida viloyatdagi 837 umumiy o'rta ta'lim maktabda 428.9 ming, 40 hunar-texnika bilim yurtida 14.2 ming, 9 maktab internatda 1847 nafar o'quvchi ta'lim olishdi. Hozirgi paytda 70 maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya muassasalarida 27.5 ming nafar o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiya olishmoqda, hunar o'rganishmoqda.

1925 yili Qashqadaryo viloyatida birinchi bolalar bog'chasi ochilgan edi. Hozir viloyatda 175 ta maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida 76.3 ming nafar bola tarbiyalanmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni kasb va hunarga o'rgatish, mehnatga tayyorlashda viloyatimizda 37.4 ming nafar muallim va ishlab chiqarish ustalari murabbiylik qilishmoqda.

Inqilobga qadar Qashqadaryo viloyatida bironta o'rta maxsus bilim va oliy o'quv yurti yo'q edi. Hozirgi vaqtda viloyatda 10 ta o'rta maxsus o'quv yurti, Qarshi davlat universiteti, dehqonchilik-iqtisodiyot instituti, Toshkent texnika dorulfununing filiali xalq xo'jaligini turli sohalari uchun o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlab bermoqda.

Aholiga madaniy-oqartuv xizmati ko'rsatish ijtimoiy-madaniy xizmatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ham viloyatda kutubxonalar, klublar, madaniyat va istirohat bog'lari tashkil etishga kata e'tibor berilmoqda. 1926 yildayoq viloyatda kitob jamg'armasi 23.4 ming nusxadan iborat bo'lgan 19 kutubxona, 9 klub va 4 kino qurilma xalq xizmatida bo'ldi. 1988 yilda barcha kutubxonalar soni 593 taga yetdi va ulardagi kitob jamg'armasi 5.8 mln.nusxadan oshib ketdi.

Klub muassasalari va kino qurilmalari soni ham ancha ko'paydi. 1988 yilda viloyatdagi barcha idora va tashkilotlarga qarashli klublar soni 309 taga, kino qurilmalarning soni esa 471 taga yetdi. Shuningdek, Mulla Tuychi Toshmuhammedov nomidagi viloyat muzikali drama teatri, Qamashi tumanining "Bo'ston" xalq raqs ansambli, Shahrisabz tumanidagi G'ani Boboyorov nomli jamoa xo'jaligining "SHodiyona" xalq raqs ansambli, 21 shahar, 15 qishloq madaniyat uylari viloyat aholisiga madaniy xizmat ko'rsatmoqdalar.

So'ngi yillarda muzey ishlari ham birmuncha yaxshilandi. "O'lkani o'rganish", Qarshi cho'lini o'zlashtiruvchilarga bag'ishlangan va Ch.Begimqulov nomidagi muzeylar tashkil etildi. Aholining madaniy taraqqiyoti va una madaniy xizmat ko'rsatish darajasi viloyatda nashr etilayotgan ro'znomalar, kitoblarning nashri va tiraji, radio televidenie, teatr, muzey xizmatlaridan foydalanish bilan belgilanadi. Hozirgi kunda viloyatda "Qashqadaryo haqiqati", "Kashkadarinskaya pravda", 13 tuman va "CHO'l o'lkasi" kabi ko'p tirajli ro'znomalar, "Nasaf" nashriyoti orqali kitoblar nashr etilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari bo'lgan radio va televideniedan hozirgi paytda deyarli har bir xonadon bahramand bo'lmoqda. Yuqoridagi barcha madaniy oqartuv muassasalari aholini har tomonlama barkamol tarbiyalash ishiga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash aholining keng doirasi foydalanadigan turlaridan biridir. Ma'lumki, o'tmishda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish og'ir ahvolda edi. 1920 yilga qadar Qashqadaryoda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadagin yagona 35 o'rinli shifoxona bo'lib, u faqat harbiylar, rus ma'murlari, bosh va savdogarlar uchun xizmat qilar edi. Natijada aholi o'rtasida vabo, chechak, terlama kabi og'ir kasalliklar keng tarqalgan edi, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati atigi 34 yoshni tashkil etar edi.

1924 yilda Qashqadaryo ijroiya komiteti qoshida sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etildi. 1924-25 yillarda viloyatda 2 ta shifoxona bo'lib, unda atigi 2 vrach, 5 hamshira, 1 akusher, 5 sanitar-tarjimon xizmat qilardi. 1924 yilda har 100 ming kishiga bitta vrach, har 40 ming kishiga bitta hamshira to'g'ri kelardi.

1927-28 yillarda aholiga tibiiy xizmat ko'rsatishningsh kengayishi va vrachlar sonining ortishi tufayli Qarshi shahar shifoxonasida 20 o'rinli ichki kasalliklar, 22 o'rinli jarrohlik, 5 o'rinli ginekologiya, 4 o'rinli tug'ruq, 10 o'rinli yuqumli kasalliklar, 9 o'rinli ko'z kasalliklari bo'limlari tashkil etildi. 1951-52 yillarda shahar va tuman poliklinikalarida rentgen

kabinetlari hamda Qarshi shahrida maxsus psixonevrologiya (ruhiy-asab) kasalliklari dispanseri ochildi. 1940 yilda shahar va qishloqlarda sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari tashkil etilib, ularga asosan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, shahar va qishloqlarning sanitariya holatiga ahamiyat berish kabi vazifalar yuklanadi.

1960-1980 yillarda Qarshi shahrida va Shahrisabz, Koson, Yakkabog' hamda Chiroqchi tumanlarining markazlarida bolalar shifoxonalari ochildi. 1973 yilda viloyatda jami 29 ta xotin-qizlar va bolalar maslahatgohlari aholi xizmatida bo'ldi.

Hozirgi vaqtda viloyat aholisiga 5 mingga yaqin vrach, 17 ming o'rta tibbiyot hamshiralari xizmat ko'rsatmoqdalar. Viloyatda aholiga tibbiy xizmatni tashkil etishda 37 ming kishi band. Viloyat aholisi uchun 116 shifoxona, 19570 o'rinli 286 ambulatoriya-poliklinika, davolash muassasalari, 18 dispanser, 17 sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari va 670 feldsher-akusherlik punktlari xizmat qilmoqda. So'nggi paytlarda ixtisoslashgan revmokardiologiya, onkologiya, travmatologiya, endokrinologiya, ko'p tarmoqlari bolalar shifoxonalari va viloyat tashxiya markazi tashkil etildi.

Viloyatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida keyingi yillarda shifoxonalar va profilaktoriy-sanatoriylar qurish yuqori sur'atlar bilan olib borildi. Lekin Qashqadaryo viloyatida har 10000 kishiga vrachlar, o'rta ma'lumotli tibbiy xodimlar, shifoxonadagi joylar soni respublika ko'rsatkichlaridan past. 1988 yilda O'zbekistonda har 10000 kishiga 35,1 vrach, 104,4 o'rta maxsus ma'lumotli tibbiy hamshira, 120,8 joy (koyka) to'g'ri keladi. Qashqadaryoda esa bu ko'rsatkich 26,6, 93,3, 107,7 ga teng. Buning asosiy sababi Qashqadaryo viloyatida bironta ham oliy tibbiyot bilimgo'hrining yo'qligi, aholi tibbiy va migratsiya hisobiga tez o'sayotganligidadir.

7-MA'RUZA. Viloyatning qishloq xo'jaligi

Reja:

- 1.Qishloq xo'jaligiga ta'rif. Yer fondi va undan foydalanish.
- 2.Viloyat dehqonchiligining asosiy tarmoqlari.
- 3.Chorvachilikning viloyat iqtisodiyotidagi ahamiyati.
- 4.Agrosanoat majmuasini rivojlantirish muammolari.

Viloyat iqtisodiyotining agrosohasi asosan paxta, g'alla va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Umumiy ekin maydoni 2000 yil ma'lumotlariga ko'ra, 461 ming ga bo'lib, u respublika ekin ekiladigan yerlarning 12.2 foizini tashkil qiladi.

Jami ekin maydonidan 202 ming gektari g'alla (bu jihatdan viloyat mamlakatda 1-o'rinda), 150 ming gektari paxta, 4.1 ming gektari kartoshka, 10.6 ming gektari sabzavot , 55 ming gektari yem-xashak yetishtirishga ajratilgan. Bir yilda viloyatda, ob-havo sharoitiga qarab, 300-500 ming tonna g'alla (res-zda 3.9-4.0 mln tonna), 265-380 ming tonna paxta, 140-160 ming tonna turli sabzavot mahsulotlari olinadi. Shuningdek, bu yerda 38-40 tonna meva, 45 ming tonna atrofida uzum ham yetishtiriladi. Bulardan tashqari, viloyatda kungaboqar, tamaki, zig'ir kabi qishloq xo'jalik ekinlari ham mavjud.

Umumiy ekin maydoni 3775 ming gektar, shundan g'alla 1612, paxta 1444, kartoshka 52, sabzavot 94, poliz ekinlari 36, yem-xashak 128 ming gektar. 2000 yilda olingan hosil; g'alla 3116 ming tonna (shundan bug'doy 3352), kartoshka 729, sabzavot 2637 va paxta 3002 ming tonna.

Qashqadaryoda yirik shoxli mollar soni 580 ming bosh (O'zbekistonda 2-o'rinda), qo'y va echkilar-1.9 million bosh (1-o'rin). Bir yilda 110 ming donaga yaqin qorako'l terisi, 1.8-1.9 ming tonna pilla yetishtiriladi. Pillachilik sug'orma dehqonchilik rayonlarida, yaylov, jungo'sht chorvachiligi asosan cho'l mintaqasida rivojlangan.

Viloyat agrosohasining hududiy tarkibida Chiroqchi, Kasbi tumanlari yetakchi o'rinlarda ular birgalikda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan 1/5 qismidan ko'prog'ini ta'minlaydi. Bu borada Qamashi, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Koson tumanlarida ham vaziyat yaxshiroq. Ayni chog'da Muborak va Mirishkor tumanlarida qishloq xo'jaligi birmuncha sust rivojlangan.

Qashqadaryo qiloyatining milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqda yalpi mahsulotning asosiy qismi yaratiladi.

O'zbekistonda yetishtiriladigan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 10,%i, jumladan paxtaning 10,6%, pillaning 7%i, qorako'lining 19%, junning 16%, g'allaning 11,1% i Qashqadaryo viloyatining ulushidir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun tabiiy sharoit qulay. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, sovuqsiz davr 210-242 kunni, ijobiy temperaturalar yig'indisi 4760-5200 gradusni tashkil etadi. Viloyat ancha katta yer resurslariga ega. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan yerlar 2194 ming ga bo'lib, shundan 698,3 ming gektari haydalgan yerlardir, 449 ming gektarida sug'orilib deqonchilik qilinadi. Qolgan 1430,8 ming ga. maydondan yaylovlar sifatida foydalaniladi.

Viloyatdagi aksariyat (davlat va jamoa) xo'jaliklar asosan paxtachilikka, shuningdek donchilik, meva va uzumchilik, sutchilik, sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgandir.

Viloyatdagi davlat va jamoa xo'jaliklari zamonaviy texnika bilan yetarli darajada qurollangan. 1926-27 yillarda viloyat dalalarida 30 traktor, 1950 yilda 707 traktor va yuk avtomobili ishlagan bo'lsa, 1988 yilga kelib kolxoz va sovxozlarda 19,5 ming traktor, 4190 paxta terish mashinalari va 1335 g'alla o'rish kombayini va boshqa qishloq xo'jalik texnikasi bo'lgan. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi oshdi, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligi ko'tarildi, yalpi va tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sdi.

Dehqonchilik viloyat qishloq xo'jaligida bosh tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida olinayotgan yalpi mahsulotning 70%i dehqonchilikdan keladi. Tuproqning unumdorlik darajasi hosildorlikka ta'sir ko'rsatadigan asosiy omildir. Shuning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va uning unumdorligini oshirish muhim agronomik tadbir hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori katta ahamiyatga ega. Viloyatda sho'rlangan yerlarning xarakteriga qarab kuzgi-qishki ishlar bilan birga yaxob suvini vaqtida berish katta iqtisodiy samara bermoqda. Mexanik tarkibi jihatidan og'ir bo'lgan soz tuproqlarda Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlari xo'jaliklarida yaxob suvlarni yanvar-fevral oylarida beriladi. Mexanik tarkibi o'rtacha va yengil bo'lgan tuproqlarda yaxob suvi mart-aprel oylarida, ekishdan 10-15 kun oldin beriladi. Bunday sug'orish viloyatning cho'l rayonlarida ham olib boriladi. Chunki yaxob suvi erta berilsa, ekish vaqtiga kelib tuproqning ustki qatlami qurib qoladi. Dehqonchilikda mineral va mahalliy o'g'itlarni ishlatish o'simliklarni yaxshi oziqlanishi va normal o'sishiga, mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Dehqonchilikda almashlab ekishning

roli ham katta. Viloyatda paxtakor xo'jaliklarda almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish paxta hosilini oshirdi, jamoa chorvachiligi uchun mustahkam yem-xashak bazasini yaratish imkoniyatini berdi. Paxta asosan beda bilan almashlab ekilmoqda. Chunki beda o'stirilgan tuproqda juda ko'p miqdorda chirindi bo'ladi.

Viloyat dehqonchiligida paxta, don yetishtirish, meva va uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari, xashaki ekinlar asosiy tarmoqlarni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish (ming tonna hisobida)

	O'rtacha 1 yilda			
	1971-1975y.	1976-1980y.	1981-1985y.	1990y.
Don	139,5	331,8	310,3	188,8
Paxta	328	464	448	522
Kartoshka	4,3	8,6	12,4	8,6
Sabzavot	54,8	137,8	159,7	127,7
Poliz	28,5	56,0	67,8	56,0
Meva va rezavor meva	21,4	42,7	44,8	49,6
Uzum	20,4	35,1	45,3	59,2

Viloyatda don yetishtirish 1971-1975 yilga nisbatan 1990 yilda 2,2 marta, paxta 1,7 marta, kartoshka 2 marta, sabzavot 2,3 marta, poliz 2 marta, meva va rezavor meva 2,3 marta va uzum yetishtirish 2,4 marta ko'paydi.

Donli ekinlar. Viloyat dehqonchiligida donli ekinlarning ahamiyati juda katta. Ular oziq-ovqat sanoatida va chorva mollari uchun lzuqa tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Donli ekinlarga bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa, jo'xori, tariq, sulii va javdar kiradi. Qashqadaryo viloyatida donli ekinlardan eng ko'p bug'doy arpa va makkajo'xori ekiladi.

Qashqadaryo viloyatida 1990 yilda 251,4 ming ga maydonda don ekilib, yalpi hosili 288,8 ming t., hosildorlik 11,5 ts.ni tashkil etdi. Bug'doyning "Krasnaya vodopadskaya-210", "Tez pishar 512", "Surxak-5688", "Unumli bug'doy", arpaning "Boychechak", "Unumli arpa", "Karshinskaya" navlari ekiladi. Don yetishtirishga ixtisoslashgan ilg'or xo'jaliklardan Qamashi tumanidagi "G'allakor" nomli davlat xo'jaligi 1989

yilda 12,1 ming ga yerdan 22 ming t.don olib, hosildorlikni 18,3 ts.ga Chiroqchi tumanidagi Oxunboboev nomli davlat xo'jaligi 19,5 ming ga yerdan 25,6 ming t.don olib, hosildorlikni 13 ts.ga yetkazdi. Bug'doy asosan viloyatning lalmikor yerlarida yetishtiriladi. Sug'oriladigan yerlarda don hosildorligi lalmi yerlarga nisbatan 2-3 hissa ortiqdir. Masalan, 1989 yilda Qamashi tumanidagi "To'qboy" jamoa xo'jaligi 60 ga yerdan 52 ts. Yakkabog' tumanidagi Amir Temur nomli jamoa xo'jaligi 106ga yerdan 46 ts. dan hosil oldi.

Makkajo'xori serhosil donli ekindir. Undan oziq-ovqat sanoati uchun don olinishi bilan bir vaqtda chorva mollari uchun ko'k massa, yem va silos tayyorlanadi. Makkajo'xori viloyatning deyarli barcha xo'jaliklarida ekiladi.

Paxtachilik. Paxta yetishtirish viloyat dehqonchiligining asosini tashkil etadi. Dehqonchilikda daromadning asosiy qismi paxtachilikdan keladi. Viloyatdagi aksariyat davlat va jamoa xo'jaliklari paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. 1990 yilda viloyatda 220,3 ga maydonda paxta ekilib, 522,5 ming tonna hosil olindi, hosildorlik 23,7 ts.ni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyati yalpi paxta mahsuloti bo'yicha O'zbekistonda birinchi, ingichka tolali paxta yetishtirish bo'yicha esa Surxondaryo viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Viloyatning Nishon, Kasbi, Koson, U. Yusupov hamda Qarshi tumanlarida 300 ming tonnadan ortiq paxta yetishtirilmoqda. Kitob, SHahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi tumanlarida o'rtacha tolali paxta navlaridan yuqori hosil olinmoqda. O'rta tolali paxtaning "108-F", "Yulduz", "AN-410", "Toshkent-3" navlari ekilmoqda. Ingichka tolali paxta cho'l zonasida Kasbi, Muborak, U. Yusupov, Nishon hamda Koson tumanlarining xo'jaliklarida ekilmoqda. Ingichka tolali paxtaning "Termiz-16", "Buxoro-6", "Qarshi-8" navlari ekilmoqda. Paxta asosiy texnika ekini bo'lib, 100 kg paxtadan o'rtacha 33-35 kg paxta tolasi, 55-57 kg chigit, 5-8 kg paxta chiqiti olinadi. 1 kg paxta tolasidan 10-12 m.chit ishlab chiqariladi. 100 kg chigitdan 19 kg yog', 47-48 kg kunjara ishlab chiqiladi. Keyingi yillarda paxtaning yalpi mahsuloti intensiv dehqonchilik xo'jaligi asosida ko'paymoqda. Viloyatda paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirilishi natijasida meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan brigadalar, zvenolar tashkil qilinmoqda, aholiga shaxsiy tomorqalar berilmoqda. Qashqadaryo kelajakda ham O'zbekistonning asosiy paxta yetishtiruvchi viloyati bo'lib qoladi.

Kartoshkachilik. Qashqadaryo viloyatida 1,5-2 ming ga maydonda kartoshka ekiladi. O'rtacha har yili 10-15 ming tonna hosil yetishtirilib, hosildorlik 60-70 ts.ni tashkil etmoqda. Kartoshka tarkibida sifatli oqsil va vitaminlar bo'lganligi uchun muhim oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Sanoatda kartoshkadan spirt, kraxmal, glyukoza va boshqa mahsulotlar olinadi. Kartoshka Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' tumanlarining tog' mintaqasida ixtisoslashgan xo'jaliklarida ekiladi. Yetishtirilgan kartoshka viloyat aholisini kartoshkaga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Ilg'or agrotexnikani joriy qilinishi natijasida hosildorlik keyingi yillarda bir qadar oshmoqda. Kartoshka ekish muddatiga qarab erta pishar (70-80 kunda), o'rta pishar (90-100 kunda) va kech pishar (110-120 kunda) navlarga bo'linadi. Viloyatda kartoshkaning erta pishar navlari ekiladi. Bu navlar fevral oyining ikkinchi yarm i va mart oyining boshlarida ekiladi. Kelajakda kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarni sonini ko'paytirish, yuqori hosildorlikka erishish zarur.

Meva va uzumchilik. Viloyatda meva va uzum yetishtirishni ko'paytirishning asosiy yo'li meva va tok ekiladigan maydonlarni kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirishdan iborat. Meva-uzum tarkibida kishi organizmi uchun juda zarur bo'lgan qand, organik kislotalar, oqsil, yog', mineral tuzlar, vitaminlar va boshqa moddalarmavjud. Meva, rezavor-meva va uzum mazali hamda shirin bo'lganidan ovqatni yaxshi hazm bo'lishiga yordam beradi. Qashqadaryo viloyatida mevazor bog'larning maydoni 20 ming ga (1989 yil) bo'lib, shundan 10,5 ga dagi mevazor bog'lar hosil bermoqda. Tokzorlarning maydoni 13,1 ming g. shundan 85 ming gektari hosil beradi. Viloyat respublikada yetishtiriladigan mevaning 11% ni, uzumning 8% ni beradi va meva yetishtirishda Surxondaryo, Andijon, Buxoro viloyatlaridan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Kitob tumanidagi Navoiy, "Varganza", "Palandara", "Zarafshon", "Qishliq", Shahrisabz tumanidagi Karl Marks, "Moskva", Yakkabog' tumanidagi "Yakkabog'", "Turon", "Qizil-suv", Qarshi tumanidagi Temir Mirzaev nomli davlat xo'jaliklari meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan.

Meva va uzumchilik asosan viloyatning tog'li xo'jaliklarida yaxshi rivojlangan. Qashqadaryo serishira uzum, qora anjir va orombaxsh anori bilan mashhur. Kitob tumanida anor yetishtirishga ixtisoslashgan "Varganza" davlat xo'jaligi mavjud. Bu xo'jalik anori nafaqat O'zbekistonda, balki undan tashqarda ham mashhur.

Sabzavotchilik va polizchilik. Insonning kundalik iste'molida va oziq-ovqat sanoatida sabzavotning ahamiyati katta. Sabzavot ekinlari tarkibida uglevodlar, oqsil, organik kislotalar, mineral tuzlar, vitaminlar, qand va boshqa moddalar bo'ladi. Qashqadaryo viloyati bo'yicha 1990 yilda 7,7 ming ga maydonda sabzavot ekilib, 127,7 ming tonna hosil olindi, hosildorlik 164,3 ts.ni tashkil etdi. Sabzavot ekinlaridan karam, pomidor, bodring, sabzi, piyoz va turli xildagi ko'katlar ko'p ekiladi.

Poliz ekinlariga qovun, tarvuz va qovoq kiradi. Viloyat bo'yicha 8,3 ming ga maydonda poliz ekinlari ekilib, 45,8 ming tonna hosil olindi, hosildorlik 54,8 ts.ni tashkil etdi. Poliz ekinlari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan uglevodlar va qandning ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Qashqadaryo qovun-tarvuzi o'zining shirinligi bilan qadimdan nom chiqargan. Tarvuzning "Qo'ziboy", "Hayirtqora", "Samarqand", qovunning "Amiriy", "SHakarpalak", "Qoraqand", "Umirvoqi", "Ko'kcha", "Qariqiz" navlari ekiladi. Viloyatda sabzavot va poliz yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar talaygina. Nishon tumanidagi "SHirinobod" davlat xo'jaligi poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar ichida salmoqli o'rin tutadi.

Xashaki ekinlar. Xashaki ekinlar ham viloyat dehqonchiligida yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, ular qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun xilma-xil to'yimli ozuqa hisoblanadi. Viloyatda 3,9 ming ga maydonda (1990 yil) yem-xashak ekinlari ekildi. Xashaki ekinlardan yo'ng'ichqa, sulii, ARPA, tariq, raps va xashaki lavlagi ekiladi. Xashaki ekinlar yetishtirishni ko'paytirmasdan turib, chorvachilikni ozuqa bazasini mustahkamlash va uni rivojlantirish mumkin emas. Xashaki ekinlar tuproqni chirindi bilan boyitadi, uning suv va havo o'tkazish qobiliyatini oshiradi, fizikaviy xossalarini yaxshilaydi, mikrobiologik faoliyatini kuchaytiradi. Xashaki ekinlardan silos, senaj tayyorlanadi, mevasi va poyasi yanchilib, un tayyorlanadi, ildizi chorva mollariga ozuqa sifatida beriladi. Viloyatda Dehqonobod nohiyasidagi Hamid Olimjon nomli, "Oqbosh", Oybek nomli Ibn Sino nomli va "Boshcharbog'" davlat xo'jaliklari beda urug'i yetishtirishga ixtisoslashgan. Bedaning "Toshkent-1", "Toshkent-1728" navlari ekilmoqda.

CHorvachilik. Viloyat qishloq xo'jaligining dehqonchilikdan keyingi tarmog'i bo'lib, aholini sut, go'sht, tuxum, baliq kabi oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni esa jun, qora ko'l teri, ipak va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Viloyatda chorvachilikni yanada rivojlantirish qishloq xo'jaligi oldida turgan birinchi galdagi vazifalardan biridir. Buning uchun

chorvachilikni mustahkam yem-xashak bazasini barpo qilish va yem-xashakdan to'g'ri foydalanish, barcha turdagi chorva mollari, shuningdek parrandalar sonini ko'paytirish, mahsuldorlikni oshirish lozim.

Hozirgi paytda viloyat O'zbekistonda yetishtiriladigan go'shtning 8,2%ini, sutni 8,6%ini, junning 16%ini va qorako'l terining 19%ini yetkazib bermoqda. Viloyatda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish yildan-yilga ortib bermoqda.

12-jadval

Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish.

	O'rtacha 1 yilda			
	1971-1975	1976-1980	1981-1985	1990
Go'sht (ming t)	23,3	27,0	35,3	48,2
Sut (ming t)	137,2	172,0	208,6	271,3
Jun (t.)	2399	3020	3551	4833
Tuxum (mln dona)	70,8	68,6	112,4	149,6
Pila (t.)	1424	1934	2181	2910

CHorvachilik fermalarining mexanizatsiyalashtirilishi va avtomatlashtirishi, fermer xo'jaliklarning rivojlantirilishi chorvachilik mahsulotlari ko'payishiga olib keladi.

CHorvachilikni rivojlantirish avvalo chorva tuyog'ini ko'paytirish, uni parvarish qilishni yaxshilash, mahsuldor zotlarni yaratish, yem-xashak bazasini mustahkamlash va chorva mollarini to'yimli ozuqalar bilan ta'minlash kabi tadbirlar bilan bog'liq. Go'sht va sut mahsuloti yetishtirishni ko'paytirish avvalo xo'jaliklardagi mollar zotini yaxshilashga va ularni boqish sharoitiga uzviy bog'liqdir. Chorvachilikni ixtisoslashtirish chorva mollari tuyog'ini ko'paytirishni tezlashtiradi va chorvachilikning ko'pgina sohalarida ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish uchun zamonaviy texnika bilan qurollantirish imkonini beradi. Chorvachilikni rivojlantirish jamoa chorvachiligini, shuningdek aholi ixtiyoridagi shaxsiy mollarni ko'paytirish, yem-xashak bilan ta'minlashga ham bog'liq.

Qoramolchilik. Viloyat chorvachiligida qoramolchilik yetakchi tarmoq bo'lib uning umumiy chorva mahsulotlari hajmida go'sht va sut yetishtirishdagi ulushi katta. Jami qoramollarning soni 400 ming boshga yaqin bo'lib, O'zbekistonda qoramollarning soni jihatidan Farg'ona viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Go'sht va sut yetishtirishni

ko'paytirishda viloyat xo'jaliklarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kontsentratsiyalash va kooperativlashtirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Qoramolchilik ikki yo'nalishda sut va sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Qarshi tumanidagi "Mang'it", Qamashi tumanidagi "Rassvet" jamoa xo'jaligi go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan yirik xo'jaliklar hisoblanadi.

Sut-go'sht yetishtirishga Kasbi tumanidagi Alisher Navoiy nomli, Qarshi tumanidagi "Nasaf", Nishon tumanidagi Usmon Yusupov nomli davlat xo'jaliklari ixtisoslashgan. Bu xo'jaliklarda "Qizilcho'l(Krasnostepnoy) " , "Simmental" zotli qoramollar boqiladi. Qoramolchilikni rivojlantirish yem-xashak yetishtirishni ko'paytirish, ularning to'yimlilikini oshirishni talab qiladi. Yem-xashak yetishtirishdagi asosiy vazifa har gektar maydondan iloji boricha ko'proq arzon yem-xashak yetishtirish, ularni tayyorlashda, saqlashda nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Quychilik. Qashqadaryo viloyatida qo'ychilik ancha rivojlangan. Jun yetishtirish bo'yicha viloyat respublikada birinchi o'rinda, qorako'l teri yetishtirishda Samarqand viloyatidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Qarshi cho'li yaylovlarida o'tlatib boqish va asrash uchun yaxshi moslashgan qorako'l qo'ylari boqiladi. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti jahon bozorida yuqori baholanadigan qorako'l terisidir.

Viloyatning Muborak tumanidagi Muobrak, U.Yusupov tumanidagi G'ofur G'ulom nomli, Nishon tumanidagi Nishon, G'uzor tumanidagi G'uzor, Bahoriston tumanidagi O'zbekiston davlat naslchilik zavodlari qorako'lchilikka ixtisoslashgan yirik xo'jaliklardir.

Viloyatning tog'li va tog' oldi rayonlarida go'sht-yog' mahsuldorligi bo'yicha mashhur bo'lgan "Hisori" va "Jaydari" qo'ylarni zotlari boqiladi. Bu qo'y zotlari Kitob va Shahrisabz tumanlaridagi ixtisoslashgan xo'jaliklarda go'sht resurslarini yanada ko'paytirish maqsadida boqilmoqda.

CHO'chqachilik. Qashqadaryo viloyatida go'sht yetishtirish uchun 43,1 ming bosh cho'cha boqiladi. Viloyatda cho'chqachilikka ixtisoslashgan yirik xo'jalik Koson tumanidagi "Qorabayir" davlat xo'jaligidir. Bu xo'jalik har yili o'rtacha 1000 tonnadan ortiq cho'chqa go'shti yetkazib bermoqda. Bundan tashqari Shahrisabz tumanidagi Kalenin nomli jamoa xo'jaligida ham yirik cho'chqachilik firmasi mavjud bo'lib, har yili 400 t.ga yaqin cho'chqa go'shti yetishtirmoqda.

Yilqichilik. Viloyatda 3783 bosh (1990 yil) yilqi bor. Qashqadaryo qadimdan o'zining zotli otlari bilan dong taratgan. Qorabayir otlari to'g'risida Gamilton-Smit 1841 yilda Edinburg shahrida nashr qilingan "Otlar" kitobida shunday deb yozgan edi. "Qorabayir-zoti, u Samarqand va Shahrisabz atroflarida uchratiladigan juda qimmatli otdir". Yilqichilik viloyatda Yakkabog' tumanidagi "Hisor", Qamashi tumanidagi "Langar" nomli davlat xo'jaliklari ixtisoslashgan. Keyingi yillarda otlardan foydalanishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi formasi vujudga keldi.

Yilqichilik meditsina va veterinariya uchun shifobaxsh zardob va vaktsina tayyorlash uchun qon plazmasi yetkazib beradigan asosiy sohaga aylandi. Yilqilar sonining kamayishi natijasida viloyatimizning ko'pchilik xo'jaliklarida ishlatiladigan va miniladigan otlarga ehtiyoj sezila boshlandi. Yilqi qishloq xo'jaligida, geologik qidiruv ishlarida, ilmiy ekspeditsiyalarda foydalaniladi. Yilqi go'shti va sutidan sanoat korxonalarida qazi, shifobaxsh qimiz tayyorlanadi.

Parrandachilik. Chorvachilikning serdaromad tarmog'i bo'lib, u go'sht, tuxum, qush pati yetkazib beradi. Har yili parrandalar o'z vazniga nisbatan 5-6 martadan ortiq mahsulot beradi. Viloyatda 2,4 mln bosh (1989 yil) parranda bo'lib, har yili o'rtacha 125-1258 mln dona tuxum olinmoqda.

Qarshi parrandachilik fabrikasi, Qamashi broyler fabrikasi, Chiroqchi tumanidagi parrandachilik davlat xo'jaligi, Shahrisabz parrandachilik fabrikasi parranda mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklardir. Qarshi parrandachilik fabrikasi har yili o'rtacha 250 tonna parranda go'shti, 27 mln dona tuxum yetkazib bermoqda.

Ipakchilik va asalarichilik. Ipakchilik ham viloyatda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biridir. Viloyatda 1990 yili 2464 t.pilla yetishtiriladi. Qarshi tumanida viloyatda yagona ipakchilikka ixtisoslashgan davlat xo'jaligi tashkil qilingan. Bundan tashqari viloyatning ko'pchilik xo'jaliklaridap ipak qurti boqiladi. Ipakchilikning taraqqiyoti qurtning asosiy ozuqa manbai bo'lgan tutchilik bilan bog'liq.

Ipakchilik Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va Qarshi tumanlari bilan bir qatorda Qarshi cho'lidagi xo'jaliklarda ham jadal rivojlanmoqda.

Viloyat chorvachiligida asalarichilikning ham o'z o'rnini bor. Viloyat bo'yicha har yili o'rtacha 150-170 t.asal yetishtiriladi. Kitob tumanidagi "Kitob", Dehqonobod tumanidagi Ibn Sino nomli davlat xo'jaligi, Shahrisabz nohiyasidagi G'ani Boboyorov nomli jamoa xo'jaliklarida asalarichilik yetakchi tarmoq bo'lib, viloyatimizda olinadigan asalning katta qismi shu xo'jaliklarida yetishtiriladi.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda baliqchilik ham rivojlantirilmoqda. Chimqo'rg'on suv ombori va Qarshi tumanidagi baliqchilik xo'jaliklari viloyat aholisini tirik baliq bilan ta'minlab turibdi. Go'sht yetishtirishni ko'paytirishda baliqchilik tarmog'i katta rol o'ynaydi. Kelajakda viloyatda mavjud bo'lgan barcha suv omborlarida bu tarmoqni rivojlantirish zarur.

10-11 MA'RUZA. Qashqadaryo viloyatining ichki iqtisodiy rayonlari

Reja:

1. Yukori yoki Shaxrisabz mintaqasi
- Qo'yi yoki qarshi mintaqasi
- Oralik iqtisodiy rayonlari
- a) Shimoliy chiroqchi tumani
- v) Janubiy (Dexkonobod va Qamashi)

Qashqadaryo viloyatida eng avvalo 2 ta shakllanayotgan asosiy ichki iqtisodiy rayon ajratiladi. Quyi mintaka yoki qarshi mintakasi paxta va galla, chorvachilikka, neft gaz, tog' kon, xamda elektroenergitikaga ixtisoslashgan. Uning tarkibiga Qarshi shaxri, Qarshi, Koson, Nishon, Muborak, Koson, G'uzor, Mirishkor, Kasbi tumanlari kiradi.

Yukori yoki Shaxrisabz mintakasida kuyirok agrosanoat majmuasi rivojlangan. U Shaxrisabz, Yakkabog, va Kitob tumanlarini birlashtiradi. Bu ikki shakllangan rayonlardan tashkari Qashkadaryo geografiyasi M. Yangiboev yana ikki «Oralik» shimoliy (CHirokchi tumani) va janubiy (Dexkonobod va Qamashi tumanlari) rayonlarni xam ajratgan. Albatta bu yangi rayonlarda xududiy ishlab chikarish majmuasining shakllanishi kelajakda yuz berishi mumkin.

Ishlab chikarishni tugri joylashtirish va uning xududiy tashkil etishini takomillashtirishdan boshka muammolar xam dolzarbdir. Ular jumlasiga mexnat resurslari va reklartsiya boyliklaridan foydalanish, yokilgi-energitika va kurilish sanoati bazasini mustaxkamlash, transport va ijtimoiy instrukturani rivojlantirish muxim xisoblanadi. Kishlok sanoati va instrukturasini yaxshilash, axolini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash xam mintakaviy muammolar sirasiga kiradi.

Tabiiy gaz zaxirasiga eng boy bo'lgan viloyatda anashu yokilgi bilan ta'minlanganlik darajasining nixoyatda pastligi ayanchli xoldir. Mazkur kursatkich viloyat bo'yicha o'rtacha 55, 2 foizga teng, xolos. Dexkonobod, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog tumanlarida esa u yanada pastrok (ularning ba'zilarida mazkur kursatkich xatto 20 foizga xam yetmaydi) Dexkonobod tumanida toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan ikki barobar past.

Koson tumani

Qashkadaryo viloyatida joylashgan tuman. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Samarkand viloyati, Muborak, Qarshi, Kasbi tumanlari bilan chegaradosh.

Maydoni 1, 88 ming km. Axolisi 197,1 ming kishi (2003). Koson tumanida 1 shaxar (Koson) va 9 kishlok fukorolari (Bulmas, Guvalak, Gulbog, Dustlik, Koson, Obdida, Olchabob, Pulati, Tinchlik) bor. Markazi Koson shaxri

Tabiati. Koson tumani xududida asosan pasttekislik, adir va kir chullaridan bulib, Qashkadaryoning quyi kismida bo'lib, Qarshi cho'li zonasida, 450-500 m balandlikka joylashgan. Iklimi konbinental iklim. Iyulning o'rtacha temperaturasi 27-30, yanvarniki 0 dan, 1gacha. Vegitatsiya davri 210-240 kun. O'rtacha yillik yogin 190-200 mm, asosan baxor va kish oylarida tushadi. Orografik to'siklar yo'qligi sababli sovuq xavo oqimlari, asosan, Qish oylarida shimoliy-sharq tomonidan kirib keladi. Qashkadaryo Koson tumani bilan Kasbi tumani chegarasidan, Qarshi magistral kanali tuman xududidan oqib o'tadi. Tuprogi och tusli bo'z va bo'z tuproq, shuningdek takir, sho'rxox, qumloq, tuproqlar xam mavjud. Bu tuproklar aralash uchraydi. O'simliklardan sho'ra, shuvoq, kora sho'ra, yulgun, saksovul, isirik, oq chitir, kizil miya, oqbosh, o'sadi. Yovvoyi xayvonlardan tulki, kudi, tipratikan, toshbaka, kaltakesak, echkiemar, qum bo'g'ma iloni, chipor ilon bor. Qushlardan burgut, chumchuq, musicha, so'fito'rgay, kaptar, mayna uchraydi. Xashoratlardan biy, qoraqurt bor.

Axolisining aksari kismi o'zbeklar shuningdek tojik, rus, tatar, va boshka millat vakillari xam yashaydi. 1 km ga o'rtacha 105 kishi to'g'ri keladi. Shaxarliklar 58,5 ming kishi (2003)

Xo'jalikning asosiy tarmoqlari qishloq xujaligi, yengil sanoat, chorvachilik. Tumanda paxta tozalash zavodi avtokorxonalar, non kombinati, yog ekstraksiya zavodi, g'o'zapoyadankarton kogozi ishlab chikariladigan o'zbek-xitoy qo'shma korxonasi g'isht zavodi, kandolatchilik, va kulolchilik tsexlari, bosmaxona, Koson, Po'lati, Alatun dexkonbozorlari bor. 2 Qo'shma korxona, 67 kichik korxona, 2 kooperativi, 14 fermer xo'jalik uyushmasi, Yer ko'rg'on parrandachilik fabrikasi mavjud. Qishlok xujaligiga yarakli yerlar 144, 9 ming gektar, paxta 24,8 ming ga, galla 26,7 mingga, yerga ekiladi. tuman jamoa va shaxsiy xujaliklarida 45,7 ming koar mol, 196,3 ming kuy va echki, 10,9 ming parranda 100 ga yakin ot bokiladi. (2003)

Tumanda 93 umumiy urta ta'lim maktabi, 45,5 ming ukuvchi ta'lim oladi. 5 kasb xunar maktabi, 36 kutubxona, 12ta madaniy muassasa mavjud. 865 uringa muljallangan 8 kasalxona 274 vrach ishlaydi. Tugriqsona, poliklinika, dorixona bor. «Umid yulduzi» tuman gazetasi 1948 yildan chikadi. (adadiy 8200 dan ziyod).

Koson shaxri

Qashkadaryo viloyatidagi shaxar (1972 yildan) Koson tumanining ma'muriy markazi, viloyatining garbiy kismida. Karshi shaxridan 30 km, yaqin temir yul stantsiyasi Koson (4 km). Toshkent-Dushanbe temir yuli va karshi – Buxoro avtomobil yuli yokasida.

Kashkadaryoning o'ng soxilida, 350 metr baladlikda joylashgan. Yanvarning urtacha tepraturasi 00, iyulning 280 gradus. Axolisi 58,5 ming kishi. Kosonga Yakkabog- Muborak, suv kuviridan tarmok utkazilgan.

Koson urnidagi dastlabki kishlok milodning boshlarida vujudga kelgan, Yerkurgonda xayot tanazzulga uchragach, axoli bu yerga kuchgan. 4-5 asrlarda kal'a bunyod etilib atrofi mudofa devori bilvn urab olingan. U mugillar iste'losi davrigacha (13 asr boshi) mavjud bulgan. Mugillar iste'losidan avval Kosonning mudofa devori 3 marta ta'mirlangan bulib , kengligi 10 metrga yetgan. Arxeologik ma'lumotlarga kura Kosonda ancha vaktgacha xayot sunggan va yfakat 15-16 asrdangina kayta jonlangan. Karvon yulida bulgani uchun savdo va xunarmandchilik rivojlangan. 4-5 asrga oid mis tangalarda «Kosonning ulug shoxi» deb yozilgan sugdiycha bitik aniklangan.

Demak u shox karorgoxi bulgan. 16 asr 40 yillarida Shayboniylarga karshi Kosonda Bobomerak kuzgoloni sodir bulgan. 17 asrdan Ashtarxoniylar, 18 asr urtalaridan Buxoro amirligi tarkibida. 1685 yil Samarkand xokimligi Xujamkulubiy utarchi Xitoy- Kipchoklar kabilasiga tayanib, Kosonni egallab Nasaf viloyatini talon- taroj kilgan va bu bilan Anumaxonni Buxoro xonligiga bostirib kirishga imkon yaratib bergan. Antik manbalarda uchraydigan Ksixena viloyatining nomi Koson atamasining uzgargan shakli bulishi mumkin. Undagi «na» kushimchasini Sugdiyga «OB» ya'ni suv deb xisoblasa kadimda Qashkadaryodan chikarilgan kanal Kosonob ya'ni Koson daryosi deb atalgan buladi. Shaxarda paxta tozalash, g'isht zavodlari, g'o'zapoyadan karton qog'ozi ishlab chikaradigan O'zbek- Xitoy kushma korxonasi, yog' – ekstraktsiya zavodi, avtokorxona bor. Maxalliy sanoatga karashli kandolatpazlik va kulolchilik tsexlari faoliyat kursatadi. 10 ga yaqin umumta'lim maktabi,

kutubxona, madaniyat uylari, klublar, dorixona, poliklinika, 2- kasalxona, tugrikxona mavjud.

Koson bilan Buxoro, Qarshi, Muglon va tuman xujaliklari orasida avtobuslar katnaydi. Shaxarda 2- jaxon urushida xalok bulgan jangchilar xotirasiga yodgorlik urnatilgan.

Muborak tumani

Viloyatning shimoliy g'arbiy kismida joylashgan. 1978 yil 13 sentyabrda tashkil etilgan. Maydoni 3,07 km. Axolisi 63,5 ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek rus, tatar, turkman, arman, ukrain, ozarbayjon va boshka millatlar vakillari xam yashaydi. Axolining o'rtacha zichligi 1km 2 ga , 20,7 kishi (2005 yil) Tumanda 1 shaxar, (Muborak), 4 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi – Muborak shahar.

Qashkadaryoning kuyi kismida, Qarshi Chuli zonasida joylashgan.Yer usti tekislik, adir va kirlardan iborat. Iklimi kurik kondinental. Tuman xududidan kashkadaryo okib o'tadi.

Xududdan neft kaz konlari topilgan. (janubiy Muborak, shimoliy Muborak) Muborak –Zirabulok, Muborak-Kogo, Muborak –Navoiy gaz uzatish kuvurlari ishlab turibdi. Tabiiy gazni kayta ishlash zavodi bor. «Muborakneftgaz» korxonasi va unga karashli Zevardi, Kukdumalok, Alan, O'rtabulok, Kultok, Pomuk, Shimoliy Urtabulok, Kurik kabi gaz konlari faoliyat ko'rsatadi. Ko'shma 850 dan ziyod kichik va xususiy korxona, 16 aktsiyadorlik jamiyati mavjud.

Kishlokda paxtachilik , gallachilik va chorvachilik yetakchi urinda . Tumanda fermer dexkon xujaliklari 6 fermer uyushmasi, xamda nasilchilik va korakulchilikka ixtisoslashgan xujalik bor.sugoriladigan maydonlarga paxta, galla, sabzavot va poliz,em-xashak ekinlari ekiladi, 142 ga gektar maydonli boglar ekilgan. Tuman jamoa va xususiy xujaliklarida koramol, kuy va echki, parrandasida bokiladi.

30 umumiy ta'lim maktabi, sanoat kasb-xunar maktabi bor. 9 jamoat kutubxonasi, 3 klub muassasasi, 2 yoshlar klubi mavjud 2001 yildan «Yangi asr» temistudiyasi ishlab turibdi, yoshlar sport majmuasi, tennis korti, markazi stadion va futbol maydonlari faoliyat kursatadi. Tuman markaziy kasalxonasi va uning 12 bulimi kishlok vrachlik, feldmer-akumerlik punkidlari xamda bulib tibbiy muassasalar axolisiga xizmat kursatadi. Tuman xududidan temir yul utgan . muborak –Koson, Muborak –Karshi, Muborak –Buxoro va boshkalar yunalishlarda avtobuslar katnaydi. 1980 yildan «Muborak xayoti» tuman gaz chikariladi.

Dexkonobod tumani

Viloyatning janubiy sharqiy kismida joylashgan. 1926 yil 29 seryabrda tashkil etilgan 1962 yil 24 dekabrda Guzor tumani bilan birlashtirilgan. 1971 yil 31 avgustda kayta tuzildi. Maydoni 4, 0 ming km. Axolisi 106, 9 ming kishi, asosan uzbeklar, shuningdek, tojik, rus , tatar, va boshka millatlar vakillari xam yashaydi. Axolisining urtacha zichligi 1 kmga 26, 7 kishi.

Tumanda 1 shaxarcha (Dexkonobod) 14 qishloq fuqorolari yig'ini bor. Markazi – Kasana qishlog'i.

Relfi o'rtacha balandlikdan tog'lar, past tog'lar tog' oldi teksliklaridan iborat. Tumanda neft gaz, osh tuz,(Boybachaxon, va qurilish materiallari bor.)tuman xududidan G'uzor daryosining irmoqlari bor. Katta urdaryo va kichik urdaryo okib o'tadi. Tuman janubiy- g'arbiy kismida yozda qurib qoladigan Qizilcha va Bajaksoy soylari bor.Pachkamar, Dexkonobod suv ombori bor.

Tumanda tosh kesish kareri , junni qayta tayyorlash zavodi bor. Kichik korxona va mikrofermalar faoliyat ko'rsatadi. Korxona asosini chorvachilik va dexqonchilik tashkil kiladi. Ekin maydonlari 47,4 ming ko'p yillik daraxtzorlar 2,1 ming yaylovlar tashkil etadi. Yaylovlardan qarokul, hitori quylar, angor zotli echkilar qoramol yilqi boqiladi. Tuman xududida katta O'zbekistton trakti, G'uzor- Qumqo'rg'on yo'li o'tgan.

88 umumiy ta'lim, musika maktabi, kasb-xunar kollejlari, musikiy-internet foliyat ko'rsatadi.

Meterologiya stantsiyasi ishlab turibdi. «Tog' go'zali» ashula va raks ansambili, «Qo'ng'iroq» folklor etnografik ansambillari, 27 jamoat kutubxonasi,11 klub muassasalari bor. Stadion, sport majmuasi, sport zal va sport inshoatlari bor. Tuman markaziy shifoxonasi, 6 kishlok uchastka shifoxonasi, 56 fermer – akusherlik, 7 qishloq vrachlik punktlari, 7 dorixona aholiga xizmat qiladi. 1972 yildan « Dehqonobod ovozi» tuman gazetasi chikariladi.

Chiroqchi tumani

Viloyatning shimoliy kismida joylashgan. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan.(1962 yilda Yakkabog tumaniga qo'shilgan. 1964 yil 22 fevralda qayta tashkil etilgan.) maydoni 2,84 ming km. Axolisi 284,0 ming kishi,asosan, o'zbeklar, shuningdek tojik, tatar, rus, ukrain va boshka millatlar vakillari ham yashaydi. Aholi o'rtacha zichligi 1 km ga 100 kishiga teng.20 qishloq fuqorolari yig'ini bor. Markazi Chiroqchi.

Rel'fi tekis chul va qir-adirlardan iborat. Dursun qishlog'i yonida tabiiy gaz topilgan. Iklimi keskin kontemintal. Ekinlar Qashkadaryo, Qumdayo, Oyokchidaryo va boshka kanallar sug'oriladi. Tumanning janubida Chimqurg'on suv ombori bor. Tumanda paxta tozalash, g'isht zavodlari gilam fabrikasi va mikrofirmalar faoliyat ko'rsatadi. Paxtachilik, g'allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Paxtachilik bilan xam shug'ullanadi. Ekin maydonlariga paxta, don, kartoshka, poliz, sabzovot ekinlari ekiladi. 970 fermer, burdoqichilik xo'jaliklari bor.

Jamoa va xususiy xo'jaliklarda qoramol, qo'y va echki, parranda boqiladi.

174 umumiy ta'lim, bolalar musika maktablari, 3 kasb-xunar kolleji mavjud. Tuman markaziy kutubxonasi va uning tarmoqlari, 18 klub muassasasi, madaniyat va istirohat bog'i bor. Kasalxona akusherlik punktlari, poliklinika, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar aholiga xizmat ko'rsatadi. 1932 yil «CHirokchi» tuman gazetasi chikariladi.

Kasbi tumani

Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1970 yil 16 oktabirda tashkil etilgan Kasbi tuman viloyatning g'arbida joylashgan Qarshi, Koson, Nishon, Muborak, Bahoriston, Usmon Yusupov tumanlari bilan chegardosh. Maydoni 0,65 ming km². Aholisi 127,6 ming kishi (2000). Kasbi tumanida 10 qishloq fuqorolari yig'ini (Denov, Komlon, Mug'loq, Toshqidirg'on, Chovqay, Cho'lquvar, Yuksalish, Yangihayot, Qamashi, Qatag'on,) bor. Markazi – mug'lon qishlog'i 137,7 ming km.

Tabiati. Kasbi tuman Qarshi cho'lida joylashgan hududida Maymanog tog' tizmasi bor. Iqlimi keskin kontenintal. Yozi issiq, quruq va uzoq.. bahor va kuzida yog'in kam. Qishda qor oz yog'adi, qattiq sovuq bo'lmaydi. Yanvarning o'rtasida temperaturasi 00 dan 10gacha, iyulniki 28,20-31,60.

Yil davomida yog'ingarchilik kunlari 58-60 kundan oshmaydi. Temperaturaning yuqoriligi tufayli bug'lanish miqdori yiliga yog'ingarchilikka nisbatan 10 barobar ko'p. Yiliga o'rtacha 270 mm ayrim yillari 310-320 mm qurg'oqchilik yillari 100 mm yog'in tushadi.

Kasbi tumaninning Koson tumani bilan chegarasidan Qashqadaryo oqib o'tadi. Tuprog'i asosan, bo'z tuproq. Ba'zi joylarda sho'rli, yaylovlarda shuvoq, isiriq, yantoq, jingak, karrak, tuya qorin, qamish, yulg'un va boshqalar o'sadi. Yovvoyi xayvonlardan qudi, tulki, bo'ri, chiyabo'ri, yumronqoziq turli xil ilonlar, toshbaqa, kaltakesaklar,

qushlardan yovvoyi o'rdak bor. Aholisining aksariyat qismi o'zbeklar (86,1%) shuningdek tojik, turkman, qirg'iz, kares, tatar, azarbayjon, arman va boshqa millatlar yashaydi. Bir km ga 196/211,8 kishi to'g'ri keladi (2000).

Xo'jaligi. Tuman iqtisodiyotida sanoat va qishloq xo'jaligi asosiy o'rinni egallaydi. Kasbi tumanida paxta tozalash zavodi, non kanbenati, non tsexi, 2 avto korxona, sutni qayta ishlash korxonasi, maishiy sanoat korxonasi, bosma xona mavjud. 170 dan ziyot hususiy savdo ishchi fermalari, kichik korxonalari, 500 ga yaqin maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasi bor.

Qishloq xo'jaligida foydalanadigan jami yer 50 ming ga, shundan sug'oriladigan yer maydoni 45,5 min ga, ekin maydoni 43 ming ga.ni tashkil etadi. Shundan 22 ming ga yerga paxta, 16,6 ming ga yerga don ekinlari, qolgan yerlarga sabzavot, poliz kartoshka yem-xashak ekinlari ekiladi 2 min ga dan ziyod yer bog', tutzor va tokzorlardan iborat. 4 ming ga dan ortiq yer yaylov. Kasbi tumanida shirkat va bir jamoa xo'jaliklari, qishloq aktsiyadorlik jamoasi, 2 qishloq xo'jalik paychilik jamiyati, parrandachilik xo'jaligi faoliyat ko'rsatadi. Bir xo'jalik chorvadorlikka, bir xo'jalik bog'dorchilikka ixtisoslashtirilgan. Tuman xududida paxtachilik I.T. institutining Qashqadaryo filiali joylashgan, tajriba sinovlari Alisher Navoiy nomidagi shirkat xo'jaligida olib boradi. Chorvadorchilikda qoramolchilik asosiy o'rinni egallaydi. Kasbi tumanda 49,3 ming bosh qoramol, 76,6 ming ko'y-echki, 148,9 ming paranda, 933 yet boqiladi. (1998) Pillachilikni rivojlanishga ham ko'p ahamiyat bermoqda. 53 umumiy ta'lim maktabi, internat-letseyi, gimnaziya, 3 kasb-hunar maktabi, sport, musiqa maktablari, iqtisodiy ta'lim markazi, madaniyat va istirohat bog'i, 28 kutubxona, 10 madaniyat uyi, 9 klub, stadion, tennis korti, 21 sport zali, 24 futbol va 19 basketbol maydonlari bor. 50 o'rinli nogironlarni reabilitatsiya qilish markazi, 325 o'rinli 2 kasalxona, 200 o'rinli kundizgi statsionar, 12 qishloq vrachlik punkiti, 11 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 26 flodsher-ashkusher punkiti, 3 paleknika, 9 dorixona mavjud. 1100 ga yaqin oliy va o'rta maxsus ma'lumotli tibbiyot xodimi ishlamoqda. 1971 yildan "Sadoqat" tuman gazetasi chiqadi. (adadi 900).

Kitob (tumani). shaxrida

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi shahar. Tumanning m'muriy markazi. Qashqadaryo bilan oqdaryo oralig'idagi Shahrisabz Kitob botig'ida, o'rtacha 685 m balandlikda joylashgan Qarshi Kitob temir yo'l

shaxobchasining oxirgi Kitob satxidan 4 km, viloyat markazi Qarshi shaxridan 130 km. Axolisi axolisi 34,9 ming kishi. (2000).

SHahar nomi arabcha “katf-elka” tojikchaga “ob – suv” soʻzlaridan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Kitob oʻrta asrlarda gʻarb bilan sharq mamlakatlarini bir biriga bogʻlagan yirik karvon yoʻli yoqasida Samarqand Shaxrisabz (Kesh)ga yaqin joylashganligi uchun yirik shaxarga aylangan maydoni 40 ga, shahar arki 1 ga dan koʻproq joyni egallagan. Ark xarobalari xozir qalandar tepa deb yuritiladi. Shaxar devorining qalinligi 7,5 m. bu devor taxminan miloddan avvalgi 3 asrda qurilgan oʻtmishda kitobning janobiy-gʻarbiy tomonida kulolchilik shaxri joylashgan arxeologik qazishmalar natijasida ochilgan moddiy qatlamlardan katta marmar plitalar, bino qoldiqlari, turli shakildagi rangli sopol idishlar, mayda xaykalchalar va boshqa buyumlar topilgan. Shaxar bir qancha vaqt tushkunlikka tushib VI-VII asrda qayta tiklangan arkdan tashqarida 2,5 ga yerga qala qarorgox qurilib qalin devor bilan oʻrab olingan. 9-17 asrlarda shaxar avvalgi mavqeyini yoʻqotgan 18 asrda Kitob beklik markaziga aylangan birmuncha tiklangan. Oʻsha davirda kitobda 6 shahar darvozasi, bir necha oʻn goʻzar, ikki karvonsaroy, bozor xammom, 4 qabriston boʻlgan.

Xozir Kitob Qashqadaryo viloyatining yirik madaniy va ijtimoiy markazlaridan. Paxta tozalash vino zavodlari va boshqa korxonalar mavjud. Kitob kenglik stantsiyasi jaxondagi beshta shunday stantsiyaning-- Kitobda xokimligi binosi, aloqa boʻlimi, mexmonxona, madaniyat uyi, umumiy taʼlim maktablari, avtostantsiya, madaniyat va istiroxat bogʻi, stadion va tennis korti, tuman markaziy kasalxonasi paleklinika, dorixonalar savdo va maishiy xizmat shaxobchalari bor.

Kitob katta Oʻzbekiston trakti orqali Shaxrisabz, Samarqand va boshqa shaxar xamda tumanlar bilan bogʻlangan.

V. Kitob tumani

Qashqadaryo viloyatidagi tuman viloyatning shimoliy sharqida. 1926 yil sentyabirda tashkil eirilgan. 1962 yil 24 dekabrda Shaxrisabz tumani bilan birlashtirilgan 1968 yil 25 dekarda qayta tuzildi. Viloyatning chiroqchi Shaxrisabz tumanlari Samarqand viloyati va Tojikiston bilan chegaradosh maydoni 1,75 ming km, axolisi 178,9 ming kishi (2000) Kitobda 1 shahar (Kitob) va 12 ta qishloq fuqorolar yigʻini (Bektemir, Beshtarak, Bogʻbon, Makri, Palandara, Paxtaobod, Sevaz, Toʻpchoq, Qaynarbuloq, Qatorbogʻ, Qoʻyloqboy, Jilisuvlar bor). Markazi Kitob shaxri.

Tuman xududida katta O'zbekiston trakti o'tgan. Taxba qoracha davoni (balandligi 1788 m) Respublika janubini shimoliy viloyatlar bilan bog'laydi. Axoli zichligi 111,5 kishi.

Tabiati. Xududining katta qismini shimoliy va sharqiy chegaralar bo'ylab cho'zilgan baland Xisor va Zarafshon tog'lari (4000 m) egallagan. Baland tog'lar tuman xududini sovuq xavo oqimidan to'sib turgani uchun tuman iqlimi viloyatda eng mo'tadil o'rtacha temperatura 0,80 iyulniki 280 yiliga o'rtacha 845 mm yog'in tushadi. Yog'inning 85/% bahor va qish fasllariga to'g'ri keladi. Tuman hududida Qashqadaryoning irmoqlari – kichikjar oqsuv jilisi daryo oq daryo oqib o'tadi. Tuprog'i Shaxrisabz Kitob botig'ida Tiniq bo'z daryo bo'yida allyuvial bo'z, tog'larda qo'ng'ir tuproq. Efemer o'simliklar xamma joyda uchraydi. Suv bo'ylarida qamish, yulg'un o'sadi. Tog' yonbag'rilarida archa, bodom do'lana, olma, tok, yong'oq pista, zarang, daraxtlari va xilma-xil bo'talar o'rmonlar xosil qilgan tog' yon bag'irlari chorva mollari uchun yozgi yaylov.

Tulki, bo'ri, chiyabo'ri, bo'rsiq ayiq tog' echkisi, arxar, sudralib yuruvchilar, kaklik, chil, bulbul va boshqalar yashaydi.

Axolisi asosan o'zbeklar, tojik, rus, tatar, va boshqalar xam yashaydi. Axolisining o'rtacha zichligi 1km² 120 kishi shaharliklar 34,9 ming kishi, qishloq aholisi 144 ming kishi. (2000 yil)

Xo'jaligi. Kitob tumani qadimdan muhim savdo yo'llarining ustida joylashganligi Samarqand, Buxoro hamda Shaxrisabzga yaqinligi uchun dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan hududlaridan biri bo'lgan. Tuman xo'jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlar 18/7 mingga, shu jumladan, 3,3 ming ga yerga paxta, 10,1 ming ga yerga don ekinlari, qolgan yerlarga sabzavot-poliz, kartoshka, yem-xashak ekinlari ekiladi. 5,0 ming ga yaqin maydon bog' va tokzor. Chorvachilikda, qoramol, qo'y va echki boqiladi. Paxta tozalash va vino zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda. Tumanda 90 umumiy ta'lim maktabi, 2 lettsey enternat, 2 kasb-xunar koleji, 53 kutubxona, 15 qishloq kulubi, shon-shuxrat muzeyi, stadion va tennis kortlari bor. Tuman markaziy kasalxonasi 7/% qishloq felesher-akusherlik vrachlik punkti, dorixonalar mavjud bo'lib 2300 ga yaqin oliy va o'rta ma'lumotli tibbiy xodim ishlaydi. (2000)

1935 yildan "Kitob tongi" tuman gazetasi chiqadi. (adadi 1000). Tumanda Kitob balandog' rasatxonalar majmuasi faoliyat ko'rsatadi.

Shaxrisabz tumani

Viloyatning shimoliy sharqiy qismida joylashgan 1926 yil 29 sentabrda tashkil qilingan. Maydoni 1,70 ming km². aholisi 276,9 ming kishi, asosan o'zbeklar shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 162,9 kishi (2005). Tumanda 1 shahar (Shahrisabz), 1 shaharcha (Miroqi), 12 qishloq fuqorolariri yig'ini bor. Markazi – Shaxrisabz shaxri.

Tuman. Xududi xisor tog'larining etaklarida joylashgan. G'arbi ochiq voqa – Qarshi cho'liga tutashib ketadigan tekislikdan iborat. Tog'lardan oqib tushadigan Oqsuv, Qashqadaryo, Taixozdaryo, Qizildaryo, Tamisusi, Miroqi daryolari jarlik, hosil qilgan. Iqlimi kontenental, hisorot suv ombori qurilgan. Miroqi tog'i etaklarida qora marmar qazib olinadi. Hisor qo'riqxonasining 1 qismi joylashgan.

Tumandagi 19 aktsiyadorlik jamiyati, 14 shirkat korxonasi, 1300 ga yaqin xususiy korxona, shuningdek, kichik korxona va mikro fermalar faoliyat ko'rsatadi. 9 qo'shma korxona bor.

Qishloq xo'jaligi yetakchi tarmog'i – paxtachilik, shuningdek, g'allachilik, chorvachilik, pillachilik, ham rivojlangan. Sug'oriladigan yerlarga paxta, sabzavot va poliz, beda, kartoshka va boshqa ekinlar ekiladi. 480 ga yaqin fermer o'jaligi, 4 xo'jaliklararo korxona bor. Jamoa va xususiy xo'jaliklarda qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi.

109 umumiy ta'lim maktabi, akademik letsey va kasb – hunar kollejlari, bolalar musiqa, sport maktablari, buhora oziq oqat va yengil sanoat texnologiyasi inistetutining umumtexnika fakulteti ishlab turibdi. 60 jamoat kutibxonasi, 11 kulub muassasasi, madaniyat va istirohat bog'i, muzey suzish havzalari, sport zallari va boshqa sport inshoatlari. 14 kasalxona, 8 poliklenika, 18 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 13 qishloq vrachlik punkiti aholiga hizmat ko'rsatadi.

Tuman hududi orqali Toshkent - Kitob yo'lovchilar tashuvchi poezd o'tadi. Shaxrisabz bilan Toshkent, Samarqand, buxoro, Qarshi, Termiz, Denov o'rtasida va Shaxrisabz bilan Xazora, Jamiton, Qoraloycha qishloqlarida avtobus qatnaydi. Tumandagi asosiy ma'muriy yodgorliklar (Oqsaroy, Dor-us-Sabdat Va Dor-us-Tilovat majmualari, Gumbazi Sayidon, Shamsuddon Kulop, Jahongir Maqbaralari, Hazrati Imom, Ko'k Gumbaz, Abdushukur Og'aliq, Eshonur, Kunduzak Masjidlari, Chubin Madrasasi, Chorsu bozori) Shaxrisabz shaxrida.

Amir Temur tavalludining 660 yilliga munosabati bilan Shaxrisabz shaxri. Amir Temur orderi bilan mukofotlandi. (1996 yil oktyabr) 2002 yil

noyabrda Shaxrisabz shaxrining 2700 yillik yubleyi o'tkazildi. 2002 dekabrda shaxar jaxon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Shaxrisabzda 1937 yildan "Kesh" tuman gaz chiqdi.

Yakkabog' tumani

Viloyatning sharqiy qismida joylashgan. 1926 yil 29 sentabrda tashkil etilgan. Maydoni 1,3 ming km². aholisi 193,2 ming kishi, asosan o'zbeklar shuningdek, tojik, qozoq, rus, va boshqalar millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km²ga 148,6 kishi. Tumanda 1 shahar (Yakkabog'), 1 shaharcha (Eski Yakkyabog'), 9 qishloq fuqorolar yig'ini bor. Markazi yakkabog' shaxri.

Tuman hududining sharqiy chekka qismlarida hisor tizmasining janubiy g'arbiy tarmoqlari bor. Ular g'arbda Qashqadaryo tekisliklari bilan qo'shilib ketadi. Tog' etaklari adirlardan ibodat. Tog'lardan ko'p daryo va soylar oqib tushadi. Asosiy daryosi – Yakkabog'daryo va uning irmoqlari. Iqlimi kontenental. Qarabog', No'g'ayli, Yangiqo'rg'on va boshqa suv omborlari, Darxon, Beshariq, xo'ja ilg'or, qurjab ariqlari tumanning asosiy sug'orish shaxobchalaridan. Foydali qazilmalardan toshko'mir, kumush, qo'rg'oshin, mis, rux rudalari, neft bor. Xisor qo'riqxonasining bir qismi joylashgan.

Tumanda paxta tozalash, un tortish, "SHarob-konserva" zavodlari, yakkabog' tuqimachilik korxonalari, MTP, qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalari, kichik korxona va mikro fermalar faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston-Germaniya "yakkabog'teks", O'zbekiston-Rossiya "al ma'ruda" qo'shma korxonalari bor.

Qishloq xo'jaligida paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik, ipakchilik bilan shug'ullaniladi. Eski maydonchalaridaga paxta, don, sabzavot va kartoshka, ozuqa ekinlari ekiladi. Dexqon va fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi. Jamoa va xususiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parrand, yilqi boqiladi. O'rmon xo'jaliklarida dorivor o'simliklar yig'iladi. 107 umumiy ta'lim maktabi, leqey internat, sanat maktabi, 3 kasb-xunar kollei, kasb-xunar maktabi mavjud. 35 jamolat kutibxonasi, 6 klub muassasasi, madaniyat istiroxat bog'i bor. "Nozigul" falklor dastasi, "Dilnavoz" xalq ansambli faoliyat ko'rsatadi. Stadion, bolalar sport maktabi mavjud. 4 kasalxona, vrachlik tibbiy punkitlari, poliklenika, 3 ambulatoriya, tug'riqxona majmuasi va boshqa tibbiy muassasalar, 4 sanatoriya axoliga xizmat ko'rsatadi. Xududidan Qarshi –

Kitob tmir yo'l, Katta O'zbekiston trakti o'tadi. Yakkabog' shaxri bilan ko'shni tumanlar va Qarshi shaxri orasida vtobuslar qatnaydi. "Yakkabog' ovozi" tuman gazetasi chiqariladi.